

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 371. 044.3:34

QORABOYEV HUSNIDDIN KAMOLOVICH

**O‘SMIRLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING KELIB CHIQISHI,
IJTIMOIY SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH**

5A 140804 – Ijtimoiy pedagogika

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.
«Pedagogika» kafedrasini mudiri
prof. Hasanova K. _____

Ilmiy rahbar:

Dots. Abdumannotov A.M. _____

« _____ » _____ 2012 y

M.O‘.

Samarqand – 2012

M U N D A R I J A

KIRISH	3
I BOB. O'SMIRLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKNI KELIB CHIQISHINING IJTIMOYIY SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING ILMYIY-NAZARIY ASOSLARI	10
1.1.O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablari va ularni bartaraf etish pedagogik muammo sifatida	10
1.2. O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olishda pedagogik-psixologik ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	25
1.3. Turli toifadagi qonunbuzar shaxslar bilan ishlashning pedagogik jihatlari.....	37
II BOB. O'SMIRLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKNI KELIB CHIQISHINING IJTIMOYIY SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING YO'LLARI, SHAKL VA METODLARI	45
2.1. Huquqbuzarlikning oldini olishda ta'lim jarayonining maqsadi va vazifalari.....	45
2.2. Ta'lim va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'smirlarda huquqbuzarlikni oldini olishning pedagogik shart-sharoitlari.....	50
2.3. O'smirlar orasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablari va ularni bartaraf etishga oid o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tahlili va samaradorligi.....	65
Xulosa	70
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	75
Ilovalar	78

KIRISH

Muammoning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy mustaqillikka erishganligiga yigirma yildan oshdi. Kishilik jamiyati tarixi uchun bu nisbatan qisqa vaqt hisoblansa-da, bu davrda Respublika ijtimoiy hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar yuz berdi. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida qaror topgan munosabat mazmuni o'zgarib, yangicha qarashlar shakllandi. Iqtisodiy ishlab chiqarish jarayonida rivojlangan bozor munosabatlari ustuvor o'rin egallayotgan bo'lsa, madaniy sohada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish – ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohasida olib borilayotgan harakat davlat va jamiyat qurilishining umumiy mohiyatini ifodalaydi.

Insonparvar, demokratik tamoyillar asosida boshqariladigan huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish bosh ijtimoiy maqsaddir. Bizga ma'lumki, bu uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyatli kechishi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda qonunlar ustuvorligiga erishish, jamiyat a'zolarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlar hamda qonunlarga nisbatan chuqur hurmatni qaror toptirish, ularda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish, har bir fuqaroda ijtimoiy faollikning qaror topishini ta'minlashdan iborat. Ushbu talablar huquq ta'limining tashkil etilishiga nisbatan yangicha yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida»gi Farmoni (1997 yil 25 iyun) hamda Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan (1997 yil 29 avgust).

«Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi» kabi me'yoriy hujjatlarda ta'kidlanganidek, «aholining huquqiy madaniyatini oshirish va huquqiy tarbiyasini yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri» hisoblanadi.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga erishish jarayonida aholi, shu jumladan, yoshlar o'rtasida amalga oshirilayotgan huquqiy ta'lim mazmuni, darajasi,

shuningdek, ta'lim muassasalarining bu boradagi o'zni o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim muassasalari huquqiy bilimlarni berish sohasida katta imkoniyatlarga ega. Bu sohada boy tajriba ham mavjud bo'lib, bu huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonining tezlashuvini ta'minlaydi.

Davlat va jamiyat boshqaruvida mustaqillikka ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy nuqtai nazari taraqqiyotga xizmat qiladigan, milliy manfaatlariga zid bo'lmagan, tub aholining boshqa millat va elatlar bilan teng huquqlilik asosidagi hamkorligini qaror toptirishga rag'batlantiruvchi ilg'or demokratik hamda insonparvar g'oyalarning ifodalanishini ta'minlashdan iborat. Respublikamizda fuqarolarda qonunlarning jamiyat hayoti va insoniy munosabatlarning mo'tadil kechishini ta'minlovchi yetakchi omil ekanligi to'g'risidagi tushunchaning qaror topishiga erishish, ularda huquqiy bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki extiyoj, qiziqishlarni yuzaga keltirish, bu sohada muayyan ko'nikma, malakalarni shakllantirish huquqiy ta'lim samaradorligining ta'minlanishiga bog'liq.

Umumta'lim maktablarida huquqiy ta'lim samaradorligiga erishish qo'yidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi lozim:

1. Yoshlarda huquqiy me'yorlar, qonunlarning nafaqat davlat, balki shaxs manfaatlarini birdek himoya qilishiga nisbatan ishonchning shakllanishiga erishish.
2. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida huquqqa oid bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyoj va qiziqishning yuzaga kelishini ta'minlash.
3. O'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy me'yorlar, qonunlarga nisbatan hurmatni qaror toptirish.
4. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida huquqiy faoliyatga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
5. O'quvchilarda har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarlikka qarshi kurashish tuyg'usini tarbiyalash.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarida huquqiy ta'lim samaradorligini oshirish uchun uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari, shuningdek, ijtimoiy tashkilotlar, oila, mahalla kabilar bilan mustahkam aloqa o'rnatishga erishish pedagogika fanida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, shaxsda huquqiy ong va madaniyatning shakllanishi

ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Binobarin, shaxsning ijtimoiy me'yor hamda qonunlarga bo'lgan munosabati, uning xatti-harakatlari mohiyatini baholash jamiyat irodasining ifodasi demakdir.

Huquqshunoslik yo'nalishida aksariyat hollarda shaxs tomonidan tashkil etilgan harakatgina emas, balki harakatsizlik ham ijtimoiy-huquqiy jihatdan baholanadi. Shuning uchun ham umumta'lim maktablari o'quvchilarini egallayotgan mutaxassisliklari bo'yicha faoliyat ko'rsatish davrida huquqiy me'yorlarga qat'iy amal qilishga ham odatlantirish lozim va ularda huquqbuzarlikning oldini olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish kerak.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Tadqiq etilayotgan muammo mohiyatini yoritadigan ilmiy manbalarni o'rganish yoshlarning huquqiy bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlovchi takomillashgan o'quv adabiyotlarini yaratish davr talabi ekanligini ko'rsatdi.

Huquqiy ta'lim va tarbiyani samarali tashkil etishda huquq fani o'qituvchilari yoki mazkur jarayonning uyushtirilishiga mas'ul shaxslarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishiga erishish, bu yo'lda maqbul shakl, metod va vositalarning tanlanishiga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega.

Huquqiy ta'limni tashkil etish, bu yo'lda samaradorlikka erishish omillari, shart-sharoitlarini aks ettiruvchi qarashlar huquqshunos, pedagog hamda psixologi olimlar - H.B.Boboyev, K.Normatov, Z.M.Islomov, R.Mahmudov, U.Tojixonov, A.Saidov, O.Karimova; ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning jamiyat va shaxs hayotida tutgan o'rni, yoshlar ongiga huquqiy me'yorlar to'g'risidagi bilimlarni singdirish haqidagi fikrlar S.I.Vosiqova, Z.M.Islomov, R.Mahmudov, X.R.Rahmonqulov, Sh.Z.O'razayev, M.Usmonboyeva hamda A.Hamroyev; huquqiy bilimlar targ'ibotini yo'lga qo'yishda ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligiga tayanish masalasi S.I.Vosiqova, O.D.Danilova, O.Karimova, O.Omonova, H.To'ychiyeva, Z./offorov; huquqiy tarbiyani muvaffaqiyatli tashkil etish omillari va shart-sharoitlari M.Usmonboyeva, A.A.Hamroyevlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. T.K. Qudaybergenova o'zining ilmiy tadqiqot ishida o'rta maxsus o'quv yurtlarida huquqiy ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik asoslarini o'rganishga harakat qilgan.

Shuningdek voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini oldini olish muammolari bo'yicha tadqiqotchi M.Sattarova, voyaga yetmaganlarni jinoiy jazodan ozod qilishda shartli hukm qilishning ahamiyati to'g'risida G'.Ermatov, voyaga yetmagan shaxsni g'ayri ijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish jimoiyatining ijtimoiy xavfiligi to'g'risida huquqshunos olimlar S.Niyozova va Sh.Abduqodirovlar, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining krimologik tavsifi to'g'risida V.Abdullayeva, gumon qilinayotgan voyaga yetmagan o'smirlarni so'roq qilishning psixologik xususiyatlari to'g'risida G'.Normurodov, voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligining umumiy tavsifi haqida U.Mirzayev va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ammo o'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari yetarlicha o'rganilmagan. Shu bois magistrlik dissertasiyamizning mavzusini "O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablari va ularni bartaraf etish" tarzida tanladik.

Tadqiqot maqsadi: ixtisoslashtirilgan alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish maktabi tarbiyalanuvchilari o'rtasida huquqbuzarlikning kelib chiqishining ijtimoiy sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etishning yo'llariga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Samarqand shahridagi 64-son ixtisoslashtirilgan alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish maktabi tarbiyalanuvchilari o'rtasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablarini o'rganish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: umumta'lim maktablari o'quvchilarida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablari o'rganishning mazmuni, shakli,

Tadqiqot vazifalari:

1. O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablari va ularni bartaraf etish pedagogik muammo ekanligini aniqlash;
2. O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olishda pedagogik-psixologik ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
3. O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olish olishga qo'yiladigan pedagogik talablarni tahlil qilish;
4. Huquqbuzarlikning oldini olishda ta'lim jarayonining maqsadi va vazifalarini

yoritish;

5. Ta'lim va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'smirlarda huquqbuzarlikni oldini olishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish;

6. O'smirlar orasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablari va ularni bartaraf etishga oid o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tahlili va samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Agar:

- O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablari va ularni bartaraf etish pedagogik muammo ekanligini aniqlansa;

- O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olishda pedagogik-psixologik ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganilsa;

- O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olish olishga qo'yiladigan pedagogik talablarni tahlil qilinsa;

- Huquqbuzarlikning oldini olishda ta'lim jarayonining maqsadi va vazifalarini yoritilsa;

- Ta'lim va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'smirlarda huquqbuzarlikni oldini olishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqilsa;

- O'smirlar orasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablari va ularni bartaraf etishga oid o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tahlili va samaradorligini aniqlansa o'smirlar orasida huquqbuzarlikni kelib chiqishning ijtimoiy sabablari samarali bo'ladi.

Tadqiqot metodlari:

1. Pedagogik tahlil.
2. Analitik obzor.
3. Kuzatuv.
4. Anketa, suhbat, intervyu.
5. Pedagogik eksperiment.
6. Matematik-statistik metod.

Tadqiqotning metodologik asosi: dialektik bilish nazariyasi, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillar, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi,

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish haqidagi qarashlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan jamiyat va shaxs huquqiy ongi va madaniyatini qaror toptirish to'g'risidagi qarorlar, huquqiy ta'lim-tarbiyani tashkil etish va uning samaradorligini ta'minlash xususidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, mavzuga oid pedagogik, ijtimoiy, huquqiy xarakterdagi ilmiy manbalar,

Tadqiqot bosqichlari:

1-bosqich (2010 yil oktyabr-2011 yil mart): ushbu bosqichda tadqiqot muammosiga doir pedagogik, yuridik va metodik adabiyotlar mazmuni o'rganildi, ularda ilgari surilgan g'oyalar tahlil etildi, umumlashtirildi, umumta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan huquqiy ta'limning mohiyati, mavjud ahvoli respondent-o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasida tashkil etilgan anketa so'rovi, suhbatlar, shuningdek, pedagogik kuzatuv asosida o'rganildi. Tadqiqot obyekti, predmeti, ilmiy farazlari va ularga muvofiq keluvchi vazifalar belgilandi, tadqiqot samaradorligini ta'minlovchi faoliyatning tashkiliy shakl, usul, vosita va metodlari aniqlandi. Tajriba-sinov maydonlari belgilandi.

2-bosqich (2011 yil aprel-2012 yil may): umumta'lim maktablarida huquqiy ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan metodika ishlab chiqildi hamda ushbu metodika asosida yakunlovchi tajriba-sinov ishlari o'tkazildi va uning natijalari statistik tahlil qilindi.

3-bosqich (2012 yil iyun): muammo yuzasidan to'plangan nazariy materiallar hamda tajriba-sinov ishlarining natijalari umumlashtirildi, muayyan tizimga solindi va dissertasiya holatida shakllantirildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan holatlar:

- O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablari va ularni bartaraf etish pedagogik muammo ekanligi;
- O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olishda pedagogik-psixologik ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olish olishga qo'yiladigan

pedagogik talablarni tahlil qilish;

- Huquqbuzarlikning oldini olishda ta'lim jarayonining maqsadi va vazifalarini yoritish;

- Ta'lim va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'smirlarda huquqbuzarlikni oldini olishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish;

- O'smirlar orasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablari va ularni bartaraf etishga oid o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tahlili va samaradorligini aniqlash.

I BOB. O'SMIRLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKNI KELIB CHIQUISHINING IJTIMOIIY SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1.O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablari va ularni bartaraf etish pedagogik muammo sifatida

Psixologiya fanlari doktori Ergash G'oziyev "Psixologiya" (yosh davlari psixologiyasi) o'quv qo'llanmasida o'smirlar va ularning psixikasi haqida batafsil ma'lumotlarni bergan. O'smirlar to'g'risida umumiy tushuncha. Hozirgi davrda o'smirlarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini tula hisobga olgan holda ta'limni-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o'rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi.

Turg'unlik yillaridagi so'z bilan ishning nomuvofiqligi, axloq tarbiyasidagi qo'pol xatolar o'smirlarning ruhiy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, tarbiyani insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi ham g'oyat jiddiy tus oldi. O'smirlik davri taqlidchanligi, muhim nuqtasi nazarning shakllanmaganligi, hissiyotlilik, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashki ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur.

O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari: 1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotgani 2) ommaviy axborot ko'lamining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining kutarilgani; 3) o'g'il va qizlarning dunyo voqyealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi; 4) ularning jismoniy va ak.liy kamoloti jadallashgani; 5) o'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi; 6) oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;

7) o'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

O'smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda talaba bilan o'qituvchining muloqotida, kattalar bilan o'smirlarnit muomalasida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. O'qituvchining yangi mavzuni batafsil tushuntirishi, darslar ma'ruza shaklida olib borilishi talabalarni zeriktiradi, ularda o'qishga loqaydlik tug'iladi. Ilgari o'quv materialini ma'nosiga tushunmay yodlab olishga odatlangan o'smir endi zarur o'rinlarni mantiqiy xotira va tafakkurga suyangan holda o'zlashtirishga harakat qiladi, o'zlashtirilgan bilimlarni talab qilinganda o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida anglashilmovchilik paydo bo'ladi, talaba unga qarshilik ko'rsata boshlaydi. Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. Kattalarning yo'l-yo'riqlariga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o'smir ularga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Uning fikricha, kattalarning talablari, ko'rsatmalari mantiqan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli obyektiv va subyektiv omillarga ega bo'lishi kerak. O'smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning, o'qituvchining qayg'urishi, koyishiga qaramay, o'zining fikrini o'tkazishga harakat qiladi. Uning o'z qadr-qimmatini haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma'lumotlarni tushuntirib berishni yokdirmaydngan bo'lib qoladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'quvchiga munosabatini o'zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar kelib chiqadi.

Ayrim pedagoglar o'smirlik davri inqirozi to'g'risida kuyinib gapiradilar, ba'zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar. Aslida esa o'smirlarga yondashishda metodologik kamchilikka yo'l qo'yadilar. Mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqa olmaydilar. Bu masalaga

to'g'ri yondashish ayrim ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan va o'smirlik davri ishqirozi haqida mulohaza yuritishdan ko'ra, kattalar bilan o'smirlar muomalasining insiroei haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi, deb xulosa chiqarilgan.

Xo'sh, o'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch nima? O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch - uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Mana shu dialektik qarama-qarshiliklar ortib borayotgan jismoniy, aqliy hamda axloqiy imkoniyatlar bilan barqarorlashgan, stereotipga aylangan tashqi olamni aks ettirishning shakllari o'rtasida sodir bo'ladi. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashgirisish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo'qotish mumkin. Bu davr insonning kamoloti yuqoriroq bosqichiga ko'tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o'smirdan umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish, mavhumlashtirish, obyektlar o'rtasidagi ichki munosabatlarni o'rnatish, muhim qonun, qonuniyat, xossa, xususiyat, mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiliy eslab kolishni talab qiladi. Bularning barchasy fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, o'zini o'zi nazorat qilish, baholash, anglash singari xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Maktab va bilim yurtida oilada mustaqil faoliyatga keng imkoniyatlar bo'lsa, o'quvchi muayyan vazifa va topshiriqlarni bajara boshlaydi. Natijada o'smirning ijtimoiy mavqeyi ortib, faoliyati takomillashib, psixikasi har tomonlama rivojlanib boradi.

Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Shu sababli bizda o'g'il va qizlarni 10-11 dan 14-15 yoshigacha o'smirlik yoshida deb hisoblanadi.

Venalik psixolog Z. Freyd va uning shogirdlari o'smirlik davrini baholashda insonga azaldan berilgan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o'z mavqeyini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go'yoki xudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo bo'lishga, atrof-muhit bilan kelisha

olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik extiyohlari va mayllari shaxsning faolligini belgilar emish.

Ayrim psixologlar biogenetik o'sishning biologik omillariga, ya'ni jinsiy yetilishga alohida ahamiyat beradilar. Ularning fikricha, o'smirning psixik jihatdan inktozga yetaklovchi, hayajonga soluvchi subyektiv ichki kechinmalari o'g'il va qizlarni tanholik psixologiyasiga tortar emish. O'smir uchun xarakterli norozilik, qo'pollik, qaysarlik, shafqatsizlik, tajanglik, ginaxonlik, tajovuzkorlik kabi illatlar jinsiy yetilishning mahsuli yangi tuyg'ular, mayllar, kechinmalar o'smir xatti-harakatida hukmron bo'lib, uning xulq-atvorini boshqaradi deb tushuntirilmogda. O'smirlilikning psixologik qiyofasi, holati, imkoniyati yagona sof biologik omilga bog'liq emasligi hammaga ayondir.

Amerikalik psixolog R. Kulen o'smirlilik davri haqidagi biogenetik nazariyani qattiq tanqid qilib, o'smirlilik davri ijtimoiy-axloqiy kategoriyadir, degan g'oyani olg'a suradi. Ammo noto'g'ri nuqtai nazardan o'smirdikni biologik va psixologik kategoriyadan tashqari, deb hisoblaydi. R.Kulenning fikricha, o'smirlilik davrida uchta asosiy ijtimoiy-axloqiy tamoyil mavjud bo'lib, ular emansipasiya (kattalar ta'siridan qutulish) va mustaqillikka erishish, hayot yuli va kasb-hunar tanlashga jiddiy munosabatda bo'lish, zarur ijtimoiy-axloqiy normalarni o'zlashtirishdan iboratdir. Uning fikricha, bola yuqoridagi muammolarga e'tibor bermas ekan, o'smirlilik davri qancha bulishidan qat'i nazar, u bolaligicha qolaveradi. R. Kulen o'z nazariyasida biologik omillarni ham, o'smirlilik davridagi o'sishning psixologik xususiyatlarini ham hisobga olmaydi, aksincha, ularni batamom inkor qiladi.

Psixologlarning fikricha, o'smirlarga real ijtimoiy turmush shart-sharoitlari va shaxs faoliyatining mahsuli deb qarash mumkin emas, chunki o'sishning biologik va psixologik sonuniyatlarini inkor qilishga haqqimkz yo'q. Shuningdek, o'smirlilik davriinng muayyan hych o'zgarmas xususiyati va xarakgeristikasi mavjud emas. O'smirlar o'rtasidagi o'ziga xos tipologik farqlarni ijtimoiy omillarning ta'siri bilan, ta'lim va tarbiya sharoitlarining xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

O'smirlarning biologik o'sishi. O'smirlilik insonning balog'atga yetish davri bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog'onalaridan keskin farqlanadi. O'smirde ro'y beradigan biologik o'zgarishlar natijasida uning psixik dunyosida tub

burilish nuqtayoq vujudga keladi. Baloat davriga 11 (12)-15 yoshli qizlar va o'g'il bolalar kiradilar. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy o'sish va jinsiy yetilish amalga oshadi.

Bolaning bo'yi 11-12 yoshida 6-7 sm, hatto 10 sm gacha o'sishi mumkin. Biroq bu bosqichda qizlar o'g'il bolalarga qaraganda tezroq o'sadilar. O'smir 13-14 yoshga tulganda har ikkala jins o'rtasida bo'yni o'sishi qariyb baravarlashadi. O'n besh yoshga qadam qo'yganda esa o'g'il bolalar qizlarni ortda qoldirib ketadilar. Shundan keyin to umrning oxirigacha o'sishda o'g'il bolalar ustunlik qiladilar.

O'smirlik davrida bo'y bilan tana nomutanosib ravishda o'sadi, natijada bolalar oriq, nimjon va uzun bo'yi bo'lib ko'rinadilar.

O'smirlarda yurakning hajmi va tiriklik sig'imi har yili 25 foiz kattalashib boradi. Bo'yni jadal o'sishi va tana og'irligining ortishi bilan qon hamda kislorodga ehtiyoj ham ortadi, bu ehtiyoj yurak hajmining kengayishi va funksional faoliyati ko'rsatkichlarining boyishi evaziga ta'minlanadi. Mazkur davrda tananing umumiy hajmidan 7-8 foizini qon tashkil qiladi, qon bosimi birmuncha oshadi, simob ustunining 110-115 mm darajasida bo'ladi. Yurak qisqarishining chastotasi bir qadar sekinlashadi, masalan, 11 yoshda daqiqada 85-90 marta o'rgan bo'lsa, 14-15 yoshlarda 70 martagacha pasayadi.

Yurak kengayishi bilan birga qon tomirlari ham yo'g'onlashadi. Qon aylanishi sistemasining qayta qurilishi, vegetativ nerv sistemasidagi beqarorlik qon aylanishini buzadi va o'smirda ba'zan qon bosimining ortishi ro'y beradi. Qon aylanishining o'zgarishi qizlarda og'irroq kechadi, chunki ularda yurak vaznining ortishi oldinroq boshlanib, oldinroq yakunlanadi.

O'smirlik davrida iafas olish organlari jadal rivojlanadi. O'pkanint tiriklik sig'imi quyidagicha bo'ladi:

o'g'il bolalarda — 11 yoshda 1900-2000 ml; 15 yoshda 2600-2700 mm.

qizlarda —11 yoshda 1800-1900 ml; 15 yoshda 2500-2600 ml.

Shuning uchun nafas olish har daqiqada 2 marta kamayadi. O'g'il bolalar qorin bilan, qizlar esa ko'krak bilan nafas ola boshlaydilar. Ko'krak qafasi, nafas olish muskullari tez o'sa boradi va jinsiy yetilishni kuchaytirzdi.

11—12 yoshdagi o'smirning ichki sekresiya bezlari qayta ko'riladi. Gipofizning old qismi ishlab chiqaradigan gormonlar gavdaning o'sishini ta'minlaydi. Gipofizning o'rta qismi kuchayishi sababli pigmentlar almashinishi o'zgaradi, natijada soch qorayishi, yuzlarning oqarishi namoyon bo'ladi. Gipofiz bilan bir qatorda qalqonsimon bezning funksiyasi ham kuchayadi. Qalqonsimon bez ishlab chiqaradigan tiroksin gormoni organizmda modda almashinuvi va energiya sarfini keskin orttiradi. Markaziy nerv sistemasida qo'zg'aluvchanlik o'zgaradi, natijada yaqqol his-tuyg'ular tug'ila boshlaydi. Qalqonsimon bez faoliyatining kuchayishi qo'zg'aluvchgnlik, asabiylashish va toliqishni keltirib chiqaradi. Bosh miya qobig'ida tormozlanshi jarayonining susayiip shiddatli emosional kechinmalarni vujudga keltiradi, xulq-atvorda parokandalik, g'ayritabiiylik paydo bo'ladi. Qalqonsimon bez funksiyasining o'zgarishi va modda almashinuvining buzilishi sababli o'smirda semirish ro'y beradi.

Mazkur yosh davrida jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. Balog'atga yetishning birlamchi va ikkilamchi alomatlari o'sa boshlaydi: o'g'il bolalarda ovoz o'zgaradi, yo'g'onlashadi, mo'ylov va soqol paydo bo'ladi, qizlarda esa ko'krak bezlari rivojlanadi va hokazolar. Natijada boshqa jinsga qiziqish ortadi, orzu, xoxish, nozik tuyg'u, sog'inch, iztirob kabi kechinmalar paydo bo'ladi.

O'smirlar jinsiy yetilish sirlarining 17 foizini ota-onadai, 9 foizini o'qituvchilardan, 4 foizini maktab vrachidan na qolgan yashirin jihatlari, holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'cha-ko'ydan, o'rtoqlari na dugonalaridan eshitib bilib oladilar. Kutilmagan halatlar va ma'lumotlar ularning xatti-harakatini chigallashtiradi, yakkalik olamiga berilish boshlanadi, fe'l-atvorda ayrim illatlar paydo bo'ladi. Goho o'smirlar orasida axloqan tubanlashuv hollari ro'y berishi mumkin. Ularni bunday qiliqlardan, nopok guruh va to'dalardan xalos etish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy hayotda yaramas odatlarni keltirib chiqaruvchi anchagina manbalar bor: birinchidan, kino zal lari va televideniya o'smirlarga to'g'ri kelmaydigan filmlarga ruxsat qilinishi; ikkinchidan, jamoat joylarida va ko'cha-ko'yda kattalarning nojoiz qiliqlar ko'rsatishlari; uchinchidan, ta'limda biologik o'sish to'g'risida yetarli bilimlar berilmasligi, to'rtinchidan, vrachlarning bu sohada keng ko'lamda ish olib bormasligi;

beshinchidan, ota-onalarda fiziologik va psixologik bilimlar yetishmasligi; oltinchidan, o'smir bolalar va qizdarga mo'ljallangan materiallarning kamligi va hokazolar.

Tarbiyasi qiyin o'smirlar. O'qituvchilar jamoasi har qancha urinishidan qat'i nazar, ta'lim jarayonida tarbiyasi qiyin o'smirlar ham uchrab turadi. Hozirgi davrda bunday o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash usuli yaratilgan, fe'l-atvordagi nuqsonlarning xatti-harakati nosorlomligining oldini olish va tuzatish yo'llari ilmiy asosda ishlab chiqilgan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tarbiyasi qiyin, injiq, xulqi salbiy bolalarning kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari, pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. O'quvchilarda nojuy xatti-harakatlar paydo bo'lishining sabablari va turtkilari har xildir. Qonunni buzishi yoki qoidaga xilof ish qilishi darajasiga qarab tarbiyasi qiyin o'smirlar jinoiy qonunbuzar va oddiy qoida-buzar (tartibbuzar) guruh.larga ajratiladi.

Shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar tarbiyasi qiyinlarni keltirib chiqaradi. Shaxsning psixik o'sishidagi kamchiliklar, chunonchi, aql-idrokning zaif rivojlangani, irodaning bo'shlig'i, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi, o'smirning, intilishi bilan mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosiblik va hokazolar xatti-harakatni izdan chiqaradi. Shaxsning fazilatlari tarkib topishidagi nuqsonlar: axloqiy hislarning yetishmasligi, o'qituvchi, sinf jamoasi, oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot, ishyoqmaslik, bo'sh vaziyatni to'ri taqsimlamaslik va boshqalar ham salbiy qiliqlarni vujudga keltiradi. Shaxsning bilim, o'quv faoliyatidagi kamchiliklari: aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muxim bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar; maktab faoliyatidagi: o'qitishdagi nuqsonlar, tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi. Maktabdan tanqari muhitning ta'siridagi nuqsonlar, chunonchi, oilada pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi, balog'tga yetmagan tengqurlarining ta'siri, madaniy-ma'rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi: kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin o'smirlar kupayishiga sabab bo'ladi.

Tarbiyasi qiyinlarni o'rganishda kinolavhalar, yuridik varaqa, ishontirish, rag'batlantirish, bo'ysundirish, qo'rqitish, «sun'iy qiyin holatni yaratish» singari usullardan foydalaniladi. Shulardan ayrimlarining mohiyatiga qisqacha to'xtalamiz.

Odatda novella, voqeyiy, hikoya, sarguzasht, ocherk kabi adabiy asarlardan foydalanish o'smirlar xatti-harakatining sabablarini o'rganishda yaxshi samara beradi. O'qituvchi, sinf rahbari yoki ichki ishlar xodimlari tomonidan tarbiyasi qiyin o'smirlarga tegishli asardan parcha o'qib beriladi, so'ng ularda qanday qo'zgalish yoki ta'sirlanish paydo bo'layotganligi kuzatiladi. Tajriba qoidasita binoan, o'qilgan parchada o'smirlarning sarguzashti, ajoyibot va g'aroyibotlar o'z aksini topishi shart.

Agar usul o'zining ijobiy natijasini ko'rsata olmasa, boshqa vositalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Navbatdagi bosqichda ulardan o'qilgan asar personaji yoki bosh qahramonining o'rnida bo'lganida qanday ish tutishi so'raladi. Shu yo'l bilan har bir o'smirni qanday hodisalar qiziqtirishi va unda qanday salbiy xatti-harakat yoki illat mavjudligi aniqlanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotda har bir o'smirdan asarning bosh obrazi yoki personajiga munosabatini so'rashi lozim. Chunki shaxsiy mulohazalar zaminida o'smirning ruhiy dunyosidagi turli kechinmalar aks etadi. Shu tufayli ularning nojo'ya xatti-harakatlari nimalar bilan bog'liq ekanligi o'qituvchiga ayon bo'ladi.

Tajriba o'tkazishda matnni o'qilayotganda psixologik pauzaga, ravon ohangga, uqish sur'ati va ritmiga alohida e'tibor berish lozim. Ana shu koidalarga rioya qilinsagina matnning ta'siri ortadi, o'smirdagi muayyan kechinmalarning tashqi ifodasi tez ko'rinadi. O'smirlar xususiyatiga mos matnlarni tanlash, ularning hajmiga va mazmuniga e'tibor berish alohida ahamiyat kasb etadi. Tanlangan matnlar tarbiyasi qiyin o'smirlarning o'ziga xos va yosh xususiyatlariga, ichki imkoniyatlariga mutlaqo mos bo'lishi shart.

Qonunbuzarlikning sababini aniqlash usullaridan yana biri - syujetli fotosuratlar yoki rasmlar bilan tajriba o'tkazishdir. Buning ma'nosi va maqsadi o'smirlarning salbiy xatti-harakatlarini keltirib chiqaradigan qanday motivlar mavjudligini, shuningdek, ular qaysi ta'sirlarga osonroq berilishini aniqlashdir.

Tarbiyasi qiyin o'smirlardagi xususiyatlarni o'rganishning yana bir yo'li alohida-alohida suhbat o'tkazish orqali ularning ruhiy kechinmalari bilan tanishishdir. Suhbat

kezida yaxshi va yomon xulq-atvor, xatti-harakatlar yuzasidan keng ma'lumotlar to'planadi. Mazkur jarayonda amalga oshiriladigan har xil, xatti-harakatlarni baholash, ularni sharqlab berish lozim. Xatti-harakatni baholashda o'smirga qo'yilgan ayb yo tan olinadi yoki mutlaqo u inkor etiladi. Biroq utkazilgan suhbatlar o'smirning psixik dunyosiga shunday nozik ta'sir qilishi kerakki, natijada unda vijdon azobi, ung'aysizlik tuyg'usi vujudga kelsin. O'smir shaxsiyatiga tegadigan muomala qilish man etiladi. Hamma vaqt suhbat davomida ilik psixologik iklim, do'stona munosabat, qulay mikromuhit bo'lmog'i shart. Faqat shundagina mavjud imkoniyatlardan unumli va samarali foydalanish mumkin. O'smirlar bilan suhbat orqali ularning kelajak rejalari, orzu-umidlari, intilishlari, jismoniy va aqliy mehnatga yaroqligi aniqlanadi.

O'smirlarning tipologik xususiyatlariga binoan bir nechta shartli guruhga ajratish mumkin.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning birinchi guruhi orsizlar yoki subutsizlar deyiladi. Ular o'z xatolarini bilib turib qonun va qoidalarni buzadilar, noma'kul ishlarni qiladilar. Ko'pincha ular o'zlarining gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar, maktabdagi ayrim kamchiliklarni tanqid kiladilar. Lekin yutuqlarni e'tirof qilishni xohlamaydilar. Shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga ma'qullashni va o'z talablarini o'zgalar so'zsiz bajarishini juda yoqtiradilar. Bunday bolalar betga chopar, o'jar tabiatli, rahm-shafqatsiz, «zo'ravon» bo'ladilar. Mustaqil fikrga ega bo'lmagan tengdoshlarini o'z atroflariga to'playdilar va birgalikda tartib buzishga undaydilar.

Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar yaxshi va yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e'tiqodga, barqaror yuksak his-tuyg'uga ega emasliklari sababli «orqa qanoat»da turib qoidani buzadilar. Ularning xatti-harakatlari tasodifiy voqyelikka, ta'sir kuchiga va vaziyat xususiyatiga bog'likdir. Ular tashviqotga tez beriladilar, barcha narsalarga ishonadilar, qaysi yo'lga kirib qolganliklarini anglab yetadilar, biroq «kompaniya» fikriga qarshi borishga botina olmay ko'ngilsiz ishlarga qo'l uradilar. Ko'pincha tartibbuzarlar qilmishlariga tavba qilib, sinf jamoasi a'zolarini ishontiradilar, lekin ma'lum fursat o'tgandan so'ng bergan va'dalarini butunlay unutadnlar.

Uchinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxsiyatparastlik tufayli qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo'lga kirib qoladilar. Ular shaxsiy talablari va

ehtiyojlarini qondirish uchun har qanday nojuya xatti-harakatdan qaytmaydilar, hamisha odamlarga yaxshilik qilishni orzulaydilar, biroq o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ijtimoiy manfaatdan yuqori qo'yadilar. O'zlarining xohishlarini taqiqlangan usullar bilan amalga oshiradilar, so'ng qilmishlariga afsus-nadomat chekadilar, ruhan eziladilar. Lekin mazkur kechinmalarni tez unutadilar, ularning shaxsiy ehtiyojlari har qanday yuksak hislardan, xohishlardan ustun turadi. Axloqqa xilof xatti-harakatlar achinish hissi tarzida namoyon bo'ladi, xolos.

Injiq tabiatli o'smirlar to'rtinchi rypyhga mansub, bo'lib, ular sinf jamoasida o'z o'rinlarini topa olmaganidan qayg'uradilar. Bunday o'quvchilar ginaxon, arazchi bo'ladilar, shuning uchun sinf jamoasida kamsitilayotgandek kechinmalar bilan yashaydilar. Bunday holatning vujudga kelishiga asosiy sabab shaxsiy imkoniyatlardan ko'ra intilish, mayl va obro' ketidan quvishning ustunligidir. Ular jamoa a'zolarining hurmatiga sazovor bo'lishni xohlaydilar. Ko'pincha tundlik bilan ish tutadilar, biror narsaga xayrixohliklari yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Tushkunlik kayfiyati, umidsizlik, o'z imkoniyati, akushy quvvatiga ishonchsizlik ularga xos xususiyatlardir. Ular qonun va qoidalarni buzishga astoydil harakat qilmasalarda, ta'lim va tarbiya jarayonida qiyinchilik tug'diradilar.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning xatti-harakatlarini ijobiy yo'nalishga burib yuborish uchun ularda mas'uliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularga yoshi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ularga kichik jamoani, sport seksiyasini, tirik burchakni boshqarish vazifasini nshonib topshirish natijasida salbiy fe'l-atvorlarini kamaytirish mumkin. Ularni uzlari qizikdan to'garaklarga jalb qilish orqali o'qishga salbiy munosabatlari asta-sekin yo'qotib boriladi.

Tarbiyasi qiyin o'smir o'quvchilarni qayta tarbiyalash uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarii keltirib chiqaruvchi sabablar majmuasi.

I. Shaxsniig biologik nussonlari:

a) seym organlarining kamchiliklari;

b) o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperament xususiyatlarining mavjudligi;

v) psixopatologik ojizliklar.

II. Shaxsning psixik kamolotidagi kamchiliklar:

a) aqliing bo'sh o'sganligi;

b) irodaning zaifligi;

v) shaxsda hissiyotning kam rivojlangani;

g) zarur ehtiyoj va bilishga qiziqishlar mavjud emasligi;

d) o'smirdagi intilish bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi.

III. Shaxsning tarbiyasidagi nuqsonlar:

a) axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar;

b) o'smirning o'qituvchi, sinf jamoasi va oila a'zolari bilan muloqotidagi zaifliklar;

v) mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar;

g) bush vaqtni taqsimlashdagi xatolar.

IV. Shaxsning bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari:

a) bilimlar, maxsus ko'nikmalar va malakalarni egallashdagi uzilishlar;

b) ta'lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operasiyalarining yetishmasligi.

V. Maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar:

a) ta'lim jarayonida bilimlar va xatti-harakatlarni adolatsiz baholash, darslik va o'quv qo'llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, sinfda qoldirish va hokazolar.

b) maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar (o'qituvchining o'smirda xayrixoh emasligi, o'quvchining yakkalanishi, o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasidagi nuqsonlar, pedagogik qarovsizlik, o'z o'rnini topa olmaslik va boshqalar).

VI. Maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlar:

a) oilada pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligi;

b) oilaning buzilishi va oilaviy nizolar;

v) ota-ana yoki oila a'zolarining shahvoniy hayotga va ichkilikka berilishi;

g) oila a'zolari o'rtasida sudlangan odamning uchrashi;

d) tengqurlarining salbiy ishlarga (haqorat qilishga, ichishga, chekishga, qo'li egrilikka) o'rgatishi va hokazo;

e) madaniy-ma'rifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning kamchiliklari.

Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarining oldini olish muammolari.

Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarining oldini olish bu ijtimoiy faoliyat bo'lib, jamiyat rivojlanishi va boshqa ijtimoiy holatlar bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lib, o'z o'rniga ega. Xuddi shu ma'noda, individual oldini olish (profilaktika)ni ijtimoiylashuvi jarayonining bir qism sifatida qarash kerak.

Butun insoniyat tarixi va bor bo'lgan ijtimoiy institutlar huquqiy xulqni shakllashtirishga qaratilgan. Shuning uchun shaxsning ijtimoiylashuvi unda axloqiy sifatlari va huquqiy ongini shakllantirishni keltirib chiqaradi. Ushbu jarayonda stixiyalikning ko'p hajmdaligi aksijtimoiylashuvni keltirib chiqaradi.

Aksijtimoiy faktorlarni yo'qotish huquqbuzarlikning oldini olish asosiy vazifasidir. Shuning uchun ularning o'zaro aloqasini, aksijtimoiy subyektlar bilan aloqasini aniqlash, jamiyatdagi o'zgarishlarni hisobga olish oldini olish ishining sifatini oshiradi.

Aksijtimoiy subyektlar soni cheklangan. Bular asosan alohida salbiy fe'li shaxslar yoki ularning guruhlari yoxud yoshlarning ba'zi uyushmalari yo ba'zan oila bo'lishi mumkin.

Lekin, ularning aksijtimoiy ta'siri shaxsning xususiyati bilan bog'liq determinanlarning borligida ko'rinadi.

Demak, voyaga yetmaganning aksijtimoiy muhit bilan ta'siri doim ham uning aksijtimoiylashuviga olib kelmaydi. Bu ta'sir bilan mos kelmaydigan shaxsiy xususiyatlardan tashqari, jamiyat axloqiy negizi, huquq va davlat muassasalari faoliyati, jamoat tashkilotlari faoliyati, alohida fuqarolar faoliyatlari ham bunga yordam beradi.

Lekin voyaga yetmagan to'liq ijtimoiy shaxs emas, chunki u rivojlanish bosqichidadir. Undagi axloqiy va huquqiy o'rnatmalar (ustanovka)ning buzilishi faqatgina uning aksijtimoiylashuviga emas, balkim to'liq, ijtimoiy emasligiga ham bog'liq. Shu sababli huquqbuzarlikning oldini olishda ijtimoiylashtirish sifatini umuman oshirish, uning ijobiy yo'nalishi va bosqichlarini oshirish hamda aksijtimoiy subyektlar salbiy ta'sirini kamaytirishni e'tiborga olish kerak.

Kriminologik adabiyotda ijtimoiylashish 5 bosqichga bo'lingan, bular birlamchi, o'rta, doimiy, yetuk odam ijtimoiylashishi va qariyalar ijtimoiylashishi bosqichlaridir.

O'rta va doimiy bosqichlardagi aksijtimoiy belgilar shaxsning yetuk davrdagi aksijtimoiy yo'nalishini belgilab beradi. Lekin, bu yetarli emas. Bunday katta hayotiy bosqichlarga bo'lish tarbiyaviy vositalar ta'sir etuvchi yoshni aniqlash imkonini bermaydi. Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarini oldini olish o'rta va doimiy bosqichlarni yana to'laroq taqsimlashni talab qiladi.

Medisina, fiziologiya, pedagogika va psixologiya odam rivojlanishini aniqroq bosqichlarda o'rganadi. Individning jismoniy va ruhiy tomonida o'zgarishlar vujudga keluvchi kritik vaqtlar bizga ma'lum. Ular shu vaqt ichida muayyan sifatlar rivojlanishi qulay bo'ladi. Yurish gapish, o'qish, yozish, mehnat qilishni rivojlantirishning yosh chegaralari fanga aniq ma'lum.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari oldini olish ushbu vaqtlarni aniqlashdan tashqari, voyaga yetmaganlarni tipologik xususiyatlarni o'rganishini talab qiladi. Ularga asosan shaxsing biron-bir ta'sirga aks ta'sirini aniqlashga yordam beradi. Bular asosida ijtimoiylashishning alohida bosqichlari bo'yicha va shaxsning tipik xususiyatlariga ko'ra differensiallangan dasturlar tuzish mumkin bo'lardi.

Ushbu muammo turli fan sohalari vakillari, avvalo psixolog va pedagoglardan, olimlar va amaliyot xodimlaridan iborat kollektiv tomonidan hal qilinishi mumkin.

Ijtimoiylashishni ilk davrida, asosiy axloqiy jismoniy va ma'naviy sifatlar shakllanishi vaqtida ijtimoiy subyektlar – oilaning ahamiyati yuksak bo'ladi. Bu, birinchidan – ota-onaning avtoriteti va ikkinchidan uzoq vaqtli emosional kontakt borligi bilan belgilanadi.

Lekin, oila ham ijobiy, ham aksijtimoiy subyekt bo'lishi mumkin. Bunda birinchi holda unga tegishli differensiallangan dastur berish, ikkinchi holda aksijtimoiy ta'sirini yo'qotish kerak.

Qiyin oila muammosi doimo kriminologlar diqqatida bo'lgan. Bunday oilalar tuzilishini o'rganish uchun voyaga yetmaganlar bo'limi ro'yxatida bo'lganlar, maxsus maktablarda o'qiyotgan, yo jinoiy jazo o'tayotgan shaxslarning (voyaga yetmaganlarning) oilalari o'rganildi. Hammasi bo'lib, 450 ta erkak jinsidagi huquqbuzar o'rganildi. Ular va ularning tarbiyachilar respondent bo'lishdi. Olingan ma'lumotlar IIV voyaga yetmaganlar bo'limi ma'lumotlari bilan solishtirildi.

Aniqlanishicha klassik qiyin oilalar, ya'ni piyanistalik, axloqsizlik xulqi, huquqbuzarliklari, bitta ota yo onasining oilada yashashi, ikkinchisining undan tashqarida yashashi bilan xarakterlanuvchi oilalar bunda ozchilikni tashkil qildi. Tarbiyachilarning fakricha faqatgina bu oilalarning 6, 9 foizida ichkilokbozlik va 1, 7 foizida axloqsiz turmush tarzi hukmron. Voyaga yetmaganlarning aytishiga 18, 5 foiz otalar va 6, 5 foiz onalar haftasiga bir va undar ko'p spirtlik ichishadi. Voyaga yetmaganlani shaxsiy xususiyatini o'rganish natijasida 14, 9 foiz oila yolg'on va 11, 6 foizida esa bolalarga zo'rlik ishlatish va qattiq talab qilish hukmronlik qilishi aniqlandi.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlar oilalari tuzilmasida ijobiy oilalar katta o'rin tutadi. Ulardan taxminan 60 foizdan kam ilg'anadigan bolalar tarbiyasi xatolari ko'rinadi: 34,5 foiz oilalarda bolani doimo asossiz erkalashadi, 26,2 foiz oilada esa bolani mustaqilidan va oila muammolaridan ajratilgan.

O'rganilgan oilalar moddiy ahvol yaxshi. Faqat, 12-13 foiz oilalarda moddiy kamchiliklar bor. Qolgan oilalarda hamma narsa yetarli, ularning ko'pchiligida moddiy ehtiyojlar ma'naviyalaridan ustun qo'yilib, shu orqali bolalarning qimmat narsalarga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi.

Erkalash, moddiy ta'minlash sovet pedagogikasining prinsiplariga to'liq mos keladi. Lekin bu usullar bir tomonlama, oshirib qo'llanilganda erkalash natijasida bolada egoistlik paydo bo'ladi, uni parvarish qilish natijasida mustaqilligi yo'qoladi, birgalikda faoliyat yuritmaslik emosional kontaktlardan ayiradi.

Bunday hollarda bolalar ota-ona bilan mazmunan umumiylikni yo'qotadi.

Nazoratsizlik vujudga kelib, bolalarda aksijtimoiy yo'nalish o'rnatiladi.

Bizning tadqiqotimiz natijasiga ko'ra, bunday oilalar tarkibi doimo o'zgirib bormoqda. Bu ota-onalarning o'z bolalariga munosabati va pedagogik ma'lumoti bilan bog'liq. Oxirgi faktor moddiy olam o'zgarishlari bilan doimo mos bo'lmaydi. Shuning uchun rivojlangan shaxsni shakllantirishda va huquqbuzarlikning oldi olindi pedagogik usullarni o'zgarishlarga moslab borish va pedagogik savodsiz oilalar bilan aloqa qilish, ularni mas'uliyatini oshirish muhimdir. Bunda ko'pgina mutaxassislar, jumladan sosiologlar, pedagog va yuristlarning faolligi talab qilinadi.

Klassik qiyin oilalarni aniqlash oson. Huquq organlari ularga ta'sir qilishning boy tajribasiga egalar. Biroq pedagogik savodsizlikni aniqlash faqatgina mutaxassis-pedagoglar qo'lidan keladi. Bu muommani hal qilish xalq ta'limi organlari zimmasidagi vazifadir.

Aksijtimoyilashtirish subyektlari ichida yoshlarning salbiy yo'nalishdagi birlashmalari, katta yoshdagi huquqbuzarliklar va ularning guruhlar alohida o'rin tutadi. Katta, ya'ni voyaga yetmagan huquqbuzarliklar bilan ishlashda tashkilotchilik vazifasi, albatta ichki ishlar organlariga tegishlidir.

Voyaga yetmaganlar xulqiga oila, maktab va yoshlarning birlashmalari katta ta'sir ko'rsatadi: birinchisi emosional va iqtisodiy ta'sir orqali;

Ikkinchisi – pedagogik usullar bilan;

Uchinchisi – tengdoshlarning umumiy qiziqishlari orqali.

Xalq ta'limi organlarining kasbiy tayyorgarligi va vazifalari ularning yo'naltirilgan ijtimoiylashtirish faoliyatida yetakchi o'rin egallashlarini ta'minlaydi. Bu hol xalq ta'limi organlarini voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishda bosh tashkilotchi qilib qo'yadi. Ularning bu faoliyat boshqa subyektlari bilan o'zaro aloqasi oxirgilarning pedagogik savodini oshiradi.

Shaxsning rivojlanish bosqichlari va voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining individual oldini olish faoliyati subyektlarining bu tizimdagi o'rni haqidagi biz ko'rib chiqqan massalalar ijtimoiylashtirishning ijobiy yo'nalishining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Taklif qilinayotgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiylashtirish differensasion bosqichlari va shaxsiy xususiyatlari asosida voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olish dasturlari bu faoliyat subyektlarining qulay vosita quroli bo'lib xizmat qiladi. Alohida shaxslar oilalar, mikrogruplar bilan pedagogik va huquqiy aloqadorlik, ta'sirni samaraliroq va aniqroq amalga oshirish mumkin bo'ladi.

1.2. O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olishda pedagogik-psixologik ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari

Har qanday huquqbuzarliklarning oldini olishda shaxsga psixologik-pedagogik ta'sir etilmas ekan, tarbiyaviy shlarda samaradorlik bo'lmaydi. Shaxslarga pedagogik ta'sir etish usullaridan asosiy maqsad – tarbiyalanayotgan shaxslarga yakka tartibda pedagogik ta'sir etish orqali ularni jamiyat uchun foydali ishga jalb qilish.

Psixologik-pedagogik ta'sir etish – mavjud tarbiyaviy usullar yig'indisi emas, balki tarbiyachining tarbiyalanuvchi ongiga ijobiy ta'siri, muomalasi va murojaatidir. Har bir shaxsga psixologik-pedagogik ta'sir etishning o'z maqsadi bo'lib, unga erishish uchun barcha mavjud chora-tadbirlar ko'riladi. Shaxslarga yakka tartibda psixologik-pedagogik ta'sir etishda har doim ham ijobiylik bo'laveradi, deb ayta olmaymiz. Chunki ba'zi bir shaxslarda salbiy jihatlar ustun bo'ladi, masalan, janjal chiqarishga moyillik, boshqalarni tushunishni xohlamaslik va hokazo. Yakka tartibdagi huquqbuzarlikning oldini olish quroli tarbiya usullaridir.

Tarbiya usullaridan eng ko'p tarqalgani mehnat qilishga undash bo'lib, u mehnatga jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Mehnat qilish esa jinoyatning oldini olishning o'ziga xos usuli. Bundan barcha huquqbuzarliklarning boshida bekorchilik turadi, deb xulosa qilishimiz mumkin. Shuning uchun ham yakka tartibda huquqbuzarliklarning oldini olishda ichki ishlar organlarining xodimlaridan bosiqlik, bardoshlilik talab qilinadi.

Yakka tartibda huquqbuzarlikning oldini olishdagi eng qiyin jarayon bu – psixologik tarbiyaviy ta'sir etish usullarini tanlash. Chunki har qanday yakka tartibda tarbiyaviy ta'sir etish o'ziga xos tarbiya usullarini qo'llashni talab qiladi. Tarbiyaviy ishlarni olib borishda pedagog nazariyachilar ilmiy kuzatishlarining ham o'z o'rnini bor, masalan, amaliyotdagi tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi ichki ishlar organlarining xodimlari qo'llamayotgan usullarni nazariyachilar aniqlashlari va organ xodimlariga o'sha usullarni qo'llab ko'rishni tavsiya etishlari mumkin.

Tarbiya tizimida ichki ishlar organlari xodimlarining pedagogik faoliyatini quyidagilarga bo'lib o'rganilsa, to'g'ri deb o'ylaymiz, ya'ni:

- 1) shaxslarning psixikasiga og'zaki, yozma va texnik vositalar orqali ta'sir etish;
- 2) shaxslarning intellektual darajasi va uni rivojlantirishga pedagogik faoliyatni

yo'naltirish;

3) shaxslarning xatti-harakatida tarbiyaga bo'ysuna bilish yoki bo'ysuna olmaslik harakatlarini ham o'rganib borish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida»gi (2000 yil 27 sentyabr) qarorida yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, tarbiyalash, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga mutasaddi bo'lgan o'zini o'zi boshqarish organlari, o'quv muassasalari va boshqa idoralarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mahalliy hokimliklar huzuridagi mavjud komissiyalar o'z faoliyatini deyarli to'xtatib qo'yganligi ta'kidlab o'tiladi. Lekin o'zlarining ishlariga mas'uliyat bilan qarayotgan, burchlarini vijdonan ado etayotgan, o'zlarining faoliyatida, ya'ni voyaga yetmagan yoshlarning ongi, tafakkurini shakllantirish, yuksaltirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda huquqiy savodxonligini oshirishda ma'naviy va ma'rifiy ishlarni jonlantirayotgan ichki ishlar organlarining xodimlari ham kam emas. Bunday tadbirlarning o'zi yetarli emas, deb o'ylaymiz. Buning uchun esa o'zaro hamkorlik kerak bo'ladi, masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklari, respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» kengashi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, «Sog'lom avlod uchun», «Kamolot» jamg'armalari, o'zini o'zi boshqarish organlari bilan bog'lanish kerak bo'ladi. Ichki ishlar organlarining xodimlari yoshlar, o'smirlarni tarbiyalash va o'qitish ishlarining qanday amalga oshirilayotgani ustidan nazoratni kuchaytirsalargina o'zaro hamkorlik jarayonining samarasi va dolzarbligi yo'qolmaydi.

Yakka tartibda huquqbuzarlikning oldini olishda va shaxslarga psixologik-pedagogik ta'sir etishda ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy jihatdan bunday tarbiyaviy faoliyatga tayyor emasliklari ham ularning tarbiyaviy ta'sir etish usullaridan to'la foydala olmasliklariga sabab bo'ladi. Bunday hol iloji boricha takrorlanmasligi kerak, agar yana takrorlansa, keyingi safar tashkil etiladigan tarbiyaviy profilaktik tadbirga fuqarolar kelmasliklari ham mumkin yoki kelganlarida ham ijobiy emas, balki salbiy fikr bilan qaytib ketadilar, o'zlarida tarbiyaning hiech qanday ta'sir kuchini sezmaydilar.

Bunday paytda tarbiyachi shaxs quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak: bilimli bo'lish, notiqlik san'atini mukammal egallagan bo'lishi (auditoriyani o'ziga jalb qila olishi), hayotiy amaliy tajribaga ega bo'lishi, auditoriyaning kayfiyatini tez ilg'ay olishi.

Yakka tartibdagi profilaktik tarbiyaviy ishlarni olib borishda kuzatish usuli juda qo'l keladi, chunki birinchi uchrashganlarida u doimo o'ziga xos, hech kim bilan tenglashtirib bo'lmaydigan shaxsdek tuyuladi. Ichki ishlar organlarining xodimlari profilaktik tarbiyaviy ishlarni olib borishda ana shunday to'siqlarni yo'q qila olish san'atini egallaganliklari bilan ham ajralib turishlari lozim. Birinchidan, profilaktik tarbiyaviy ishlarni olib borishda obyekt bilan subyekt o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri tarbiyaviy ta'sir etish ishlari olib boriladi, bunda dastlab, tarbiyaviy jarayon ataylab olib borilmayotgandek tuyuladi, lekin har qanday uchrashuv va tadbirning asosida o'ziga xos tarbiya, ta'sir etish hamda uning elementlari mavjud bo'ladi.

Jinoyatlarning oldini olish ishlari ikki tomonlama – umumijtimoiy hamda kriminologik, ya'ni maxsus tashkil etilgan tadbirlar orqali olib boriladi.

Yakka tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olishda va shaxslarga psixologik-pedagogik ta'sir etishda tarbiya obyektini doimo shaxslar, ularning ongi, psixologiyasi, sezgisi va axloqi bo'ladi, boshqacha aytganda, ichki ishlar organlari xodimlarining tarbiya obyektini alohida shaxslar, bir guruh shaxslar, mehnat jamoalari, oilalar bo'lishi mumkin. Shu o'rinda aytish mumkinki, qadim-qadimdan tarbiyachilar o'rtasida tarbiyaviy ish olib bormoqchi bo'lsang, eng avvalo, kimga tarbiyaviy ta'sir etasan – o'shani bilishing kerak, degan fikr mavjud. Ushbu fikr juda to'g'ri bo'lib, haligacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

O'tkazilgan profilaktik tadbirlarning natijalarini, birinchidan, shaxsning ijtimoiy turmushida ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishida; ikkinchidan, uning ijtimoiy faolligida; uchinchidan, shaxsning o'zi doimo faol bo'lib, boshqalarni ham faollikka jalb etishida ko'rishimiz mumkin.

Yakka tartibda huquqbuzarlikning oldini olishda huquqiy bilimlar va umuman, huquqning o'rnini o'ziga. Masalan, jinoyatlar sodir etilishining oldini olishda huquq normalarini amaliyotda to'g'ri qo'llay olish nihoyatda muhim hisoblanadi, chunki huquq normalarini amaliyotda to'g'ri qo'llay olish tufayli shaxslarning axloqida ijobiylik

yuzaga keladi. Bunday ijobiylik shaxsning jinoyat sodir qilishi yoki huquq normalarini buzishining oldini oladi. Hatto boshqalardan ham jinoyat yoki huquqbuzarlikni sodir etmaslikni talab qilish darajasigacha yetadi.

«Har qanday aqlli odam kasalni tuzatishdan avval, kasal bo'lmashlikning harakatini qiladi» degan mashhur hikmat jinoyatga qarshi kurashgandan ko'ra, sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatning oldini olgan yaxshi, degan fikrni tasdiqlaydi. Huquq normalari ijtimoiy faoliyatimizni tartibga solish bilan birga, u shaxslarni har qanday boshqa salbiy oqibatlardan ham himoya qiladi. Bu jamiyat rivojida o'ziga xos o'rin egallaydi, masalan, jinoiy jazoni o'tayotgan shaxslar, nafaqat aynan sodir etgan jinoyatlari uchun jazosini o'tayapmiz, deb o'ylaydilar, shuningdek, ular boshqa jinoyat sodir etmaslik, uni sodir etgan shaxsning qilmishi aslo kechirilmasligini ham anglab yetadilar. Jinoyat sodir etilishi va huquqbuzarlikning oldini olishda, nafaqat jinoyat huquqi, shuningdek, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi, intizom choralari turlaridan ham keng foydalaniladi.

Huquqbuzarlikning oldini olishda amaldagi qonunlarning tarbiyaviy ahamiyati ham o'ziga xoslikni yuzaga keltiradi. Huquqiy bilimlarning shaxs ongiga ijobiy ta'sir etishi, bunday ijobiy ta'sir etishning natijalarini, ya'ni qonunga hurmat va shaxslarda qonunni buzmaslikning odat tusiga aylanganligida ko'rishimiz mumkin.

Shaxs xizmat faoliyatining ahamiyatini oshirish va ko'rsatishda huquq normalarining bugungi kundagi ta'siri, jinoyatning oldini olish va sodir etilgan jinoyatlarning sabablarini aniqlash hamda ochib berish - doim eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Yakka tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olish haqida Yu. V. Soloponovning fikriga qo'shilamiz, chunki uning fikri hayotdan olingan, ya'ni shaxsning sudlanganligi – bu uning uchun o'ziga xos sinov muddati hisoblanadi, chunki shaxs jazoni o'tab, o'zini erkin hayotga moslashganligini ko'rsata bilishi kerak. Bu fikr esa shaxsga ta'sir etishda o'ziga xos yakka tartibdagi profilaktika hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarining xodimlari, ayniqsa, profilaktika nozirlari profilaktik ishlarni jinoyat huquqi qonunlariga suyangan holda olib boradilar. Profilaktika vakillari jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurash usullarini tanlaydilar va tartibga soladilar. Bundan tashqari, yakka tartibdagi huquqbuzarlikning oldini olishda O'zbekiston

Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi ham muhim manba hisoblanadi, chunki jinoyat huquqi bor joyda, albatta, jinoyat-prosessual huquqning bo'lishi tabiiy, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, ular bir-birining faoliyatini to'ldiradi.

Shaxslarning sodir etadigan yakka tartibdagi huquqbuzarliklarining oldini olishda ma'muriy javobgarlik, ya'ni aybdorning ishini o'rtoqlik sudiga berish, jarima to'latish kabilar ham muhim hisoblanadi. Balog'at yoshiga yetmagan shaxslarning sodir etgan jinoyatlarini o'rganib, tahlil qilib, bunday shaxslarning huquqiy ongiga ijobiy ta'sir qilish yo'llarini izlash davr talabi bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar»ning asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat: voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning nazoratsiz, qarovsiz qolishi hamda ular o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralarini amalga oshirish; davlat idoralari, o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlarining voyaga yetmaganlarning nazoratsiz qolishi va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari yuzasidan faoliyatini muvofiqlashtirish.

Yuqorida to'xtalib o'tganimizdek, yakka tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olishda ma'muriy huquq normalari o'ziga xos o'rin tutadi, bunda shaxslarni ma'muriy ogohlantirish va jazolash usullari muhim hisoblanadi. Eng asosiysi – shaxslarga ma'muriy-huquqiy normalarni qo'llash orqali ichkilikbozlikka, tekinxo'rlikka, shuningdek, jamoat tartibini saqlash va residiv jinoyatchilikka qarshi to'la ma'nodagi kurash tadbirlarini amalga oshirish mumkin.

Shaxslarga nisbatan ma'muriy jazoni qo'llashning o'zi ularni har bir ishni kelgusida o'ylab qilishga majbur etadi. Shaxsga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin, u yana jinoyat sodir etsa, endi ma'muriy jazo emas, balki undan qattiqroq jazo qo'llaniladi (albatta, ma'muriy jazoning muddati o'tmagan bo'lsa).

Qattiq jazoning qo'llanishi shaxs o'zining axloqini tuzatmaganidan, qilmishidan xulosa chiqarmaganidan dalolat beradi. Ma'muriy jazoni tayinlashning xavfli tomoni shundaki, jazolangan shaxs to'g'ri xulosa chiqarmay, kelgusida katta jinoyatlarning kelib chiqishiga ham sababchi bo'lishi mumkin.

Yakka tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olishda fuqaroviy huquqning o'ziga xos o'rni va ahamiyati mavjud. Mehnat qonunlari ham bundan chetda qolmaydi, lekin bu qonunlarning barchasini o'rganish ushbu darslikning o'rganish obyektiga kirmaydi. Biz huquq normalari va ularning yakka tartibdagi profilaktik tadbirlarga ta'sirini tahlil qilishimiz borasida shuni aytishimiz mumkinki, yakka tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy normalar tizimi mavjud bo'lib, bu tizim yakka huquqbuzarlikning oldini olishni birma-bir o'rganadi.

Yakka tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olish tarbiyaviy profilaktik ishlarning asosini tashkil qiladi. Uning quyidagi turlari mavjud :

1) umumiy; 2) maxsus; 3) huquqni himoya qiluvchi va huquqni tartibga soluvchi; 4) moddiy-ma'naviy va prosessual;

5) boshqaruvchi; 6) man qiluvchi.

Yakka tartibda huquqbuzarlikning oldini olish uchun jinoiy va jinoiy-prosessual qonunlarni takomillashtirish zarur, shuningdek, bu muammoni nazariyotchi yuristlar, amaliyotchilar, psixologlar, pedagoglar hamkorlikda hal qilishlari kerak bo'ladi.

Jinoyatning oldini olish asosini tashkil qiluvchi huquqiy normalar va qonunlar jamoat tartibini saqlashda, ijtimoiy munosabatlarga kirishganda o'z kuchini, ta'sirini ko'rsatsagina ular jonli organizmga o'xshab, o'z vazifasini bajaradi deb o'ylaymiz.

Qonunni hayotga tatbiq etish turli shakllarda namoyon bo'ladi: birinchidan, huquqiy normalarga rioya qilish, ularni qo'llashda. Eng asosiysi, u shaxslarning xatti- harakatida nimalar mumkin yoki mumkin emasligini aniqlab, ko'rsatib beruvchi qurol hisoblanadi; ikkinchidan, huquqiy normalardan hayotda va amaliyotda foydalanishda, bu esa ularni amaliyotga faol tatbiq etish deb qaraladi; uchinchidan, huquqiy normalarning ijrosini ta'minlash, bu ijroni esa, huquq normalaridan tashqari, har bir shaxs o'z burchi orqali amalga oshiradi. Shaxs o'z burchini bajarishda O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga asoslanadi va rioya qiladi; to'rtinchidan, huquq normalari va qonunlarni qo'llash madaniyati, unda qonun chiqarishning o'zi birdan-bir maqsad emas, balki har qanday normativ hujjat kabi huquq normalari ham turmushda to'la ma'noda qo'llanilgandagina yashaydi. «Agar, – deb yozadi. U. Tadjixanov, – qonun bajarilmasa, u qonun emas, shior bo'lib qoladi, hayotiy emasligi ma'lum bo'lgan qonunni chiqargandan,

chiqarmagan afzal. Talabchanlik va ijro intizomining yo'qligiga ko'pincha, qonunlar va boshqa qonuniy aktlarni bilmaslik sabab bo'ladi. Mehnat va fuqarolik qonunlarining buzilishi fuqarolarning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarining cheklanishiga olib keladiki, bu esa jamiyatdagi sog'lom ruhiy muhitning buzilishiga sharoit yaratadi».

Yakka tartibdagi profilaktik tadbirlarni amalga oshirish hozirgi kunda respublikamizda jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashda juda qo'l keladi. U jamiyatni ijtimoiy jihatdan boshqarish qonuniyatiga bo'ysunadi. Qonun buzilishining oldini olish huquqiy normalarga, qonunga to'la rioya qilish orqaligina amalga oshiriladi.

Yaxshi qonun, ya'ni aholining talab va istaklaridan kelib chiqib, o'z vaqtida qabul qilingan qonun doimo ijroda bo'ladi. Profilaktik tadbirlar ham aholi o'rtasida doimo izchil ravishda olib borilsa, qo'yilgan maqsadga erishiladi. Profilaktik tadbirlarning bajarilishi va profilaktik qonunlarning amal qilishi doimo davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishga muhtojdir.

Yoshlar yakka tartibda sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishda ularni mehnatsevarlik, sabr-toqat, sabot-matonat, do'stlik va birdamlik ruhida tarbiyalash juda muhim bo'lib, bu oila baxti hamda bola kelajagining mustahkam zaminidir. Shuning uchun ham har bir ota-ona o'z farzandini yoshligidan o'ziga mos ishlarga jalb qilishlari lozim.

Ota-ona bolasining ishini ko'rib, uning qilgan mehnati oila uchun qanchalik foydali ekanligiga baho bersa, – deb yozadi M. Vosiqova, – bolani mehnat qilishga qiziqtiradi, bu ham rag'batlantirish, ham pedagogikada tarbiyaning bir turi hisoblanadi.

Ba'zi ota-onalar tarbiyada o'ta qattiqqo'llikni qo'llab, farzandlariga yaxshi tarbiya bermoqchi bo'ladilar. Bu usul bilan ham bolalarni tarbiyalash to'g'ri emas, chunki bunday tarbiyalangan bolalar ota-onalarining mehri va erkinlikni sezmasliklari sababli, ko'pincha qo'pol muomalali va chehrasida kulgi bo'lmay, bemehr bo'lib yetishadilar, bolalarning bunday holatlari bilan jinoyatning o'rtasi bir qadamni tashkil etadi.

Ichki ishlar organlari faoliyatida tarbiya jarayonining o'ziga xos qonuniyatlari mavjud. Ichki ishlar organlarining xodimlari o'zlarining jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil qilishda mahoratli, tajribali pedagoglarning yordami va tajribasiga muhtojdirlar. Ichki ishlar organlarining xodimlari yakka tartibdagi profilaktik

tadbirlardan tashqari, maktabda, bog'chada, bolalar uylarida ham o'ziga xos pedagogik-profilaktik yo'nalishdagi tadbirlarni olib boradilar. Masalan, profilaktika vakillarining faoliyatini olib ko'raylik. Ular nafaqat o'zlarining ma'muriy hududlaridagi fuqarolarning yoshini, millatini, qiziqishini, hayot tajribasini, balki ularning bilim saviyasi va tarbiyalanganlik darajasini ham o'rganishlari zarur.

Yakka tartibdagi tarbiyaviy profilaktik ishlarni olib borish doimo o'z samarasini beradi, deb ayta olmaymiz, chunki tarbiya obyektining xususiyatiga, tarbiyalanish darajasiga ko'ra ham, bu ishlar har xil bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, tarbiyasi og'ir, hayot tajribasi faqat salbiy oqibatlar bilan to'la shaxslar ham jamiyatimizda yetarli, shuning uchun ham bunday shaxslarni qayta tarbiyalash birinchi marotaba tarbiyalanishdan bir necha bor qiyin jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham tarbiya faqat qonunlarga, normativ hujjatlarga suyangan va asoslangan holda olib boriladi, deyish butunlay to'g'ri emas, chunki bu jarayon shaxs va uning faoliyati bilan bog'liq bo'lgani uchun bu yerda, albatta, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan shaxsga ta'sir etuvchi turli an'analar va urf-odatlarining ahamiyatini ta'kidlab o'tish kerak.

Ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy pedagogik jihatdan tayyorlash borasida, nafaqat pedagogika oliy o'quv yurtlarida yoki Ichki ishlar vazirligiga qarashli o'quv yurtlaridagi kasbiy pedagogika fanining o'qitilishini yetarli deb hisoblamasligimiz kerak, aksincha, xodimlar boshqa shaxslarni tarbiyalash bilan birga o'zlari ham tarbiyalanib, boshqalarga axloqan o'rnak bo'lishlari ham kerak.

Jamoat tartibini saqlash pedagogikasi ham o'ziga xos prinsiplarga ega, bu prinsiplar doimo bo'lgan va bundan keyin ham mavjud bo'ladi. Bular – gumonlilik, obyektivlik, to'g'riso'zlik, maqsadga intila olish, reja asosida tarbiyaviy ishlarni olib borish, masalaga alohida-alohida va yakka tartibda yondashish, ishonch, qat'iyatlik asosida talab qilish, yaxshilik qila olish, ishbilarmonlik va hokazo.

Jamoat tartibini saqlash pedagogikasining yana bir o'ziga xos tomoni shunday iboratki, bu – har xil toifadagi shaxslarning qiziqishlarini bir yo'nalishga qarata olish, shaxslarning talablarini o'rganish, shaxslarning faoliyati va ularning ishlab chiqarish jamoalarida tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri yo'naltira olish, ya'ni jamoada va yashash joyidagi tarbiyaviy ishlardan xabardor bo'lib turish. Shunday qilib, tarbiya

an'analarimizga, hayot tajribalariga, ilmiylikka, eng asosiysi – pedagogika va psixologiyaning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan holda olib boriladi. Ko'pincha, tarbiyaviy-profilaktik ishlarga yakka holda yondashishda organ xodimining shaxsan tanishishi, suhbatlashishini tushunamiz, ba'zi bir vaqtlarda esa tarbiyalanayotgan shaxsning psixologik- fiziologik xususiyatlari ham bizni qiziqtirishi mumkin.

Bilamizki, bir shaxs bir necha yillar mobaynida bir kasbda ishlar ekan, xohlaydimi- yo'qmi, unga o'zi ishlagan kasbining yo ijobiy, yo salbiy ta'siri bo'ladi. Masalan, ichki ishlar organining xodimiga doimo yaxshi xabardan oldin noxush xabar yetib keladi, bu esa organ xodimlariga psixologik-fiziologik jihatdan ta'sir qiladi. Deylik, traktorchi doimo traktorning tirillagan ovozini eshitib, ko'nikib ketadi, o'sha tovush ostida bemalol, allalagandek uxlaydi, traktorning ovozi o'chib qolsa, u uyg'onib ketishi mumkin. Aytish mumkinki, inson bir kasbga ko'niksa, o'sha kasbdan ketishdan, kasbini yo'qotib qo'yishdan qo'rqadi, natijada, uni yo'qotib qo'ymaslik uchun hiech bir narsadan qaytmaydi. Chunki u boshqa yana bir kasbni tanlab, unga o'rganishi ancha qiyin bo'ladi. Xuddi shu xususiyat ko'p yillar ichki ishlar idorasining xodimi bo'lib ishlagan shaxsda ham mavjud bo'ladi, hatto mehnat ta'tiliga chiqqan vaqtida ham o'z kasbiga sodiqligini ko'rsatadi, hayotda bunga misollar juda ko'p. Masalan, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining sirtqi bo'limi tinglovchisi B. Berdiyev o'quv sessiyasi vaqtida o'z avtomashinasini pullik to'xtash joyiga qo'ymoqchi bo'ladi, bu joy ta'mirlanayotganini ko'rib, udan sal nariroqda turgan boshqa bir avtomashinaning oldiga qo'yadi. Shunda u bir o'spirinning boshqa bir mashinaning orqasida ivirsib yurganini ko'radi. B. Berdiyev bolaning oldiga borib, qo'lidagi xaltachani ko'rsatishni so'raydi, qarasaki, xaltacha ichida otvyortka, har xil kalitlar bo'ladi, bu kalitlar avtomashinalarni ochishga mo'ljallangan ekan.

U o'spirinni ichki ishlar bo'limiga topshirganda, bu o'spirin ilgari ham avtomashinalardan magnitofon, ehtiyot qismlar va balon o'g'irlab yurgan shaxs bo'lib chiqadi. Bundan ko'rinib turibdiki, ichki ishlar organlari xodimining bunday voqyea-hodisalarga munosabati o'z-o'zidan kasbiy faoliyati bilan bog'liq, undagi ichki axloqiy ko'nikmalar o'z kasbiga sadoqatli bo'lishga undagan.

Ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy bilimlari bunday vaziyatlarda hiech bir

vaqt ulardagi huquqiy harakatni yuzaga keltirishga majbur etmaydi. Balki bunday paytlarda ular uchun, eng avvalo, axloqiy normalar birinchi o'ringda turadi. Ichki ishlar organlarining xodimlari, ko'pincha nafaqaga chiqqandan keyin ham o'z faoliyatini davom ettirishni xohlaydilar.

Boshqa kasb egalarida bunday holat har xil kechadi, masalan, san'atkorni olaylik, u ijro etgan qo'shig'iga xalqdan olqish olsa, o'zi va oila a'zolari quvonadi, haydovchi esa ishdan kelib, bolalari oldida bemalol gaplashib o'tiradi, ularni tarbiyalaydi, ichki ishlar organlarining xodimlari jinoyatchini ushlab yoki uning jazolanganini ko'rib, quvonadi deb aytishimiz mumkin, lekin jinoyatchini ushlab, ichki ishlar bo'limiga olib kelgungacha davr bu – yo hayot, yo o'lim bilan bog'liq bo'ladi. Hayot bilan o'lim yonma-yon turadi, ularning kasbiy faoliyatida bunday holat har doim, har kuni qaytarilib turadi.

Shaxslar sodir etadigan barcha turdagi jinoyatlarning oldini olishda ichki ishlar organlarining xodimlari quyidagi prinsiplarga bo'ysunadilar va shu asosida ish olib boradilar: xizmat faoliyati jarayonida tarbiyaviy ishlarni olib borish; jamoada va jamoa orqali shaxslarni tarbiyalash; tarbiyaga yakka va alohida-alohida yondashish; qo'l ostidagilarga nisbatan yuqori darajadagi talabchanlik, shuningdek, ularga g'amxo'rlik qilish; shaxsning ijobiy tomonlarini, xislatlarini hisobga olib, o'sha xislatlarni bir necha marotaba tarbiya jarayonida shaxsning o'ziga eslatib o'tish; tarbiya jarayonida tarbiyalanayotgan shaxsning fikrlari bilan ham hisoblashish. Ichki ishlar organlarining xodimlari shaxslarni huquqiy tarbiyalashda har bir bir shaxs va shaxslarning huquqiy ongliligiga suyanadi. Onglilik esa shaxsning tarbiya darajasini ko'rsatadi.

Ko'p yillik ish tajribasiga ega bo'lgan ichki ishlar organlarining xodimlari bilan yangi ishga qabul qilingan xodimning ish faoliyati o'rtasida katta farq bor, farq yoshida yoki kasbiy mahoratida emas, balki ruhiy va fiziologik charchog'ida. Shu ruhiy, fiziologik charchoq organ xodimida tushkunlikni, gumonsirashni, har kimning ham gapiga ishonavermaslik xislatlarini shakllantiradi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining barchasi ham pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lavermaydilar, hammaning o'z bilim darajasi, qobiliyat chegarasi, eng asosiysi, o'zining qiziqish yo'nalishi mavjud, Bir shaxsni aynan shu kasb uchun

yaratilgan, deb aytib bo'lmaydi. Chunki u o'z kasbiy faoliyati davomida yana boshqa bir faoliyat bilan shug'ullanishi yoki ichki ishlar organiga ishga kirgunga qadar boshqa bir kasbning egasi bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun mabodo ichki ishlar organining xodimi egallab turgan lavozimi va kasbidan ketsa yoki ketishga majbur bo'lsa, shunday ketishi kerakki, oqibatdauning shaxsiy g'ururiga putur yetmasin, aks holda, u butun umr o'zining faoliyatidan nolib yurishi mumkin. Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilishimiz mumkin:

birinchidan, ichki ishlar organlarining xodimlarini Ichki ishlar vazirligining Akademiyasida kasbiy faoliyatga tayyorlayotganda, u tergovchi, jinoyat qidiruv xodimi yoki boshqa tegishli mutaxassisligidan kelib chiqib, kasbiy pedagogika fanini o'qitish kerak.

Ikkinchidan, ichki ishlar organlarining xodimlarini ishga qabul qilishda psixologik-fiziologik mezonlarni ishlab chiqish kerak bo'ladi. Chunki bu mezonlar o'z-o'zidan organ xodimining amaliyotdagi faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Jinoyatchilikning oldini olishda bir qancha vazifalar hal qilinadi, bu vazifalar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Shulardan birinchisi, jinoyatning yo'nalishi, tuzilishi, darajasi, sabablari va sharoitlariga to'liq ta'sir qilishdan iboratdir. I. Ismoilovning yozishicha, bu kriminologik adabiyotlarda umumiy tartibda jinoyatchilikning oldini olish deb nomlanadi.

Jinoyatchilikning oldini olish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan vazifalardan tashkil topgan, shulardan birinchisi, jinoyatchilikning yo'nalishiga, tuzilishiga, darajasiga, sabab va sharoitlariga ta'sir qilishdan iboratdir. Yakka tartibdagi jinoyatlarning oldini olish – bu jinoyatlarning oldini olish subyektlarining jamiyatga zid yo'nalishlari, g'ayriijtimoiy hayot tarzi, salbiy xususiyatlari, xulqi va odatlari oqibatida jinoyat sodir qilishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash va ular tomonidan jinoyat xatti-harakatlar sodir qilinishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ularga nisbatan tarbiyaviy va boshqa turdagi ta'sir ko'rsatuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

Jazoni o'tab qaytgan shaxslar sodir etadigan jinoyatlarning oldini olishda, avvalo, ular bo'sh vaqtlarini qanday, qayerda o'tkazishlari va qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari o'rganiladi. Shular asosidagina yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlarni olib

borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday shaxslarning bo'sh vaqti samarali tashkil etilishiga ichki ishlar organlari xodimlarining yetarli, kerakli darajada e'tibor bermasligi tarbiyada kamchiliklarga, eng asosiysi, jazoni o'tab qaytgan shaxslar ustidan o'rnatiladigan nazoratning pasayishiga olib keladi. Bunday hol esa jazoni o'tab qaytgan shaxslarning jamiyatga zid psixologiyaga ega kishilar bilan umumiy til topishishlariga yordam beradi, tezlashtiradi.

Jinoyatning oldini olish pedagogika, psixologiya fanlari, ayniqsa, kasbiy pedagogika bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham I. Ismoilovning «Jinoyatlarning oldini olishda dastlabki faoliyat – bu shaxsda hali endigina jamiyatga zid bo'lgan salbiy yo'nalish kurtaklari shaklanayotgan davrda, shaxsning umuminsoniy, axloqiy me'yorlardan chetga chiqishining boshlanish vaqtida amalga oshiriladi» degan fikriga to'la qo'shilamiz va me'yorlardan chetga chiqishning oldini olish pedagogika fanining vazifasiga kirishini yana bir marta eslatib o'tamiz. Shuningdek, kasbiy pedagogika boshqa fanlar singari kriminologiya bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini oldinroq aytib o'tgan edik.

1.3. Turli toifadagi qonunbuzar shaxslar bilan ishlashning pedagogik jihatlari

Kasbiy pedagogika fani o'zining tarbiyaviy mohiyatidan kelib chiqib, turli toifadagi qonunbuzar shaxslar bilan ishlashning pedagogik jihatlari, metodikasini o'rganadi. Shaxslar qonunbuzar bo'lib tug'ilmaydilar, balki qonunbuzar bo'lib shakllanib, jinoyatchi shaxsga aylanib qolishlari mumkin. Shaxsning qonunbuzar bo'lib shakllanishga ko'p hollarda uni o'rab turgan muhit, sharoit majbur qilishi mumkin. Unda nega juda ko'pchilik shaxslar qonunbuzar bo'lib qolmayaptlar, degan savol tug'iladi. Bunga ham javob bitta, ya'ni irodasi bo'sh, boshqa shaxslarning ta'siriga tez beriladigan shaxslargina qonunbuzarlik, jinoyat ko'chasiga kirib qoladilar.

Turli toifadagi qonunbuzar shaxslar deganda kimlarni tushunamiz? Jamiyatda o'rnatilgan qonunlarga zid xatti-harakat qiluvchi, barcha toifadagi qonunlarni buzuvchi shaxslarni qonunbuzar shaxslar deb bilamiz. Qonun buzilishining katta-kichigi bo'lmaydi, balki uning oqibati har xil bo'lishi, davlatga, shaxslarga har xil darajada moddiy va ma'naviy zarar yetkazilishi mumkin.

Qonunbuzar sodir etgan qilmishning mohiyatidan kelib chiqib, turli jazolar belgilanadi, eng avvalo, ma'muriy huquqbuzarlikni olib ko'raylik.

Ma'muriy huquq kasbiy pedagogika bilan bevosita bog'liq bo'lgani uchun ham dastlab «ma'muriy huquqbuzarlik» tushunchasiga to'xtalamiz. Ma'muriy huquqbuzarlik deganda, qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy, aybli (qasdan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi. Nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik, basharti bu huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra, jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda, amalga oshiriladi.

Ma'muriy javobgarlik ham jazolash va tarbiyaning eng ta'sirchan turlaridan biridir. «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga sharhlar»ni olib qaraydigan bo'lsak, uning umumiy qismidagi boblar «Ma'muriy huquqbuzarlik», «Ma'muriy jazo», «Ma'muriy jazoning qo'llanilishi» deb nomlandi, Maxsus qismining 11-bobi esa huquqbuzarlar uchun ma'muriy javobgarlik turlariga bag'ishlangan.

Quyidagilar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan:

- aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi huquqbuzarliklar uchun;
- mulkka tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun;
- tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun;
- sanoat, qurilish va issiqlik hamda elektr energiyasidan foydalanish sohasidagi;
- qishloq xo'jaligidagi huquqbuzarlik, veterinariya-sanitariya qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik;
- transport, yo'l xo'jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun;
- fuqarolarning turar joydan foydalanish huquqlariga taalluqli, kommunal xizmat va obodonlashtirish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun;
- savdo, tadbirkorlik va moliya sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun;
- odil sudlovga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun;
- jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun;
- boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun.

Huquqbuzarliklar va unga nisbatan ko'riladigan jazo turlarini davom ettirish mumkin, lekin buning barchasini biz yoritib berishni oldimizga maqsad qilib qo'ymaganmiz, bu ma'muriy huquq fanining o'rganish obyekti va predmetidir. Shu o'rinda biz quyidagi fikrni aytib o'tmoqchimiz, ya'ni turli toifadagi qonunbuzar shaxslar qonunbuzarlik ishlarini turli vaqtda, turli ob-havo sharoitlarida, turli usullar orqali amalga oshiradilar. Masalan, balog'at yoshiga yetmagan o'smirlarning huquqbuzarligini olib ko'raylik ular o'rtasida asosan narsalarni o'g'irlash, spirtli ichimliklar iste'mol qilib janjal chiqarish, sport anjomlari, magnitofonlar, gilamlar, pul o'g'irlash jinoyatlari ancha keng tarqalgan, bezorilik va nomusga tegish jinoyatlari jinoyatlarning boshqa turlariga nisbatan ancha kamroq sodir etiladi.

Odam o'ldirish, shaxslarga tan jarohati yetkazish kamroq uchraydigan jinoyat turlari hisoblanadi, ba'zida esa avtoulavlarni olib qochish holatlari ham uchraydi.

Balog'at yoshiga yetmagan shaxslar turli huquqbuzarliklarni aholining yashash, ishlash joylarida ko'pincha, kechki soat 22⁰⁰ dan keyin sodir etadilar. O'smirlar orasidagi huquqbuzarliklarning asosiy qismi bu spirtli ichimliklar ichish natijasida kelib chiqadi. O'smirlar sodir etadigan mayda bezorilik, uydan qochish, spirtli ichimliklar iste'mol qilib

janjal qilish, maktabdan qochib ketish, ishdan ertaroq ketib qolish kabi huquqbuzarliklarning ba'zida jazolanmay qolishi katta-katta jinoyatlarning sodir etilishiga olib keladi. Bilamizki, har qanday katta jinoyatning boshida mayda, arzimaydigandek tuyulgan jinoyatlar turadi. Bir eslab ko'raylik, ko'pchilik shaxslar yoshligida qandaydir mayda o'g'rilik qilib ko'rgan (qo'shnisining tovug'i yoki tuxumini o'g'irlagan), ota-onasi, qo'ni-qo'shnilar buni bilib qolib, jazolaganlaridan keyingina katta o'g'riliklar yoki jinoyatlarning oldi olingan.

Huquqbuzar shaxslar ham barcha shaxslar kabi aslida oddiy shaxslardir, faqat ular salbiy xususiyatlari ustun bo'lgan boshqa shaxslarning ta'siriga berilib qolgan yoki notinch oilada tarbiyalangan bo'lishlari mumkin. Deylik, oilasida doimo janjal, axloqsizlik avj olgan, ota-onalarining og'zi yomon yoki ichkilikka berilgan muhitda tarbiyalangan, otasi yo'q yoki onasi o'gay bo'lishi ham mumkin. Kriminologiya, pedagogika va psixologiya fanlari tadqiqotlarining natijalari shuni ko'rsatadiki, o'smirlardagi yalqovlik, qo'pollik, yolg'onchilik, mas'uliyatni his qilmaslik, xudbinlik, qizg'anchilik, mehnatdan ataylab bo'yin tovlash, o'zining mehnatining natijasidan quvonmaslik, hayvonlarga nisbatan berahmlik, beshafqatlik, yaxshi kiyinishga haddan tashqari berilib ketish, insonga cho'ntagidagi puliga qarab muomala va mansabiga qarab hushomadgo'ylik qilish – bularning barchasi shaxs tarbiyasidagi salbiylikni shakllantiradi.

Juda ko'pchilik ota-onalar farzandlaridagi salbiy xislatni sezmaydilar, sezsalor ham e'tiborsizlik qiladilar, buning oqibatida farzandlar yomon yo'llarga kirib ketmoqdalar. Ba'zi ota-onalar esa vaqti kelsa, biz undan (o'g'lidan yoki qizidan) bu narsani kutmovdik, anglashilmovchilik sodir bo'libdi deb, o'zlarini, farzandlarini oqlamoqchi bo'ladilar. Tarbiya jarayoni shunday bir og'ir jarayonki, uning natijasi bir necha yillardan keyin yuzaga keladi, bilinadi, ko'rinadi yoki o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shaxsni tarbiyalash har kimning ham qo'lidan kelavermaydi, hatto tarbiyasi a'lo darajadagi ota-onalarning ham farzandlari nobop chiqib qolishlari mumkin, chunki farzand ota-ona tarbiyasidan ko'ra, boshqa salbiy xislatlarga ega shaxslarning ta'siriga tez berilib qolgan bo'lishi ham mumkin. Vaqti kelsa, hayotda shunday holatlar bo'ladiki, ba'zi bir pedagoglar «bir umr o'zgalarning bolalarini tarbiyaladim, ammo o'z zimnikiga

kelganda kuchim yetmay qoldi», degan fikrlarni ham aytadilar. Aslida esa o'sha pedagogning o'z farzandlari tarbiyasi bilan shug'ullanishga vaqti bo'lmagan. Lekin, baribir, farzand tarbiyasi eng ulug' vazifa hisoblanadi va agar o'sha o'qituvchining farzandi nobop chiqsa, jinoyat sodir etsa, u hеч narsa bilan jamiyat oldida o'zini oqlay olmaydi.

Farzandlar tarbiyasida, otadan tashqari ona tarbiyasining ham o'rni katta. Chunki ona doimo oilada, farzandlari oldida va ular uchun eng yaqin shaxs hisoblanadi. Ona doimo farzandini hammadan, hamma narsadan ustun qo'yib yashaydi, lekin hamma onalarni ham shunday deb ayta olmaymiz. Shunday onalar borki, o'z farzandining taqdiriga befarq, o'zi bosh bo'lib farzandi bilan birga spirtli ichimlik iste'mol qiladi, ularni o'g'rilikka o'rgatadi, o'g'irlangan buyumlarni bozorda sotadi, shunday onalar borki, o'z qizini begona erkaklarga qo'shib qo'yib, evaziga olgan puliga ichadi yoki kiyinadi. Ichki ishlar organlarining xodimlari tomonidan hatto shunday shaxslar aniqlanganki, ular farzandlarining o'g'irlab olib kelgan buyumlarini o'zirniki, deb isbotlamoqchi ham bo'lganlar.

Shahardagi ba'zi oilalarda ota-onalar farzandlaridan kichkinagina chelakdagi axlatni axlatxonaga tashlab kelishlarini so'rganlarida, farzandlari shunga ham erinadilar, kerak bo'lsa, ba'zida ishdan bosh tortib, janjal chiqaradilar. Natijada, bunday oilada farzandlar mehnat tarbiyasidan butunlay bo'yin tovlaydigan bo'lib o'sganligi ko'rinadi.

Pedagogika fani shunday holatlarni ham o'rganganki, ularda ba'zi ota-onalar farzandining aytganini qilib, hatto o'zlariga ham kerak bo'ladigan narsalarni sotib olmasdan, qisinib-qimtinib, pulini uning talabidagi buyumlarga sarflab, farzandini juda ham erka qilib qo'yadilar. Keyinchalik esa bu erkalikning azobini tortishlariga to'g'ri keladi. Kriminologiya, pedagogika, psixologiya fanlarida shunday dalillar mavjudki, bu dalillarga suyanib, amaliyotdagi ichki ishlar organlari xodimlarining fikrlarini chuqur o'rganib, shunday xulosaga keldik: har qanday jinoyat o'z-o'zidan sodir etilmaydi, jinoyatlar sodir etilishining ba'zi bir obyektiv sabablari ham mavjud. Masalan, o'g'rilik jinoyatini olaylik. O'g'rilik qilgan shaxs o'g'irlab olgan buyumlarini sotadi, puliga spirtli ichimlik olishi, karta o'ynashi, yaxshi ko'rgan qiziga yoki jazmaniga turli sovg'alar sotib olishi mumkin, bunday xatti-harakatlarning barchasining asosida faqat nafs balosi yotadi.

Voyaga yetmaganlarning tarbiyasida oila o'ziga xos o'rin tutishini aytib o'tdik. Lekin ba'zida ota-onalar tomonidan oilaviy-huquqiy tarbiya, oilaviy-huquqiy targ'ibot ishlari qay darajada olib borilayapti, degan savol tug'iladi. Birinchidan, oilaviy tarbiyaning jamiyatimiz kelajagi uchun nechog'li zarur ekanligini biz kundalik turmush tarzimizda ko'rib turibmiz, chunki sog'lom oilada tarbiyalangan farzand sog'lom jamiyatni barpo etishda bevosita o'z hissasini qo'shadi. Oilada beriladigan tarbiyaning ahamiyatini, xattoki, eng yaxshi muassasalardagi tarbiya bilan ham tenglashtirib bo'lmaydi, chunki oila o'ziga xos kichkina vatan hisoblanadi. Oiladagi huquqiy targ'ibot ishlarining keyingi vaqtda ancha susaygani, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida huquqiy targ'ibotning kuchaygani sezilmoqda. Eng asosiysi, ichki ishlar organlarining xodimlari esa bu borada ko'ngildagidek huquqiy targ'ibot bilan shug'ullanyaptilar, deb bemalol ayta olamiz.

Shunday oilalar borki, farzandlarining tarbiyasi borasida hammaga o'rnak bo'lmoqdalar. Ayniqsa, bunday oilalar tibbiyot sohasida xizmat ko'rsatuvchilar orasi ko'plab uchraydi. Yana shundaylarga o'qituvchilar, olimlar sulolasiga mansub oilalar kiradi. Shunday oilalarning turmush tarzi barchaga o'rnak bo'lishi kerak.

Oiladagi ma'naviy pedagogik zaiflikning yana bir ko'rinishi nosog'lom ma'naviy-ruhiy muhit bo'lib, undagi g'ayritabiiy munosabatlar, nizolar, janjallar, kelishmovchiliklar, qo'pollik o'zaro birlikning, bir-biriga g'amxo'rlikning yo'qligi kabilar hisoblanadi. Bu muammolar hancha qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, qonunbuzarlik sodir qilgan voyaga yetmaganlarning 42–45 % ota-onalari ichkilikbozlikka berilgan, janjal va muntazam nizolar kelib chiqadigan nosog'lom oilada yashar ekan.

Huquqbuzarliklarning oldini olishda ota-onaning o'rni haqida yuqorida to'xtalib o'tdik, lekin aytish mumkinki, ba'zi ota-onalar hatto o'zlarining konstitusiyaviy burchlarini ham bajarmayaptilar yoki bajarishdan bo'yin tovlayaptilar, natijada balog'at yoshiga yetmagan shaxslar tarbiyasi o'z holiga tashlab qo'yilmoqda.

Afsuslanarli tomoni shundaki, nazoratsiz qolgan o'smirlar o'qishni tashlab ketib, maktab tarbiyasidan mahrum bo'lib, yomon sharoitlar va ko'cha-ko'ydagi salbiy holatlar ta'sirida jinoyat qilishga moyil bo'lib qoladilar.

Kriminologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan beshta jinoyatdan to'rttasi nazoratsizlik, salbiy xislatlarga ega shaxslar ta'siri ostida yuz bergan.

Turli toifadagi qonunbuzar shaxslarni pedagogik nuqtai nazardan shartli ravishda ikki guruhga bo'lamiz: birinchi guruhdagilar – jinoyat sodir etadilar va uning rivojiga o'z hissalarini qo'shadilar, natijada o'ta xavfli jinoyatlar sodir etiladi. Ikkinchi toifadagilar – qonunbuzarlikni sodir etadilar, boshqa shaxslar uchun o'ta xavfli darajada bo'lmaydi.

Huquqbuzarlik faoliyatida kriminogen elementlari mavjud bo'lgan shaxslar va ularning faoliyatini olib ko'raylik. «Har qanday kriminogen vaziyat o'z holicha, mustaqil holda shaxsni jinoyat sodir etishga olib kelmaydi», degan to'g'ri fikrni aytgan edi kriminolog olim I. Ismoilov. Ko'p hollarda, aytib o'tganimizdek, turmushdagi vaziyatlar shaxslarni huquqbuzarlik sodir etishga majbur etadi, masalan, ataylab nizo chiqarish; favqulodda vaziyat; boshqalarning oilasi haqida har xil ig'volar tarqatish; ataylab jahlini chiqarish va hokazo.

Har qanday shaxsning muayyan xatti-harakati bir qancha bosqichlardan iborat bo'ladi va o'ziga xos murakkab ijtimoiy-ruhiy jarayonni qamrab oladi. Har qanday huquqbuzarlik asosida, shaxsiy manfaatdan tashqari, ma'naviy-ruhiy vaziyatlarning ta'siriga berilish holatlari ham yotadi. Bu xususiyat ichida shaxsning ehtiyoji, manfaatlari, motivlari, maqsadlari u sodir etgan jinoiy xatti-harakat bilan bevosita bog'liqdir. Shaxsning huquqbuzarlikni sodir etishida unga ijtimoiy muhit, hayot va tarbiyalangan sharoit hamda undan tashqari muayyan aniq sharoitlar ta'sir qiladi.

Huquqbuzarlikni sodir etishda shaxsning o'ziga xosligini bilish nafaqat nazariy, balki amaliy va pedagogik nuqtai nazardan ham muhim. Nazariy pedagogik jihatdan huquqbuzar shaxsda mavjud salbiy ruhiy xususiyatlar va jinoyatga sabab bo'lgan tashqi muhitdagi salbiy hodisa va jarayonlar ochib berilsa, amaliy jihatdan esa ularning oldini olish chora-tadbirlarini aniqlashga yordam beradi.

Ma'naviy pedagogik zaiflikning og'ir ko'rinishlari, ayniqsa, eng xavflilari oilada kattalarning kichiklarni jinoiy faoliyat, ichkilikbozlik, talonchilik, fohishabozlik va boshqa g'ayriijtimoiy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga to'g'ridan-to'g'ri jalb qilishlaridir. Bunday holatlar hayotda yetarli darajada uchrasa-da, ular juda ham xavfli

hisoblanadi.

Keyingi vaqtlarda ayrim ota-onalarning oiladagi moddiy qiyinchiliklarni yengish maqsadida farzandlarini savdo-sotiq bilan bog'liq bo'lgan va qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga jalb qilayotgan hollari ko'payib bormoqda. Tashqaridan qaraganda uncha xavfli ko'rinmagan bunday hollar, shaxsning salbiy shakllanishiga ta'sir qiluvchi kriminogen omillardan biri hisoblanadi, ya'ni insonda, ayniqsa, voyaga yetmaganlarda qonunni mensimaslik, uni chetlab o'tish mumkin yoki unda qonunni buzganini hech kim bilmasa bo'ldi, degan ruhiyat shakllanadi.

Shaxslarda huquqbuzarlikni shakllantirishda jinoiy jazoni o'tab qaytgan, kriminogen xislatga ega bo'lgan shaxslarning o'rni ham o'zgacha. Masalan, uzoq vaqt jamiyatdan ajralgan holda va ko'p vaqt salbiy xislatga ega bo'lgan shaxslar orasida bo'lib qaytgan shaxslarning xatti-harakatlari boshqa shaxslarga tezroq ta'sir qiladi. Kriminogen yo'nalishga ega bo'lgan shaxslar o'zlarining xatti-harakatlari bilan, boshidan kechirgan har xil salbiy voqyealarni hikoya qilish bilan voyaga yetmagan shaxslarning pedagogik-ruhiy holatlariga tez ta'sir qiladilar. Bunday salbiyliklarga shaxslarning tez berilishining asosiy sabablaridan biri – hozirgi davrda umumiy ta'lim tizimida shaxsning salbiylikka tomon shakllanishini oziqlantiruvchi manbalar, turli ko'rinishlarda namoyon bo'luvchi pedagogik yo'nalishning kuchsizligi hisoblanadi.

Pedagogik yo'nalishning kuchsizligi, avvalambor, maktabda yosh avlod bilan olib boriladigan mehnat tarbiyasidagi xato va kamchiliklardako'rinadi. Ushbu muammoni chuqurroq o'rgangan olim H.Q.Yo'ldoshev ham ta'lim vazirligi qoshida huquqbuzarlikning oldini olish tashkiliy-metodik markazini ochish tashabbusi bilan chiqdi. Bu markaz tarkibiga pedagoglar, metodistlar, psixologlar, huquqshunoslarning jalb qilinishini taklif etadi.

Bu taklifni biz ham qo'llab-quvvatlaymiz, chunki huquqshunoslar, psixologlar, pedagoglarning o'zaro hamkorligi, ularning reja asosida ishlashlari huquqbuzarlikka qarshi kurashning yana bir eng qulay usulidir.

Huquqbuzar shaxslar o'zlarining nazoratsiz qolganliklaridan foydalanib, uylaridan narsalarni yashirincha olib chiqib sotishlari, puliga sigareta, saqich, shokolad kabilarni olib, bolalarga tarqatishi yoki qarzga berib, o'sha qarz olgan shaxsni o'ziga tobe qilib

olishlari ham mumkin. Bunday paytda tobe shaxs tobe qilgan shaxs nima desa, uning aytganini qilishga majbur bo'ladi. Bunday holatlar yangilik emas, hayotda bunga misollar yetarli, agarda tobe shaxslar ularning aytganlarini qilmasalar, kuch ishlatadilar va jismoniy jazolaydilar. Nazoratsizlikning oqibatida yosh qizlar axloqsizlik yo'liga kirib qolyaptilar, giyohvandlikka berilib ketyaptilar, eng dahshatlisi – oq o'limning qurboni bo'lmoqdalar.

Xulosa qilib shuni aytamizki, pedagogika o'zining mohiyatiga ko'ra, shaxsni tarbiyalash, qayta tarbiyalash muammolarini o'rganadi. Qayta tarbiyalash muammosini jinoiy jazoni ijro etish pedagogikasi fani batafsil o'rganadi.

II BOB. O'SMIRLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKNI KELIB CHIQUISHINING IJTIMOYIY SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING YO'LLARI, SHAKL VA METODLARI

2.1. Huquqbuzarlikning oldini olishda ta'lim jarayonining maqsadi va vazifalari

Pedagogik jarayonda turli darajadagi qonuniyatlar mavjud. Pedagogik jarayondagi qonuniyatlar nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, pedagogika fanida bir yoqlama o'rganilmoqda. Bu muammoni turli mualliflar o'zlarining nuqtai nazarlaridan kelib chiqib o'rganmoqdalar.

Jinoyatning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqiy-tarbiyaviy ishlarning yaxshi yo'lga qo'yilishi puxta o'ylab amalga oshiriladigan tarbiyaviy jarayon hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya faoliyatining to'g'ri yo'lga qo'yilishi jinoyat sodir etishga moyil o'spirinlarni bunday qabih yo'ldan voz kechishga majbur qilishi mumkin. Bu borada Prezidentimiz I. A. Karimov yuridik ta'limda ham sifat o'zgarishlari qilishga katta ahamiyat berish lozimligini uqtirib o'tgan edilar. Huquqbuzarlikning oldini olishda oliy ma'lumotli huquqshunoslarning o'ziga xos o'rinlari borligi va bu sohada quyidagi vazifalarni ado etish – davr talabi ekanligi barchamizga ma'lum bo'ladi:

– barcha turdagi tashkilotlar, o'quv muassasalari uchun yuqori malakali xodimlar va huquqshunos mutaxassislar tayyorlash, chunki huquqiy-tarbiyaviy ishlarni nafaqat bitta yoki bir necha shaxslar olib boradilar, shuningdek, bu ishni korxonalar va muassasalarning yuristlari ham olib borishlari kerak;

– fuqarolarning ommaviy-siyosiy, huquqiy bilimlarini shaxslar faoliyatining muhim qismiga, rahbarning esa kundalik ishiga aylantirish orqali jinoyatning oldi olinadi.

Har bir fuqaroning huquqiy madaniyatini oshirish, jinoyatlarning oldini olish, huquqiy bilimlarni tashviqot qilish uchun davlat va jamoat tashkilotlari zarur shart-sharoitlarni yaratib berishlari kerak bo'ladi.

Ichki ishlar organlarining xodimlari doimo tarbiyalanishi zarur va tarbiyasi og'ir shaxslar bilan ko'proq ishlaydilar, ularning orasida yoki ularning har biri bilan profilaktik muloqotlar olib boradilar. Bundan tashqari, barcha tabaqadagi shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkazib, shaxslarning ariza va shikoyatlari bilan tanishib chiqadilar, ularni

o'rganadilar, tekshiradilar va ular o'rtasida tarbiyaviy ishlar olib boradilar. Bu ishlar pedagogik-profilaktik faoliyat doirasida amalga oshiriladi.

Aholi orasida huquqbuzarliklarning oldini olish pedagogikaning mohiyatiga ko'ra, bir necha turlarga bo'linadi, bular – maktab yoshigacha bo'lgan bolalar o'rtasida huquqiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish va ularni tarbiyalash, o'smirlar o'rtasida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish va ularni tarbiyalash, madaniyat muassasalarining tarbiyaviy usullari orqali olib boriladigan huquqiy-tarbiyaviy jarayonlar.

Maktabdan tashqari muassasalarda ham huquqiy targ'ibot, huquqiy-tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish orqali shaxslarni tarbiyalab borish kerak bo'ladi. Bizni ichki ishlar organlarining faoliyatida olib boriladigan huquqiy pedagogik ishlar ko'proq qiziqtiradi. Ichki ishlar organlarining tarbiya obyekti – shaxslar, ularning faoliyati hisoblanadi. Huquqbuzarlikning oldini olish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan kasbiy pedagogika jinoyat muammosiga pedagogik yondashishni talab qiladi.

Pedagogik ta'sir etish (yoki pedagogik yondashish) qisqa va uzoq-yuluq tarbiya jarayoni bo'lmay, balki tizimli, uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, uning samarasi, asosan, tarbiyaga, shuningdek, tarbiyalanuvchining xohish va istaklariga bog'liqdir. Jinoyatlarning oldini olish jarayoni o'z mohiyatiga ko'ra, pedagogik jarayonning qonuniyatlariga va metodikasiga bo'ysunadi.

Hozirgi kunda profilaktik pedagogikaning vazifasi pedagogikaning nazariyasi va amaliyotidan olingan bilimlar asosida jinoyat sodir etishning sabablari, sharoiti, jinoyatchi shaxsi, uning axloqi va xatti-harakatini o'rganish orqali maxsus pedagogik ta'sir etish yo'llarini ishlab chiqishni talab qiladi. Shular asosida ichki ishlar organlari xodimlarining ish faoliyatiga ko'maklashib, ijobiy va samarali natijalarga erishish mumkin.

Pedagogika fanining metodikasi orqali jinoyat olamidagi shaxslarning huquqiy ongiga ta'sir ko'rsatib, ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olishning barcha chora-tadbirlari kriminologlar va pedagoglar tomonidan o'rganiladi. Pedagogikaning kriminologiyaga yoki kriminologiyaning pedagogikaga qanday aloqasi bor, degan savol tug'ilishi mumkin. Bu o'rinda rossiyalik kriminolog

olim G. A. Avanesovning quyidagi fikri juda ham to'g'ridir:

«Tarbiya» va «jinoyatning oldini olish» tushunchalarini bir - biridan ajratib bo'lmaydi. Tarbiyaga profilaktik funktsiya, profilaktikaga esa tarbiyaviy funktsiya taalluqlidir».

Profilaktik pedagogika – aslida pedagogik tushuncha bo'lib, kriminologiya fani bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, u sodir etilgan jinoyatlarning sabablari va sharoitlarini tarbiyaviy nuqtai nazardan o'rganadi.

Huquqbuzarlikning oldini olishda kasbiy pedagogikaning ahamiyati uning shakli va usuli bilangina emas, balki maqsad va vazifasi bilan ham bog'lab o'rganiladi. Pedagogika fanidan olingan pedagogik bilimlar ichki ishlar organlari xodimlarining jinoyat va uning oqibatlari haqidagi bilimlarini boyitadi, tartibga soladi, huquqbuzar qilmishining oqibatini mantiqan o'ylab ko'rishga majbur qiladi, shuningdek, huquqbuzar shaxsini qayta tarbiyalab, uning faoliyatini ijobiy tomonga yo'naltiradi va boshqaradi.

Jinoyatchilikning oldini olishda pedagogikaning shakl va usullari orasida eng samaralisi ishontirish va majburlash usullaridir. Ushbu fikr orqali biz tarbiyaning boshqa usullari, ya'ni «o'rnak bo'lish», «rag'batlantirish» usullarini inkor qilmoqchi yoki kamsitmoqchi emasmiz. Yuqorida aytilgan barcha usullarning o'z o'rnini va ahamiyati bor. Tarbiyaning ishontirish usuliga izoh berishning hojati bo'lmasa-da, lekin majburlash usulini «tarbiyalash» tushunchasiga qarshi qo'yimasligimiz kerak. Majburlash usuli orqali shaxslarni qayta tarbiyalash, ikkinchi marta shunday noma'qul, ya'ni qonunga zid ishlarni sodir qilmaslikka chaqirish bilan birga, ularni majbur etish ham zarur. Majburlash shaxsning ichki xohish-istagini tashqi kuch orqali sindirishdir.

Ichki ishlar organlari xodimlarining profilaktik ta'limini tashkil etishning bir qancha shakllari mavjud bo'lib, bunday ta'lim maxsus tashkil etiladi, masalan, qonunbuzarlikning oldini olish – tinglovchilarni faqat huquqiy bilimlar bilangina qurollantirish emas, balki shaxslarga huquqni amaliy faoliyatda qo'llashni ham o'rgatishdir. Bu esa, o'z navbatida, tinglovchilarda huquqiy madaniyat va amaliy tajribani shakllantirishning asosini tashkil etadi. Profilaktik ta'limni tashkil etishda amaliy mashg'ulotlarni ichki ishlar organlarining xodimlari orasida kompleks ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ichki ishlar organlarining xodimlari o'zlarining tarbiyaviy profilaktik faoliyatini ikki yo'l bilan olib boradilar. Birinchisi – profilaktik yo'l bo'lsa, ikkinchisi – shaxslarni qayta tarbiyalash. Birinchi tarbiya usuli ikkinchisiga nisbatan biroz yengilroq va qulayroq bo'lsa ham, bari bir o'ziga yarasha qiyinchiligi bor. Bu ikkala tarbiya usulini qo'llashda xodimlar tarbiya subyekti sifatida mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari va mahalla qo'mitalari e'tiborini huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarga jalb qila olishlari shart. Bunday hamkorlik o'zaro kelishuv va bir - birini qo'llab-quvvatlash asosida amalga oshiriladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining tarbiyaviy faoliyatida obyekt bilan bo'ladigan pedagogik muomala nechog'li muhim ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. Ichki ishlar organlari xodimlari muomalada bir xillikka, rasmiyatchilikka vaqtinchalik chek qo'yishlari kerak bo'ladi. Chunki har bir shaxs o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularning har biriga tarbiya ishida alohida yondashish talab qilinadi. Agar xodim shunday yo'l tutmasa, uning ishida shaxslarga ijobiy ta'sir etish darajasi pasayadi.

Ko'pgina ichki ishlar organlari xodimlarining profilaktik ta'lim, tarbiyaviy ishlar borasida o'zlarining ustida ishlamasliklari achinarli holdir. Bu o'rinda A. I. Alekseyevning ichki ishlar organlarining xodimlari aholi o'rtasidagi chiqishlariga yaxshi tayyorlanmasliklarini, auditoriyaning o'ziga xosligini hisobga olmasliklarini, eng asosiysi – ular o'qiydigan ma'ruzalarda bir xillik mavjud ekanligi haqidagi tanqidini eslash lozim. Aholi o'rtasida unday chiqishlarni qilish ichki ishlar organlari xodimlarining obro'siga putur yetkazadi. Ular o'zlarining nutqlarini yangi, qiziqarli ma'lumotlarga asoslanib tashkil etishlari kerak, shundagina qo'ygan maqsadlariga erishadilar va ularni tinglayotgan auditoriyaga kerakli bilimlarni yetkazib berish ham oson bo'ladi.

Shaxsni tarbiyalash qonunni to'g'ri tushunish, jamoat tartibini saqlashga ularning munosabatini to'g'ri shakllantirishga qaratilgan. Shaxslar orasida profilaktik tadbirlarni faqat ichki ishlar organlarining xodimlarigina ishontirish usuli orqali olib boradilar. Ichki ishlar organlarining xodimlari profilaktik ta'lim ishlarini tashkil etishda yakka tartibdagi ta'sir etishni ishlarning eng ta'sirchani, deb hisoblaydilar. Chunki har bir tinglovchi o'zi xohlagan savolini ko'pchilik oldida bera olmasligi mumkin, shaxs tarbiyachi bilan yakkama-yakka qolganda esa istagan savolini tortinmasdan berishi, qiziqishlari haqida

gapirishi mumkin.

Profilaktik ta'lim ishlarini olib borishda qo'llaniladigan yana bir muhim usul tushuntirish usuli bo'lib, unda ta'lim ishlari ko'rgazmali hamda texnik vositalar orqali amalga oshiriladi. Bunday tarbiyaviy ishlarni olib borishda suhbat, savol-javob shakllaridan foydalanish ko'proq ijobiy natijalar beradi. Profilaktik ta'limda ommalashgan va ko'proq qo'llaniladigan usul – eslatish usulidir. Bu usulning mohiyati voqeya-hodisani tarbiyalanayotgan shaxsning xotirasida qayta tiklash. Eslash usulida salbiy mazmunga ega bo'lgan ishlarni qayta esga solish juda ham to'g'ri bo'lmaydi.

Ichki ishlar organlarining xodimlari ham o'z faoliyatida ta'lim va tarbiyaga dialektik jarayon sifatida qarasarlar, ayni muddao bo'lar edi. Chunki profilaktik ta'lim va uning usullari doimo shakllanish jarayonida bo'ladi. Boshqacha ayganda, tarbiyaning tayyor resepti yo'q va bo'lishi ham mumkin emas, tarbiyaning usullari va metodikasigina mavjud bo'lib, ular maqsadga erishishda yordam beradi.

Ichki ishlar organlarining xodimlari profilaktik ta'limni tashkil etishda aholi orasida suhbat, ochiq chiqishlarni tashkil qiladilar. Muloqot aniq ijtimoiy vaziyatda sodir etiladi va bunda nutq asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi. Profilaktik ta'limni amalga oshiruvchi shaxs auditoriya oldidagi chiqishlarini ma'lum dalillarga asoslanib, o'zi yashab turgan muhit va vaziyatdan kelib chiqqan holda tashkil etadi va bundan keyingi chiqishlarida auditoriyani nimalar qiziqtiradi, nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligini aniqlab oladi. Profilaktik ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda, ayniqsa, auditoriya oldida ochiq chiqish qilinganda, tinglovchi bilan ma'ruzachilar o'rtasida bog'lanish, ya'ni jonli muloqot yuzaga keladi. Har qanday jonli muloqotda aniq maqsad bo'lib, bu maqsadda huquqiy tarbiyaning elementlari mavjuddir.

Profilaktik ta'limning yana bir o'ziga xosligi shundan iboratki, bu ta'lim og'zaki targ'ibot va tashviqot, huquqiy o'quv ishlarini tashkil etishga asoslanadi. Auditoriyadagi shaxslar, asosan ma'ruza eshitish, suhbat qilish uchun kelgan bo'ladilar va o'zlariga zarur huquqiy bilimlarni ichki ishlar organlarining xodimlari, sud, prokuratura vakillaridan oladilar.

2.2. Ta'lim jarayoni va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'smirlarda huquqbuzarlikni oldini olishning pedagogik shart-sharoitlari

Ixtisoslashtirilgan alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta'lim berish maktabi tarbiyalanuvchilarida turli predmetlar bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlar ta'limning asosiy shakli hisoblanadi. Mashg'ulotlar jarayonida predmetlar yuzasidan beriladigan bilimlar o'quvchilarga ma'lum fan sohasi bo'yicha nazariy bilim olish, bu borada ma'lum ko'nikma va malaka hosil qilish imkoniyatini yaratadi, natijada ularning bilim va tafakkur doiralari kengadi.

O'quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishda umumta'lim muassasalari o'quv dasturlariga kiritilgan ijtimoiy-huquqiy fanlarning roli beqiyos. Huquqiy bilimlarning majmui bo'lgan "O'zbekiston davlat va huquqi asoslari" hamda "Konsitutsiyaviy huquq" kabi o'quv kurslari ixtisoslashtirilgan alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta'lim berish maktabi tarbiyalanuvchilariga ularning psixologik va fiziologik yosh xususiyatlari, bilim va tafakkur darajasiga to'la mos keluvchi asosiy huquqiy tushunchalar haqida ma'lumot bera olish quvvatiga ega.

O'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish aniq maqsadni ko'zlovchi izchil jarayon bo'lgan huquq darslarida amalga oshiriladi.

Biz tadqiqot jarayonida mazkur fanlarning bu boradagi imkoniyatlaridan yetarli darajada va samarali foydalanishga harakat qildik.

Huquqiy fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishdan ko'zlangan maqsad - o'quvchilarga ilmiy-nazariy huquqiy bilimlarni berish, ularni chuqurlashtirib borish, o'quvchilarning huquqiy bilimlarni egallash imkoniyatlarini aniqlash hamda ularda huquqiy faoliyatni tashkil etishning dastlabki ko'nikmalarini hosil qilish uchun pedagogik shart-sharoit yaratishdan iborat bo'ldi.

Huquqiy ta'limni tashkil etish jarayonida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish yuzasida quyidagi vazifalar belgilandi:

1. O'quvchilarga nazariy-huquqiy bilimlarni berish.
2. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlarni chuqurlashtirib borish.
3. O'quvchilarda huquqiy bilimlarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishni

yuzaga keltirish.

4. O'quvchilarda huquqiy me'yorlar, qonunlarga nisbatan chuqur hurmatni uyg'otish.

5. O'quvchilarni huquq tizimida olib borilayotgan islohotlar mazmunidan xabardor etish.

6. O'quvchilarda huquqiy munosabatlarga nisbatan ontli yondoshuvni qaror tortirish.

7. O'quvchilarni har qanday ko'rinishdagi huquqbuzariklarga qarshi kurashga rag'batlantirish.

8. O'quvchilarda huquqiy faoliyat ko'nikma va malakalarining shakllanishi uchun shart-sharoit yaratish.

Ushbu vazifalarni hal etish yo'lida tashkil etiladigan ta'lim jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilindi:

1. O'quvchilarga huquqiy bilim berish, ularda huquqiy me'yorlar, Qonunlarga nisbatan munosabatni qapop toptirish borasida aniq maqsadni ko'zlash.

2. Huquqiy ta'limning ilmiy asosida, ko'rgazmali, uzluksiz va tizimli bo'lishini ta'minlash.

3. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, shuningdek, shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olish.

4. Huquqiy ta'lim jarayonida keng qamrovli huquqiy axborotli muhitni yaratish.

5. Huquqiy ta'lim samaradorligini tahlil etib borish.

6. Huquqiy ta'limning ijtimoiy hayot bilan aloqadorligiga erishish.

Huquqiy ta'limni tashkil etishda quyidagi jihatlar yetakchi o'rin tutadi:

1. Huquqiy ta'limning ilmiylik jihat - o'quvchilarni huquq, huquq tizimi, huquqiy me'yorlar, qonunlar, huquqiy munosabatlar mazmunidan xabardor etish, huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni, ahamiyati borasida o'quvchilar ongida tasavvur, idrok va tafakkurning qaror toptirishga yo'naltirishganligi bilan tavsiflanadi.

2. Huquqiy ta'limning qadriyat jhati (ahamiyatlilik jhati) -yozma manbalar hamda mutafakkirlar ma'naviy merosida o'rin egallagan huquqiy mazmundagi qarashlar,

g'oyalar, shuningdek, O'zbekiston Respublika Konstitusiyasi, davlat ramzlari, huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda fuqarolar or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatini, huquq va burchlari dahlsiz ekanligini asoslashda, ularga nisbatan hurmat ko'rsatish, ularni xalq irodasining ifodasi sifatida e'zozlashga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi.

3. Huquqiy ta'limning me'yoriylik jihati - huquqiy munosabatlarning muayyan tartib-qoidalar, me'yorlarga asoslanishi, huquqiy munosabatlar jarayonidagi shaxs xatti-harakatining majburlov asosida tashkil etilishini yoritish bilan tavsiflanadi.

4. Huquqiy ta'limning amaliy jihati - huquqiy bilimlarni o'zlashtirish, huquqiy faoliyat ko'nikma va malakalarini egallash asosida huquqiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish, qonunlar ijrosini ta'minlash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, fuqarolar va davlat mulkini asrash, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarlikka qarshi kurashishga yo'naltirilganlik bilan izohlanadi.

Huquqiy ta'limni tashkil etish jarayonida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishning psixo-pedagogik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- huquqiy ta'lim maqsadi, mazmuni, vazifalari va tamoyillarining birligi hamda yaxlitligi;

- o'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirishning bosh maqsadini aniqlash, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarini belgilash;

- huquqiy madaniyatning shakllanish tizimi (huquqiy → axborotli muhit → huquqiy munosabatlar → ehtiyoj → qiziqish → maqsad → rag'bat → faoliyat) mohiyatini ochib berish;

- o'quvchilarki huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga qat'iy va og'ishmay amal qilish, intizomli bo'lish va ijtimoiy burchni anglashga qaratilgan huquqiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlash;

- o'quvchilar huquqiy madaniyatining ular umumiy kamolotidagi o'rnini va rolini tavsiflash.

O'quvchilarda huquqiy madaniyatning shakllanishi quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich - huquqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni. Mazkur bosqichda ta'lim samarasi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish, o'qituvchining o'quv jarayonining puxta

ishlanmasi (yoki loyihasi)ga egaligi, o'quvchilarning mashg'ulotlarga ixtiyoriy tarzda qatnashishlari, ushbu jarayonda ularning mustaqilliklari hamda faolliklarining ta'minlanganligiga bog'liqdir.

2-bosqich - egallangan nazariy-huquqiy bilimlar asosida amaliy faoliyat ko'nikmalarini hosil qilish jarayoni. Seminar va amaliy mashg'ulotlar, tanlovlar, "Yosh huquqshunos" to'garagi, "Huquq va ijtimoiy hat" o'quvchilar ilmiy jamiyati faoliyati jarayonidagi ishtiroki orqali o'quvchi huquqiy faoliyatning dastlabki ko'nikmalariga ega bo'lib boradi.

3-bosqichda bilim hamda ko'nikmalar asosida huquqiy faoliyat malakasi hosil qilinadi. O'quvchilarning fan olimpiadalari, ilmiy anjumanlar, bahs-munozara, uchrashuv, rolli va ishganlik o'yinlari ("Maktab o'rtoqlik sudi", "Adolat o'lkasiga sayohat"), jamoat tashkilotlari hamda o'quvchilar o'z o'zini boshqarish organlari faoliyatidagi ishtiroki tufayli amaliy-huquqiy faoliyat malakalari shakllanadi. Mazkur bosqichda o'quvchilar faoliyatyaning to'la-to'kis mustaqiligini ta'minlashga ahamiyat berish lozim.

Tajriba-sinov jarayonida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida quyidagi ta'lim shakllaridan foydalanildi: sinf-dars, maktab ma'ruzasi, seminar, amaliy mashg'ulot, huquqiy vaziyatlarni hal etish, rolli hamda ishchanlik o'yinlar, matbuot anjumani, "davra stoli", bahs-munozara va hokazolar.

O'quvchilarda huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi tajriba-sinov jarayonida aniqlandi: pedagogik kuzatuv, suhbat, axborot va o'quv manbalari bilan ishlash, ko'rsatmalilik, mashqlantirish, amaliy mappg'ulotlar, bahs, huquqiy muammoli vaziyatlarni hal etish, tushuntirish, hikoya qilish, tashxislash, loyihalash va boshqalar.

Shuningdek, tajriba-sinov jarayonida yuksak samara bera oluvchi quyidagi ta'lim vositalarini aniqlashga muvaffaq bo'ldik: O'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, huquqiy-meyoriy hujjatlar (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Respublika Oliy Majlisi Qarorlari), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash Komissiyalarining me'yoriy

hujjatlari, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar, ko'rsatmali va texnik vositalar (radio, televideniye, slayd, kompyuter), gazeta va jurnallar, shuningdek, o'quv doskasi, tarqatma materiallar, "Huquqiy tafakkur" hamda "Qisqacha huquqiy lug'at" yon daftarchalari va boshqalar.

O'tkazilgan tajriba natijalarining ko'rsatishicha, mashg'ulotlarni ko'rsatmali qurollar, texnik vositalardan samarali foydalanish asosida tashkil etish o'quvchilar olgan nazariy bilimlarni mustahkamlabgina qolmay, balki mazkur fanga bo'lgan qizinishlarini ham oshiradi, shuningdek, materialni o'zlashtirish chog'ida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etadi.

Tajriba davrida huquq darslari samaradorligini oshirish, o'quvchilar bilimini mustahkamlashning yana bir vositasi sifatida "Huquqiy tafakkur" va "Qisqacha huquqiy lug'at" nomli yon daftarchalardan foydalaniladi.

"Huquqiy tafakkur" daftarchasida quyidagilar aks ettirildi:

- ijtimoiy-huquqiy sohada sodir bo'layotgan muhim o'zgarishlar, ro'y berayotgan voqyelik va hodisalar, qonun chiqaruvchi organlar tomonidan qabul qilinayotgan me'yoriy dalolatnomalar, Respublika Prezidenti tomonidan imzolanayotgan farmonlar, shuningdek, boshqaruv organlari huquqiy-me'yoriy hujjatlarining mazmuni va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlari to'g'risidagi fikrlarni qisqacha qayd etish;

- davlat va huquq nazariyasi, huquq sohalari, ularning tarkibiy tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni sxemaga solib borish, o'rganilgan mavzular yuzasidan berilgan jadvallarni to'ldirish, yangi jadvallarni yaratish;

- huquq sohalari asoslari, tizimi, manbalari, tushunchalari, turlari, ma'lum huquqiy munosabatlar va ularda ishtirok etuvchi subyektlar, huquq sohalarini o'rganuvchi tashkilotlar, muassasalar, o'quv sohalari bo'yicha beriladigan jazo turlarini bir-biri bilan chog'ishtirish, taqqoslash, qiyoslash tarzda o'rganish.

"Qisqacha huquqiy lug'at" daftarchasida dasturiy materiallar, qo'shimcha huquqiy adabiyotlar va huquqiy-me'yoriy aktlarni o'rganish vaqtida duch kelgan notanish so'z hamda jumalardan iborat lug'at yaratildi, ularning ta'rifi, mazmuni ochib berildi.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng o'tgan yillar davomida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib

borilmoqda. Respublika ta'lim tizimini takomilashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar o'zining dastlabki samarasini bera boshladi.

Hozirgi zamon Pedagogika fani oldida ta'lim jarayonini tashkil etishda samarali texnologiyalarni qo'llash vazifasi turibdi. Ana shu talabdan kelib chiqqan holda biz ham tajriba-sinov ishlarini olib borish davrida huquqiy ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiya unsurlarini tadbiiq etishga urinib ko'rdik.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasi ular tomonidan tayyorlangan referat, yozma ish, og'zaki jurnal, devoriy gazeta, chizma va boshqalar asosida tekshirildi.

O'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasi umumiy reyting nazorati talablari asosida baholanadi.

Umumiy ta'lim maktablarida huquqiy darslar jarayoni darslik, o'quv qo'llanmalari, qo'shimcha huquqiy adabiyotlar, huquq kodekslariga sharhlar va huquqiy-me'yoriy dalolatnomalardan foydalanishga asoslanadi. Shu bois biz avvalo, o'quvchilarga ular bilan muloqotda bo'lishi, asosiy e'tiborni jalb etuvchi vaziyatlar, o'rinlar xususida ma'lumot berish va ushbu ko'rsatmalarga amaliyotda rioya etish ko'nikmalarini yaratishga yordam beruvchi usullarni qo'lladik. Bu yo'lda quvchilarga huquqiy bilimlar to'g'risida to'la ma'lumot bera oluvchi manba bo'lgan darslik ustida ishlash xususida ko'rsatmalar berildi. Bunday ko'rsatmalarning yig'indisi sifatida "Huquqiy mazmundagi darslarda o'quvchi o'quv faoliyatini tashkil etish" sarlavhasi ostida estalik ishlab chiqildi hamda u "Huquqiy fanlar xonasi" yozuv taxtasi oldiga osib qo'yildi.

Eslatmaning ahamiyati shundan iboratki, o'quvchi o'quv yoki bilish faoliyatining shu tarzda tashkil etilishi fikr tarqoqligining oldini oladi, organizmni ortiqcha zo'riqimdan saqlaydi, sarflanayotgan vaqt miqdorini kamaytiradi. Darslik bilan ishlashning ma'lum me'yorga solinishi va bu borada o'quvchilarda egallangan ko'nikma huquqiy mazmundagi ilmiy, ilmiy-metodik, yordamchi adabiyotlar, gazeta va jurnallar bilan ishlash sohasida muhim poydevor bo'ladi. Shuningdek, bu kabi tushuntirish kundalik hayotiy faoliyatni uyushtirishda ham doimiy foydalanish ko'nikmalarini hosil qiladi. Ta'lim oluvchining huquqiy adabiyotlarni o'rganishga bo'lgan munosabati, huquqiy vaziyatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar hamda huquqbuzarlik

holatlarini bartaraf etishga urinishi borasidagi shaxsiy mulohazalari uning huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishini belgilovchi dalillardan biridir.

Darslarning barchasi huquq fani o'qituvchisining yakuniy xulosasi bilan yakunlandi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida ta'lim samarasini ta'minlovchi jihatlarni o'rganish bo'yicha o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida so'rov o'tkazdik. Tajriba avvali hamda so'nggida ushbu so'rov natijalari quyidagi ko'rsatgichga ega bo'ldi

So'rov natijalari yana shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilar huquqiy ongi hamda madaniyatini shakllantirishda maxsus dastur asosida tashkil etiluvchi, ijtimoiy-huquqiy jarayonlar haqida batafsil ma'lumot berish imkoniyatiga ega bo'lgan huquq fanlari yuzasidan tashkil etilajak mashg'ulotlarning roli yuqori bo'lishi bilan bir qatorda fan o'qituvchisining bilim darajasi hamda pedagogik mahoratni ijobiy tarzda o'zlashtira olganligiga ham bog'liq.

Biz tajriba ishlari jarayonida darsdan va maktabdan tashqari sharoitda o'quvchilar huquqiy madaniyatini tarbiyalash ishiga ham alohida e'tibor berdik. Darsdan va maktabdan tashqari tadbirlar o'quvchilarda huquqiy bilimlarning chuqurlashuvi, huquqiy faoliyat ko'nikma, malakalarini hosil qilish, huquqiy madaniyatni qaror toptirish, umumiy dunyoqarash, e'tiqod, tafakkur, shuningdek, huquqiy ehtiyojlarni tarkib toptirishda katta imkoniyatga ega.

Huquqiy mazmundagi darsdan va maktabdan tashqari uyuppiriladigan tarbiyaviy tadbirlar maktab pedagogik jamoasining umumiy ishining tarkibiy qismi bo'lib, ularning o'tkazilishida maktab rahbariyati, kasaba uyushmasi a'zolari, tajribali mutaxassis o'qituvchilar, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalla kengashlari, otanonalar va jamoat tashkilotlari (xususan, Respublika "Jamoatchilik fikrini o'rganuvchi huquqiy targ'ibot Markazining joylardagi tashkilotlari, viloyat, shahar hamda tuman xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining "Aholining huquqiy madaniyatini oshirish ishlari bo'yicha qo'mitasi") xodimlari bilan uzviy hamkorlikda puxta rejalashtirilgan dastur asosida olib boriladi.

Tajriba maktablarida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish sohasida ijobiy natijalar bergan darsdan va maktabdan tashqari tadbirlarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar,

ko'riklar, "Yosh huquqshunos" to'garagi hamda uning qoshidagi tashkil etilgan "Huquq va ijtimoiy hayot" o'quvchilar ilmiy jamiyati faoliyatini yo'lga qo'yish hamda "Maktab o'rtoqlik sudi"ni tashkil etish ana shular jumlasidandir.

Sinfdan va maktabdan tashqari uyushtiriluvchi huquqiy madaniyatni shakllantirishga ko'maklashuvchi tarbiyaviy tadbirlar ham umumiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida umumiy ta'lim o'quv muassasalari faoliyatini tashkil etishda o'z o'rni va ahamiyatiga ega. Huquqiy tarbiyaning qamrovi keng, shu bois ularni qanday shakl yoki uslubda o'tkazilishi mutaxassis-o'qituvchining tajribasi, mahorata hamda o'quv muassasasi rag'bariyati va jamoasining fan o'qituvchisini qo'llab-quvvatlashi, unga tashkiliy jihatdan yordam ko'rsatish shu bilan birga o'quvchilarning istak-hoxishlarni, qiziqish, ehtiyojlari va ijtimoiy faolliklariga bog'liq. Bunday ko'rinishdagi tadbirlarni o'tkazish huquqiy tarbiyani olib borishdan ko'zlangan asosiy maqsadga xizmat qilmog'i kerak.

Ixtisoslashtirilgan alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta'lim berish maktabi tarbiyalanuvchilarining huquqiy madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni amal oshirishda quyidagi maqsad belgilab olindi: o'quvchilar tomonidan egallangan nazariy huquqiy bilimlarni amaliyotga tadbir etish asosida ularda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi dastlabki ko'nikma va malakalarni hosil qilish, huquqiy faollikni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirish.

O'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda quyidagi vositalarga tayanib ish ko'rildi - o'quvchilarning shaxsiy yondoshuvi, jamoatchilik fikri, texnik hamda ommaviy axborot vositalari, namuna ko'rsatish, ko'rsatmali qurollar, huquqiy munosabatlar jarayoni.

Tajriba-sinov jarayonida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar quyidagi tamoyillar asosida tashkil etildi:

1. Huquqiy ta'lim va tarbiya birligi.
2. Huquqiy mazmundagi tadbirlar g'oyalarining yagona maqsadga yo'naltirilganligi.

3. Huquqiy tadbirlarning g'oyaviyligi.
4. Huquqiy tadbirlar mazmunining ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi.
5. Huquqiy faollikni jamoa yordamida shakllantirish.
6. O'quvchilarda huquqiy madaniyat unsurlarini hosil qilish.
7. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.
8. O'quvchi shaxsini hurmat qilish.
9. Huquqiy tadbirlarning uzluksizligi.
10. Huquqiy tadbirlar maqsadining natijalanganligi.

Yuqorida bayon etilgan talablardan kelib chiqqan holda tajriba maktablarida huquqiy tadbirlarning o'tkazilishiga oid yillik reja ishlab chiqildi.

Mazkur huquqiy tadbirlarning yillik-istiqlol rejasini tuzishda o'quv muassasasi umumiy tarbiya ishi mazmuni, g'oya va yo'nalishlari, shuningdek, o'quvchilarning huquqiy bilim, tafakkur va madaniyat darajasi, qiziqish va ehtiyojlari, tashabbuskorlik hamda faollik kuchi e'tiborga olindi. Shu maqsadda maktab umumiy tarbiyaviy ishlar tizimining holati, joriy yilda ijrosi ta'min etiluvchi vazifalar haqida ma'lumot beruvchi me'yoriy hujjatlar mazmuni o'rganildi. O'quvchilar o'rtasida so'rov o'tkazilib, ularning huquqiy tadbirlarning o'tkazilishiga bo'lgan yondoshuv va munosabatlari aniqlandi.

Biz quyida sinfdan va maktabdan tashqarida uyushtirilgan huquqiy tadbirlarning ayrimlari haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Jamiyat ishiga saylov natijalariga ko'ra eng ko'p ovozga ega bo'lib, Prezident maqomini olgan o'quvchi rahbarlik qildi. Jamiyat a'zolari bir necha guruhga bo'linib ish olib bordilar:

- ma'ruzachilar guruhi - guruhning asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari g'oyalarini targ'ib qilish, kechalar, suhbatlar, uchrashuvlar uchun ma'ruzalar tayyorlash;

- huquqiy ma'rifatchilar guruhi - guruhning vazifasi ilmiy, ilmiy-ommabop, ommabop va badiiy-huquqiy adabiyotlarni to'plash, ulardan ko'rgazmalar tashkil etish va ularning mazmuni bilan o'quvchilarni xabardor qilish;

- huquqiy sharhlovchilar guruhi - vazifasi Respublika Konstitusiyasi, yangi qonunlar mazmunini sharhlash, o'quvchilarning huquqiy bilimlarini chuqurlashtirish,

ularning qonunlar mazmunini tushunishlarini osonlashtirish va hokazolar;

- huquqiy tashkilotchilar guruhi - guruh vazifasi o'quv muassasasida huquqiy maorif ishlarini olib borish, kechalar, uchrashuvlar, konferensiyalar, ko'riklar tashkil etish va hokazolardan iborat bo'ldi.

Sinfdan va maktabdan tashqarida uyushtiriluvchi huquqiy tadbirlar orasida ishbop o'yinlar alohida o'rin tutadi. O'quvchilarda huquqiy ko'nikma. malakani shakllantirish, ularda faol huquqiy faoliyatni tashkil etish, huquqiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etish maqsadida bir qator huquqiy ishbop uyinlarni yaratdik.

Ana shu o'yinlardan biri – “Maktab o'rtoqlik sudi” faoliyatini yo'lga qo'yish bo'ldi. Sudning asosiy vazifasi - maktab Ustavi hamda ichki tartib-qoidalarini, umumjamiyat axloq va huquqiy me'yorlari talablarini buzgan, ularga amal qilishdan bosh tortgan, pedagogik nazoratdan chetda qolgan o'quvchilar xatti-harakatlarini tahlil etish, ularning sabablarini o'rganish, xulosalar va bunday xatti-harakatlarning barham topishiga ko'mak beruvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqarishdan iborat bo'ldi. “Maktab o'rtoqlik sudi” faoliyatini uzluksiz olib borish maqsadida ommaviy-axborot vositalari, xususan, vaqtli matbuot nashrlari sahifalarida berilayotgan, voyaga yetmagan yoshlar va ularning faoliyatlari masalasiga taalluqli bo'lgan materiallarni o'rganib, ularning mazmunini rolli jarayonni hosil etish orqali o'quvchilarga namoyish qilish usulidan ham foydalanildi. Buning uchun material mavzui va mazmunidan chetga chiqmagan holda sud jarayoni ssenariysi ishlab chiqoldi va ijro etildi. Hayotiy voqyelik tasvir etilgan ushbu jarayonning borishi, yakunlari xususidagi xabar “Qonun va yoshlar” nomli maktab devoriy gazetasi sahifalarida yoritib borildi. Sud jarayonining tashkil etilishida o'quvchilardan iborat sud raisi, sudya va xalq maslahatchilari, advokat hamda davlat qoralovchisi (prokuror)ning roli katta bo'ldi. Ularning rollarni bajarish vaqtida yuridik nutq hamda madaniyat qoidalariga amal qilishlari nazorat qilib borildiki, bu holat o'quvchilarda yuridik so'z va iboralarni to'g'ri qo'llash, fikrni tinglovchilarga aniq yetkazib berish, notiqlik mahoratini shakllantirish imkonini berdi. Sud ishida ota-onalar, mahalla faollari, faxriylir ham kuzatuvchi sifatida ishtirok etdilar.

Rolli o'yinlardan yana biri – “Adolat o'lkasiga sayohat” deb nomlangan. O'yinning maqsadi - o'quvchilar huquqiy bilimlarini chuqurlashtirish, ularda huquqiy idrok va

zehnni shakllantirish. Mazkur o'yin bellashuv tarzida uyushtirilipga mumkin. Un da ikki yoki to'rtta guruh ishtirok etib, bir qator shartlarni bajaradilar.

Adolat o'lkasi bir necha ko'cha - Bilag'onlar, Konstitutsiya, Izquvar, Jumboq, Tafakkur, Mahorat nomli ko'chalardan iborat bo'lib, guruhlap ushbu ko'chalarda bo'lgan vaqtlarida ular nomi bilan bog'liq shartlarni bajarishlari lozim. Chunonchi:

Bilag'onlar ko'chasi. Bu yerda har guruh portretlarda tasvirlangan yoki o'zlari tanlab olgan varaqalarda nomlari yozilgan davlat, siyosat va huquq arboblari hayoti, faoliyati to'g'risida hikoya qilib berishlari kerak bo'ladi. O'yinda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov, Yo'ldosh Oxunboboyev, Usmon Yusupov, Sharof Rashidov, Jahon Obidova, Xadicha Sulaymonova, Islom Karimov va boshqa shaxslarning portretlari ko'rsatilishi hamda ular to'g'risida ma'lumotlar berilishi talab etilishi mumkin.

Konstitutsiya ko'chasi. U yerda har bir guruhning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmunini qay darajada bilishlari hamda sharxlay olishlari aniqlanadi. Guruh a'zolarining bu boradagi bilimlarini aniqlash Respublika Qomusi bo'yicha tuzilgan savollarga ularning bergan javoblarini besh balli tizim bo'yicha baholash asosida kechadi.

Izquvarlar ko'chasi. Bu yerda guruhlariga 8 yoki 10 ta yuridik so'zdan iborat hikoya tuzish vazifasi tolshiriladi. Guruhlar o'zlariga berilgan quyidagi so'zlar: sud, o'g'rilik, jazo muddati, qoralovchi, hukm, surishtirish, qaror, yil va hokazolar yordamida shartni bajarishlari mumkin, bu so'zlar bellashuv hay'ati tomonidan taqdim etiladi. Yoki boshqa mazmundagi shartlarni bajarishlari mumkin. Masalan A.Konan-Doylning "Sherlok Xolms va doktor Vatsonning sarguzashtlari" nomli asaridan olingan, jinoiy xatti-harakatlar sirini ochish borasidagi syujet berilishi mumkin.

Jumboq ko'chasi. Bu yerda guruhlar e'tiboriga huquqiy mazmundagi rebus yoki krossvord (boshqotirmalar)larni yechish vazifasi yoki quyidagi ko'rinishdagi jadval mazmunini yoritish topshiriladi:

a) O'zbekiston Respublikasi Qomusining quyida berilgan bo'lim va boblarining qanday nomlanishini ayting;

1- bo'lim 1 - bob	5 - bo'lim XXI - bob	3 - bo'lim XIV - bob
-------------------	----------------------	----------------------

2 - bo'lim VII - bob	6 - bo'lim	4 - bo'lim XVI - bob
----------------------	------------	----------------------

b) Quyida berilgan ifodalar qaysi yuridik hujjatlarning mazmunini yoritmoqda:

Topshiriqlar		
Ushbu Qonun fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish; kasb-hunar o'rganishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitusiyaviy huquqni ta'minlashga qaratilgan.	O'zbekiston umumta'lim maktabi o'z faoliyatida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga, shu qonunga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonunchilik hujjatlariga va mazkur Nizomga amal qiladi.	Milliy dasturning maqsadi aholining barcha qatlatlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuqori darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratadi.

Ushbu ko'chada beriluvchi shartlarning tarkibi huquqiy lingvistikadan ham iborat bo'lishi mumkin. Masalan: quyida berilgan qo'shimchalar orasida shunday bir mustaqil so'zlarni yozingki, natijada yuridik atama yoki ikki, uch so'zdan iborat tizim hosil bo'lsin:

QO...LIK - aloqa almashuv vositasi yordamida hosil qilinuvchi jinoyat tarkibi (qotillik);

TAL...ChI - lahza, muddat yordamida hosil qilinuvchi jinoyat sodir etgan shaxs (talonchi);

BOS...ChI - pichoq solinuvchi maxsus niqob yordamida hosil qilinadigan jinoyatchi nomi (bosqinchi);

TAD...KOR - sanoq soni yordamida hosil qilinuvchi jismoniy shaxs, ma'lum coha egasi (tadbirkor).

Tafakkur ko'chasi. Bu yerda har bir guruh "O'zbekiston davlat va huquqi asoslari" kursi doirasidagi istalgan mavzu yuzasidan ko'rsatmali qurol, jadval yoki tarh tayyorlash kerak bo'ladi.

Mahorat ko'chasi. Bu yerda har bir guruh, huquqiy mavzudagi she'r, qo'shiq ijro etib berishlari kerak (mazkur shartda axloqiy mavzudagi, xususan, adolat, haqiqat,

odillik, vatanparvarlik, insonparvarlik, diyonat, vijdon kabi tuyg'ular haqidagi badiiy asar namunalaridan ham foydalanish mumkin).

Rolli o'yinlar asosida tashkil etilgan bellashuvlar maktab o'quvchilarining alohida e'tiborini qozondi. Bellashuv yakunida o'tkazilgan so'rovlarda ular bu tarzdagi ko'riklar huquqiy bilimlarini oshirish, ularni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirayotganligini ta'kidlab o'tdilar. Tomoshabin sifatida ishtirok etgan o'quvchilar ana shunday bellashuvlarda qatnashish istagida ekanliklarini bildirdilar.

Sinfdan va maktabdan tashqarida tashkil etiluvchi huquqiy ta'lim-tarbiya shakllaridan yana biri – “Qonun va yoshlar” nomli devoriy gazetani doimiy ravishda chiqarib borish bo'ldi, u har oyda ikki marta muntazam ravishda chiqarilib turildi. Uning sahifalarida Respublika ijtimoiy-huquqiy hayotida ro'y berayoggan voqyelik, qabul qilinayotgan Qonun, qarorlar hamda Prezident farmonlarining mazmun va tafsilotlari keng yoritib borildi. Shuningdek, maktab Ustavi va ichki tartib - qoidalarini buzgan o'quvchilarning xatti-harakati, unga nisbatan jamoaning fikri hamda “Maktab o'rtoqlik sudi” jarayonidan tayyorlangan reportajlar keng o'rin oldi. Devoriy gazetaning chiqarilishida “Yosh huquqshunos” to'garagining barcha a'zolari faol ishtirok etdilar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, darsdan tashqari huquqiy tarbiya ishlari o'quvchilarning bo'sh vaqtlaridagi faoliyati bo'lib, barcha o'quvchilar uchun majburiy emas. Shunday bo'lsada ijtimoiy-huquqiy munosabatlar chog'ida yuzaga kelayotgan ziddiyatlar hamda xatoliklarning oldini olish maqsadida o'quvchilarni huquqiy tadbirlar jarayoniga keng ko'lamda jalb etish pedagogika nazariyasi hamda voyaga yetmagan yoshlar huquqbuzarliklarining oldini olishga qaratilgan huquqiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida bevosita qatnashish, xilma-xil huquqiy vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, ularning ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga nisbatan nomatlub xatti-harakatlarini tahlil etish imkonini beradi. Natijada o'quvchilar o'z xulk-atvoriga munosib baho bera olish ko'nikmalari, shuningdek, mustahkam e'tiqod tuyg'usiga ega bo'ladilar. Darsda egallangan nazariy bilimlar darsdan tashqari amaliy tadbirlarda o'z aksini topsa huquqiy tarbiya ish samaradorligi ta'minlanadi va u yanada oshadi.

Darsdan tashqarida o'tkaziladigan huquqiy tadbirlar o'z xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

a) nazariy bilimlarni mustahkamlovchi huquqiy mazmundagi tadbirlar - suhbatlar, uchrashuvlar, to'garak mashg'uloti, "Hayot va qonun", "Qonun himoyasi" kabi jurnallar. "Adolat", "Qonun va hayot" gazetalarini materiallarini o'rganish va tahlil etish va boshqalar.

b) amaliy-huquqiy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar "Maktab o'rtoqlik sudi", huquqiy vaziyatlarni hal qilishga yo'naltirilgan mashqlar, "Qonun va yoshlar" devoriy gazetasini chiqarishni yo'lga qo'yish, "Alolat o'lkasiga sayohat" nomli o'yin va hokazolar;

v) ijtimoiy-huquqiy voqyelik va uning mohiyatini tushunishga yordam beruvchi huquqiy-mantiqiy mazmundagi tadbirlar - ular qatoriga "Huquq va ijtimoiy hayot" o'quvchilar ilmiy jamiyati faoliyati, seminarlar, konferensiyalar, bahs-munozaralarni tashkil etish va boshqa tadbirlar kiradi.

Huquqiy tadbirlar shaklan turlicha bo'lsada, ularning barchasi o'z mazmuniga ko'ra yagona maqsad sari yo'naltirilgan, ya'ni, ular o'quvchilarning huquqiy bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, egallangan nazariy-huquqiy bilimlaridan amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilish, ularni ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni uyushtirishga tayyorlash, faol fuqarolik tuyg'usini shakllantirish. yetuk axloqiy - huquqiy sifatlarni tarkib toptirish, teran va sog'lom fikr, keng dunyoqarash egasi bo'lgan huquqiy madaniyatli shaxsni kamol toptirishdan iborat vazifani hal etadi.

Ixtisoslashtirilgan alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta'lim berish maktabi tarbiyalanuvchilarining huquqiy madaniyatini shakllantirish bo'yicha tajriba maktablari amaliyotida qo'llanilgan sinfdan va maktabdal tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga keldik:

1. Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitda o'tkaziladigan huquqiy tadbirlar umummaktab tarbiyaviy ishlari mazmunidan kelib chiqqan holda tasdiqlangan maxsus dastur va reja asosida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Sinfdan va maktabdan tashqari huquqiy tadbirlar keng qamrovli va rang-barang mazmun hamda ko'rinishda tashkil etilishi kutilgan natijani beradi.

3. Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samarali shakl, metod va vositalar yordamida olib borilishi bu boradagi

muvaffaqiyatlar garovidir.

Xulosa o'rnida shuni ham alohida ta'kidlash joizki, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonida, shuningdek, ularning yakunida qo'yilgan maqsadga erishganlik holatini tahlil etib borish, yutuqlarni boyitish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish borasida chora-tadbir belgilash samarali natijalarni olish imkonini beradi.

2.3. O'smirlar orasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablari va ularni bartaraf etishga oid o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tahlili va samaradorligi

Ixtisoslashtirilgan alohida sharoitlarda tarbiyalash va ta'lim berish maktabi tarbiyalanuvchilarida huquqbuzarlikni bartaraf etishga oid tajriba-sinov ishlarini o'tkazdik. Samarqand shahridagi №64-son ixtisoslashtirilgan alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish maktabida bo'lib, bu yerdagi o'quv va tarbiya jarayoni bilan tanishdik. Ushbu dargohda hammasi bo'lib to'qson nafar 11 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan sakkizta guruh, o'n ikkita sinf mavjud. Bir sinfda ikki nafardan to'rt nafargacha o'quvchilar bor. Ushbu maktayuga qabul qilinishi uchun quyidagi hujjatlar kerak:

1. Vazirlik yo'llanmasi;
2. Yashash joyidan sud qarori;
3. Hokimiyat qarori;
4. Ota-ona yoki vasiyning arizasi;
5. Yashash joyidan ma'lumotnoma, bayonnoma;
6. O'qigan maktabidan tavsiyanoma;
7. Tibbiy ma'lumotnoma.

Samarqand shahridagi №64-son ixtisoslashtirilgan alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish maktabida viloyatlar kesimida o'quvchilar haqida ma'lumot

1-jadval

№	Yillar		2007	2008	2009	2010	2011	2012	Jami
	Viloyat								
1.	Toshkent				1	5	2	2	10
2.	Sirdaryo					3			3
3.	Jizzax				2	2	2		6
4.	Samarqand		1		3	2	8	1	15
5.	Navoiy				2	5	5		12
6.	Buxoro				3	6	2		11

7.	Qashqadaryo				2			2
8.	Surxondaryo					2	2	4
9.	Namangan				6	2	1	9
10.	Farg'ona				2	4	1	7
11.	Andijon			1	2	1	1	5
12.	Xorazm				1	1		2

Biz ushbu muassasaga kelgan o'quvchilarni nima sababdan bu joyga kelganliklarini o'rganishga harakat qildik. Olib borilgan tadqiqotlar, suhbatlar, uchrashuvlar chog'ida quyidagi xulosaga keldik:

- Maqsadsiz ko'chada daydib yurgan;
- Uyidan chiqib ketgan;
- Maktabga sababsiz bormagan;
- Tilanchilik qilib yurgan;
- O'g'irlik qilib, maktabga bormagan;
- Mehribonlik uyidan qochib ketgan;
- Turli huquqbuzarliklar sodir etgan;
- Spirtli ichimliklar ichib janjal qilgan va maktabga bormagan.

Tarbiyachi va o'qituvchilar bilan suhbatlashish davomida o'quvchilar 15 yoshga to'lgach doimiy yashash joyiga yuboriladi. Tarbiyasi og'irligicha qolgan bolalar esa 15 yoshga to'lgach, Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi maxsus "Baxt" kasb-hunar kollejiga yuboriladi.

Ixtisoslashtirilgan alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish maktabida tarbiyalanayotgan o'quvchilar bilan individual suhbatlar o'tkazdik. Quyida ulardan namunalar keltiramiz:

1. G'aniyev Hojiakbar – Toshkent. Zangiota, Keles, 49-maktabda o'qigan.

Otasining Qozog'istonda 2 ta savdo do'koni bor. Onasi uyda shaxsiy poliklinika ochgan. 7-sinfgacha maktabga borib, undan keyin maktabga bormagan. Maktabda yaxshi o'qimagan, o'zidan yoshi katta bolalar bilan maktabda ham ko'p bezorilik qilgan. Maktab o'qituvchilari undan bezor bo'lib, maktabga kelmasligini, shahodatnomani

o'zlari berishini aytib, unga javob bergan. Maktabga bormay, vaqtini kompyuter o'ynash bilan o'tkazgan, pul topish maqsadida uyidan uch million pul o'g'irlagan, o'g'irlangan telefonlar va boshqa buyumlarni sotgan. Restorandan kech mast bo'lib chiqqan odamlarni o'rtoqlari bilan elektroshok yordamida qo'rqitib puli, telefonini olib qo'ygan. Bir marta milisiyaga tushgan, u yerdan o'n ikki kundan so'ng shu maktabga yuborilgan. Maktabdan ham ikki marta qochgan, yana qaytarib olib kelingan. Hozirda maktabning bitiruvchisi.

2. Sultonov Abdulla – Andijon viloyati, Izbosgan tumani. Dadasi ichkilikka ruju qo'ygan, har ichganda janjal qilgan xotini va bolalarini urgan. Janjallardan bezib qolgan Abdulla 2008 yilgi janjallardan qo'ng uyidan chiqib ketgan. Dadasi oddiy dehqon. Ota-ona ajrashgach bola bobosining qo'lida qolgan. Ko'pincha nazoratsizlik tufayli ko'chada daydib yurgan, sababsiz maktabga bormagan, o'g'irlik qilgan. Natijada shu maktabga kelib qolgan.

3. Hakimjonov Sardorbek – Andijon viloyati, Xo'jaobod tumani. Ota-ona ajrashgan. Hozir ayasi Rossiyada ishlaydi. Bola bobosining qaramog'ida qolgan. Tog'asi narkotik moddalarga ruju qo'ygan. Har safar bobosi bilan janjal qilib Sardorning ayasi yuborgan pullarni, bobosining pensiyasini janjal qilib olib qo'yavergan. Janjallardan bezgan bola uydin chiqib ketgan, o'g'irlik qilgan. Natijada shu maktabga kelib qolgan.

4. Jo'rayev Muhammadali – Qashqadaryo viloyati, 14 yoshda. Maktabga bormagan, nazoratsiz qolib, ko'pincha uyda ham yolg'iz qolib ketavergan. Kompyuter o'ynagan. Uyidan qochib ketgan. Maktabga bormay sexda 8⁰⁰ dan 20⁰⁰ gacha ishlagan.

5. Ergashev Biloliddin – Jizzax viloyati, Baxmal tumani. Yarim yetim, otasi bilan yashaydi. Ota-ona ajrashgach, goh ota bilan goh ona bilan yashab yurgan. Ota bilan yashaganda 5-maktabga, ona bilan yashaganda 45-maktabda o'qigan. Natijada ikki maktab ham bolani qabul qilmagan. Ko'chada daydib yurgan, tilanchilik qilib, o'g'irlik qilib shu maktabga kelib qolgan.

6. Aktamov Ahmad – Samarqand viloyati, Urgut tumani. Dadasi nasha chekadi. Uyida tez-tez janjallar bo'lib turgan. Natijada ota-ona ajrashgan. Bola ona bilan qolgan. Ko'pincha maktabdan qochgan, sababsiz maktabga bormagan, kompyuter o'ynab yurgan. Maktabda o'qituvchisi bolani ichki ishlar bo'limiga topshirgan. Ichki ishlar bo'limi

vaziyatni o'rganib, bolani 6-son mehribonlik uyiga topshirgan. Bola u yerdan qochib uyiga borgan. Onasi uni choyxonaga ishchi qilib qo'ygan. Keyin uyidan pul o'g'irlab, kompyuter o'ynab yurgan, turli o'g'irliklar sodir etib shu maktabga kelgan. Onasi uni sud qarorini bekor qilishini aytib doimiy yashash joyiga olib ketib, maktabga qo'ygan. Maktabda o'qituvchi va o'quvchilar “sen qamoqxonadan kelgansan”, “u yer qamoqxona” deb kamsitavergach, bola yana maktabga o'z xoxishi bilan qaytib kelgan. Hozirda doimiy yashash joyiga va o'zi o'qigan maktabga borishni xoxlamaydi.

Dastlabki o'rganish shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning katta qismi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat Konstitusiyasi va ramzlarini hurmat qilish o'zlarining fuqarolik burchi ekanligini bildirgan bo'lsalar, huquqiy bilimlarni egallash borasida nisbatan qoniqarli javob qaytarganlar, qolgan yo'nalishlar bo'yicha esa past darajada munosabatda ekanliklarini bildirganlar. Mazkur holatni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashga bo'lgan intilish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarning deyarli barchasi huquqiy faoliyatlarni tashkil etmaydilar, huquqiy me'yor va huquqiy munosabatlar mohiyatini anglash, qonunlar talablari asosida harakat tashkil etiluvchi yoki huquqiy institutlar faoliyatini e'tirof etuvchi vaziyatlarning ishtirokchisi bo'lmaganlar. Natijada shu haqiqat anglanadiki, o'quvchilar deyarli huquqiy faoliyatni tashkil etmaydilar yoki ijtimoiy munosabatlarning mazmunini, asosini tushunmaydilar.

Biz o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida voyaga yetmagan o'smirlar o'rtasidagi huquqbuzarlikning sodir etish jarayonlarini quyidagi uchta guruhga bo'ldik:

- 1-guruh. Maktabga sababsiz bormaganlar.
- 2-guruh. Uyidan sababsiz chiqib ketganlar.
- 3-guruh. Ko'chada daydib, o'g'irlik sodir etganlar.

1-jadval

№	Guruh nomi	O'quvchilar soni - 90 nafar
		Soni
1.	Maktabga sababsiz bormaganlar.	31
2.	Uyidan sababsiz chiqib ketganlar.	19
3.	Ko'chada daydib, o'g'irlik sodir etganlar.	40

Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, ko'chada daydib o'g'irlik sodir etib huquqbuzarlikka qo'l urgan voyaga yetmagan yoshlar 44 % ni tashkil etar ekan. Sababi, oilada tarbiyaning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, oilaviy muhitning nosog'lomligi, otionalarning farzand tarbiyasida mas'uliyatning unutganligi, mahallalarda voyaga yetmagan bolalar bilan yetarli darajada shug'ullanmasligi, ba'zi maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonlarining davr talabidan orqada qolayotganligi, sinf va maktab rahbarlirining o'z zimmalaridagi mas'uliyatlarini yetarlicha anglamaganligi, oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, o'quvchilarning oilada va maktabda bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etilmasligi kabi illatlar voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik holatirining kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Shunday qilib, tadqiqot ishi bo'yicha quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

1. Huquqiy fanlar umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish imkoniyatiga ega. Ta'lim jarayonini didaktik talablarga muvofiq to'g'ri tashkil etish hamda unda samarali shakl, metod va vositalardan foydalana olish bu boradagi muvaffaqiyatlarni ta'minlaydi.

2. Sinf dan va maktabdan tashqari sharoitda tashkil etiladigan huquqiy tarbiya huquqiy ta'lim natijalarini mustahkamlash, o'quvchilarning huquqiy bilimlarini chuqurlashtirish, ularda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish imkonini beradi. huquqiy tarbiyaning huquqiy ta'lim bilan uzviy aloqadorligi va birligi kutilgan natijalarni beradi.

3. Oilada o'quvchilarga huquqiy bilimlar berish ularda huquqiy madaniyatning to'laqonli shakllanishini ta'minlaydi. Shu bois oilalarga metodik jihatdan huquqiy yordam ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Oilalarga huquqiy yordam ko'rsatish ishini ta'lim muassasalari tashkil etishi lozim.

4. Tajriba-sinov jarayonida biz tomondan taqdim etilgan metodika o'zining samarasini bera oldi. Bui biz tajriba-sinov natijalarining matematik-statistik jihatdan qilingai tahlilidan bilishimiz mumkin.

XULOSA

O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yosh avlodni jismoniy sog'lom, aqliy yetuk, axloqiy pok, manaviy boy, insofli, diyonatli qilib tarbiyalash g'oyat murakkab va mas'uliyatli vazifadir. Shy maqsadda respublikamizda jamiyatni sog'lomlashtirish va har bir narsaga yangicha qarash jarayoni og'ishmay amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda yoshlar tarbiyasiga e'tibor kuchaymoqda.

Yoshlarni tarbiyalashda oilaning ahamiyati mislsizdir, aynan yoshlarning asosiy shaxs sifatleri shakllanib boradi. Maktabda esa o'qish yillari davomida bolalar o'z ota-onalari, akalari, opalari, tengqurlari orqali jamiyatda o'zini tutishni o'rganadi. Oilada asos solingan tarbiya poydevori kishilarda umr bo'yi mustahkamlanib boradi. Afsuski, ma'lum sabablarga ko'ra ixtisoslashtirilgan alohida shiroitlarda taminlash, tarbiyalash va ta'lim berish maktablarida tarbiyalanishga majbur bo'lgan bolalar oilaning ta'siridan bebahra bo'lib qolganlar. Turli sabablar asosida oilaning yemirilishi natijasida ma'lum guruh bolalar ixtisoslashtirilgan alohida shiroitlarda taminlash, tarbiyalash va ta'lim berish maktablarida tarbiyalanishga majbur bo'ladilar. Bunday maktablarda bolaga to'g'ri tarbiya berish, unda yuksak insoniy sifatlarin singdirish, ularni moddiy ta'minotini yaxshilashga harakat qilinishiga qaramay, tarbiyadagi turli qiyinchiliklar kelib chiqadi. Oilaviy tarbiya poidevorining dapz ketishligi, oilada ichkilikka ruju qilinishi, bolalar salbiy xulq sifatlerini shakllanishiga olib kelishn mumkpi.

Ichki ishlar bo'limining yoshlar va o'smirlar bilan ishlash guruhidagi arxiv materiallari bilan tanishish qarovsiz qolgan yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoiy ishlarning ko'pchiligi "bolalar muassasalari" tarbiyalanuvchilari ekanligini ko'rsatadi va jami jinoyatning 62,7 foizini tashkil etadi. Xulq og'ishi nafaqat tarbiyalanuvchilar orasida, balki oilada ota-ona nazoratidan chetda qolgan bolalarda ham uchraydi. Bu esa 38,3 foizni tashkil etadi.

O'smirlar orasida sodir etilayotgan qonunbuzarlikning 38,6 foizini turli davlat qaramog'idagi bolalar muassasalari tarbiyalanuvchilari sodir etadi. Ulardan 12,4 foizi ichkilikbozlik tufayli ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar bolasi, 16,2 foiz jinoiy ish tufayli ozodlikdan mahrum qilinganlar bolasi, 15 foiz maishiy buzuq va giyohvand oilalardan ekanligi aniqlandi.

Tarbiyasi qiyin bolalar uchrashining yama bir sababi bolalarda o'qishga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishidir. Ko'pgina ta'lim muassasalarida buni bolaning aqliy zaifligi, jismoniy nogironligi, «qobiliyatsizligi» deb izohlaydilar. Bizning fikrimizcha, bu noto'g'ri tushuncha bo'lib, o'qishga nisbatan salbiy munosabatlarni shakllanishi, o'qishdan ko'ngil sovishi birdaniga yuzaga kelmaydi. O'smirlarda o'qishga tevarakatdagi narsa-hodisalarni bilishga qiziqish asta-sekin so'na boradi va nihoyat salbiy munosabatlar shakllanadi. O'qishga qiziqmaslik tabiat, jamiyat, insoniyat haqidagi bilimlarining kamligi, o'qish ko'nikma va malakalarini yetarlicha shakllanmaganligi natijasidir.

Tajribalar o'tkazishda shu narsa ko'zga tashlanadiki, tarbiyasi qiyin o'smirlarni qayta tarbiyalashda e'tibor shaxsning o'z qadr-qimmatini tushuntirishga, yuksak intilishini shakllantirishga emas, balki uning kamchiligini qoralash, bolaga ishonmaslik, tanbeh berishga qaratiladi. Unga “Aldama!”, “O'g'irlik qilma!”, “Bezorilik qilma!” kabi quruq nasihat bilan cheklaniladi. Bu esa tarbiyasi qiyin o'smirlarni qayta tarbiyalashda tarbiyachilar tomonidan yo'l qo'yilgan katta xato hisoblanadi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxsida uchraydigan xususiyatlar, andishasizlik, o'zboshimchalik, beqarorlik, irodasizlik, yalqovlik, mas'uliyatsizlik kabi xususiyatlar ke lib chiqadi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni qayta tarbiyalashda, ulardagi o'qishga salbiy munosabatlarni bartaraf qilish, ularning xatti-harakatlari va bilimlarini obyektiv baholash, jamoa ichida o'z o'rnini topishga yordamlashish, tarbiyasi qiyin bolalarga ta'sir etish to'g'ri va ijobiy samara beradigan usullarni izlash kerak.

Tadqiqotni o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni kelib chiqishining ijtimoiy sabablarini o'rganish va ularni bartaraf etish pedagogik muammo sifatida yetarlicha o'rganilishi lozim;

2. O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olishda pedagogik-psixologik ta'sir ko'rsatish usullaridan oqilona foydalanish kerak;

3. O'smirlar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olishga qo'yiladigan pedagogik talablarni kuchaytirish davr talabidir;

4. Huquqbuzarlikni oldini olishda oilada tarbiyaning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, oilaviy muhitning nosog'lomligi, ota-onalarning farzand tarbiyasida mas'uliyatni oshiri;
5. Mahallalarda voyaga yetmagan bolalar bilan yetarli darajada shug'ullanish;
6. Sinf va maktab rahbarlirining o'z zimmalaridagi mas'uliyatlarini yetarlicha kuchaytirish;
7. Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yish;
8. O'smirlarning oilada va maktabda bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish kabi jarayonlarga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Ushbu vazifalar amalga oshirilganda jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, mustaqil fikrga ega bo'lgan, iymon-e'tiqodi butun, millat, jamiyat va Vatanning qadriga yetadigan barkamol avlodni shakllantirish mumkin. Kelajagi buyuk O'zbekistonni esa ana shunday barkamol avlod bunyod etadi.

9. Huquqiy madaniyat - shaxs umumiy kamolotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'zida yuksak darajadagi insoniy va axloqiy sifatlarni aks ettiradi, ya'ni, ijtimoiy me'yorlarga nisbatan munosabatda umuminsoniy manfaatlarning shaxsiy tuyg'ular bilan uyg'un kelishini ta'minlash, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, fuqarolik huquqlaridan foydalanish hamda ijtimoiy burchni anglashda huquqiy talablarga rioya etish va boshqalar.

Jamiyatda huquqiy axborotli muhitning qaror topganligi, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslarining ishlab chiqilganligi maqsadga yo'naltirilganligi hamda bu maqsadning natijalariga ega bo'lganligi, qonuniy ta'lim va tarbiyani tashkil etishda yagona birlik tizimlilikka asoslanganlik shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish va bu borada muvaffaqiyatga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

2. Milliy-huquqiy qadriyatlar, ularda ilgari surilgan huquqiy me'yorlar talabi asosida tashkil etiladigan xatti-harakatlar mohiyati va ahamiyati to'g'risidagi g'oyalarni o'quvchilar ongiga yetkazish, ularda huquqiy qadriyatlarga nisbatan chuqur hurmatni qaror toptirish shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish yo'lida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

3. Shaxs huquqiy madaniyati tarkibiy qismlarini ilmiy asoslash: huquqiy munosabatlar↔ehtiyoj↔maqsad↔ rag'bat↔faoliyatdan iborat otilik doirasida shaxs huquqiy tasavvuri, idroki, tafakkuri, savodxonligi, mas'ulligi, e'tiqodi, faolligi hamda salohiyatini shakllantirishi jarayonida hozirgi zamon talablarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

4. Huquqiy bilimlarni puxta egallash, murakkab huquqiy vaziyatlarda erkin harakat ko'nikma va malakalariga ega bo'lish huquqiy mazmundagi faoliyatini tashkil etish orqali hosil qilinadi.

O'quv faoliyatining pedagogik kuzatuv, o'quvchilar yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, o'quvchilar hamda ota-onalar o'rtasida suhbatlar, anketa so'rovlarini o'tkazish kabi metodlar; ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, ekskursiya, muammoli pedagogik vaziyatlar yaratish, boshqotirma, rebus topshiriqlarini bajarish, rolli, ishchanlik o'yinlarini tashkil etish kabi shakllar; ta'limning texnik va axborotli vositalar, ko'rgazmali qurollar, ovozli yozuvlardan foydalanshn kabi vositalar yordamida samarali tashkil etilish biz tanlagan yo'lning maqbulligini ko'rsatadi.

5. Huquqiy tarbiya jarayonida o'quvchining amaliy-huquqiy tajribaga ega bo'lishi bu borada tashkil etilgan faoliyatning ilmiy-pedagogik va uslubiy jihatdan to'g'ri olib borilganligini ko'rsatuvchi dalildir. Huquqiy tarbiyani tashkil etishda bahs, munozara, pedagogik vaziyatlarni hal etish, rolli o'yinlar, ko'riklar o'tkazish, to'garak hamda ilmiy jamiyat faoliyatini yo'lga qo'yish, devoriy gazeta va huquqiy jurnallar tayyorlash kabi ishlarining bajarilganligi shaxs huquqiy ongini boyitish, uning huquqiy faolligini ta'minlash imkonini berdi.

6. Ota-onalar va farzandlarning hamda burchlarini anglash, xo'jalik, maishiy va moliyaviy ishlarni tashkil etish, oila a'zolarining umumiy va shaxsiy mulklaridan foydalanish kabi masalalar mohiyatini shaxs oila muhitida o'zlashtirib boradi. Oilaning bu boradagi imkoniyatlaridan samarali foydalanish oila va maktab jamoasi o'rtasidagi hamkorlik mazmuni va sifatiga bog'liq.

7. Tadqiqot jarayonida olib borilgan sinov ishlari o'quvchilar huquziy madaniyatini shakllantirish bo'yicha taxminiy andozaning ishlab chiqilishi uchun asos bo'ldi. Matematik-statistik tahlil esa biz tavsiya etayotgan tizimning samaradorligin ko'rsatdi.

TAVSIYALAR

1. Shaxs madaniyati va uni shakllantirishning maqsadli tizimini ishlab chiqish, huquqiy axborotli muhitni qaror toptirish.

2. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirishning falsafiy, pedagogik, psixologik va huquqiy jihatlariga doir qo'llanmalari va metodik tavsiyanomalar yaratish.

3. Huquqiy fanlar o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalar mazmunida shaxs madaniyatini shakllantirish masalalarining o'rin olishiga erishish.

4. O'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida milliy-huquqiy qadriyatlar va ular mazmunida ilgari surilgan g'oyalardan foydalanish.

5. "Huquqiy bilim asoslari", "Shaxs huquqiy madaniyati" ruknidagi ko'rgazmali qurollar majmuini yaratish.

6. O'smirlarning huquqiy madaniyati darajasi va ahvolini aniqlash maqsadida Respublika mutasaddi tashkilotlari, ta'lim muassasalari hamda jamoatchilik hamkorligida ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish, bu asosda istiqbol rejalari va amaliy tadbirlarni belgilash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Karimov I. A.* Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008 - yil.
2. *Karimov I. A.* Barkamod avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutq- -T.: O'zbekiston, 1997 y., - 23 bet.
3. *Karimov I.A.* Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. Prezidentimiz I.A.Karimovning «Tafakkur» jurnali bosh muharririning savollariga javoblari. -Tafakkur jurnali., 1998 y., № 2.
4. *Karimov I.A.* Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik O'n ikkinchi chaqiriq; O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n oltinchi sessiyasida so'zlangan nutq. 22-23 sentyabr. -T.: O'zbekiston, 1994 y., 18-bet.
5. *Karimov I.A.* Istiqlol va ma'naviyat Tuzuvchilar: N.Komilov, K.Buronov. -T.: O'zbekiston, 1994 y., - 129 bet.
5. *Karimov I.A.* Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-tom. -T.:O'zbekiston. 1997 y., 1998, 29-bet.
6. *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997 yil 328 bet.
7. *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston, 1999- 21 bet.
8. *Karimov I.A.* O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat. O'zbekiston Respublikami Oliy Kengashining birinchi sessiyasida so'zlagan nutq, 1992 y.. 8- va 10-dekabr. -T.: O'zbekiston, 1992 y., 62 bet
9. *Karimov I.A.* O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Nutqlar, suhbatlir. -T.: O'zbekiston, 1993 y., 35-82-betlar.
10. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. -Ma'rifat gaz., 1997 y., 30 sentyabr.
11. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi. - Ma'rifat gaz., 1993 y., mart.

12. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining birinchi sessiyasida 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan. -T.: O'zbekiston, 1992 y.. -46 bet.
13. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiining IX sessiyasida 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan.
14. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T., Sharq matbaa konserni, 1997 y., 20 25-bet.
15. Avesto. - San'at jurnali., 1992 y., №12.
16. *Ibrohimov A., Sulonov X., Jo'rayev N.* Vatan tuyg'usi, -T.: O'zbekiston, 1996 y., -362 bet.
17. *Haydarov I.O.* "Tarbiyasi qiyin" o'smirlar bilan ishlash./ Xalq ta'limi/ 1997 y, №2-son, 45-47 betlar.
18. *Karimova O.* Oila, farzand va jamiyat. -T.: O'qituvchi, 1991 y.. - 61- bet.
19. *Karimova O., Rafiqov A.* O'quvchi yoshlarni huquqiy tarbiyalash. -T.: O'qituvchi, - 32-bet.
20. *Karimova O., To'ychiyeva X.* Davlat va huquq asoslari. IX sinf uchun qo'llanma. -T.: O'qituvchi, 1996 y.,184 bet.
21. *Mahmudov R.* Kasbiy pedagogika. Dsrlik. -T.: O'zb. Resp. IIV Akademiyasi, 2003, - 92 b
22. *Mahkamov U.I.* O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. -T.: O'zbekiston, 1996 y., - 200 bet.
23. *Munavvarov A.K.* Oila pedagogikasi. -T.: O'qituvchi, 1994 y.. - 112 bet.
24. *Musurmonova O.* O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. -T.: Fan, 1993 y. - 112 bet.
25. *Normurodov G'A.* Gumon qilinayotgan voyaga yetmagan o'smirlarni so'roq qilishning psixologik xususiyatlari. 19.00.06-yuridik psixologiya. Psix.fan.nom.ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. 2008 y.
26. *Soliyeva Z.K.* Voyaga yetmagan bolalarning fuqarolik huquqiy maqomi. 12.00.03-fuqarolik huquqi, tadbirkorlik huquqi, oila huquqi, xulqaro huquq. Yuridik fan.nom.ilm.dar. olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. 2011 y.

27. *Uzorov X., G'oziyev E., Oripov A.* Oila axloqi va odobi. -T.:O'qituvchi, 1995 y.. - 87 bet.
28. *Usmonboyeva M.* Demokratik jamiyat barpo etish jarayonida o'quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirish. /Uzluksiz ta'lim tizimida huquqiy, badiiy va mehnat madaniyatini shakllantirishning dolzarb muammolari. - T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, - 17-23-betlar.
29. *Yusupov E., Yusupov U.* Ma'naviy kamolot va jamiyat taraqqiyoti. - Xujand, Kafolot, 1996 y.. - 170 bet.
30. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jildlik. 1-jild //Tuzuvchilar K.Hoshimov, S.Ochil. -T.: O'qituvchi, 1995 y.. -465 bet.
31. O'zbek pedagogikasi tarixi. A.Zunnunov tahriri ostida. -T.: O'qituvchi, 1997 y.. - 272 bet.
32. *Qudaybergenova T.K.* O'rta maxsus o'quv yurtlarida huquqiy ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari. 13.00.01-Ped. naz. va tar. Ped. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yozilgan diss. 2005 y.
33. Qur'oni Karim. O'zbekchaga izohli tarj. va izohlar muallifi Alouddin Mansur, - T.: Adabiyot va san'at nashr., 1992 y.. - 490 bet.
34. *G'oziyev E.* Psixologiya. – T.: O'qituvchi, 1994, - 224 b.
35. www.ziyonet.uz

**Samarqand viloyati Xalq ta'limi tasarrufidagi № 64-son ixtisoslashtirilgan alohida shiroitlarda
taminlash, tarbiyalash va ta'lim berish maktabi tarbiyalanuvchilari to'g'risida 24-may 2012 yil
holatiga**

MA'LUMOT

№	F.I.Sh.	Tug'ilgan yili	Qachon kelgan	Qayerdan kelgan	Sud nomi va ajrim sanasi	Yo'llanma raqami	Oilaviy sharoiti	Sodir etgan jinoyati
1.	Abdugafforov Axmadjon Ilxom	11.04.1998.	5.05.2010.	Farg'ona v. Farg'ona sh.	Farg'ona. sh 06.04.2010 y.	№03-1087 5.05.10	Yarim yetim, onasi bilan yashaydi	Maktabga sababsiz bormagan
2.	Abdullayev Shaxzod Shavkat o'g'li	14.08.1997.	24.02.2010.	Navoiy v. Navbahor t.	Navbaxor.t 16.02.2010 y	№03-322 23.02.2010 y	ota onasi qaramog'ida yashaydi	Uyidan sababsiz chiqib ketgan
3.	Abibullasv Rustam Rufatovich	21.06.1997	03.02.2010	Sirdaryo v. Guliston sh.	Guliston sh. 29.01.2010	№ 03-179 02.02.2010	Yarim yetim onasi bilan yashaydi	Uyidan sababsiz chiqib ketgan
4.	Atayev O'ktam Muratovich	1.02.1997.	19.06.2010.	Toshkent v. Ohangaron t.	Ohangaron. t 05.05.2009.	№ 02-1148.16.0610	Yarim yetim onasi bilan yashayli	Tilamchilik qilib, ko'chada maqsadsiz daydib yurgan
5.	Ashurov Alisher Shavkat o'g'li	09.02.1999.	09.08.2010.	Farg'ona v. Beshariq t.	Beshariq.t 26.06.2010y.	№ 03-1669 09.08.2010y.	Yarim yetim, onasi bilan yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
6.	Ashurov Sunnatillo Doniyor	6.11.1998.	8.04.2010.	Qashqadaryo v. Qarshi sh.	Qarshi. sh 22.03.2010y.	№ 03-784. 8.04 10	Yarim yetim, otasi bilan yashaydi	Maktabga sababsiz bormagan
7.	Bajutina Andrey Janbulatovich	24.09.1997.	18.02.2010.	Toshkent v. Chirchiq sh.	Chirchiq tuman 04.08.2009	№ 03-1727 17.09.2009	Yarim yetim onasi bilan yashaydi	Uyidan sababsiz chiqib ketgan
8.	G'aybullasv Farruxjon G'ayratjon o'g'li	27.01.1997	22.05.2010	Samarqand v. Tayloq t	Tayloq t. 05.05.2010	№ 03-1223 19.05.2010	Yarim yetim otasi bilan yashaydi	Mayda o'g'irliklar sodir etgan, uyidan chiqib ketgan
9.	Djemilov Edem Ernestovich	01.03.1999	11.05.2011	Toshkent v. Uchtepa t. Chilonzor 23 daxasi 4 uy, 60 xona	Uchtepa t. 13.04.2011	№ 03-622 25.04 2011	Yarim yetim. Onasi bilan yashayli	O'g'irlik qilgan, maktabga bormagan
10.	Diliboyev Ummatali Avazbek o'g'li	22.12.1998	24.06.2011	Andijon v. Andijon sh. Gulshan ko'uchasi 6 uy	Andijon sh. 16.06.2011	№ 03-1328 23.06.2011	Ota-onasi qaramog'ida yashaydi	Ko'cha kuyda tunab qolgan maktabga bormagan
11.	Yeloyev Sardor Axmadjonovich	09.12.1997.	06.07.2010.	Namangan v. Namangan sh.	Namangan sh. 23.06.2010y	№03-1494 06.07.2010 y.	Ota-onasi qaramog'ida yashayli	Uyidan sababsiz chiqib ketgan
12.	Jamoliddinov Toxirjon Alxamjon o'g'li	13.09.1997.	20.08.2010.	Namangan v. To'rako'rg'on t.	To'rako'rg'on t 17.08.2010 y.	№ 03-1745 20.08.2010y.	Yarim yetim, onasi bilan yashaydi	Maqsadsiz ko'chada daydib yurgan
13.	Jo'rayev Muhammadali Sa'dullo	11.07 1997.	7. 04.2010.	Qashqadare v. Qarshi sh.	Qarshi sh. 25.03.2010Y.	№ 03-771. 704.10	Ota-onasi qaramog'ida yashayli	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
14.	Zaripov Narzillo Umur o'g'li	30.10.1998.	15.12.2010.	Buxoro v. G'ijduvon t.	G'ijduvon t. 01.12.2010.	№ 03-2767 15.12.2010	Yarim yetim.Onasi bilan yashaydi	Ko'cha kuyda tunab qolgan, maktabga bormagan
15.	Ibragimov Faxriddin Farxod o'g'li	23.07.1997.	31.01.2010.	Buxoro v. Vobkent t.	Vobkent.t 14.02.2010.	№ 03-161 29.01.2010	Yarim yetim onasi bilan yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
16.	Isokov Nabi Sayfullo o'g'li	13.07.1997.	06.12.2009.	Samarqand v. Urgut t.	Urgut t. 18.11.2009.	№ 03-2639 03.12.2009	Yarim yetim onasi bilan yashaydi	Tilamchilik qilib, ko'chada maqsadsiz daydib yurgan

17.	Kan Svyatoslav Sergeevich	09.02.1998	29.04.2011.	Namangan v. Pop t.	Pop t. 21.04.2011.	№ 03-639 26.04.2011	Yarim yetim, otasi bilan yashaydi.	O'g'irlik qilgan maktabga bormagan
18.	Klimenko Maksim Vladimirovich	25.03.1998.	24.06.2010.	Namangan v. Namangan sh.	Namangan sh 17.04.2010 y.	№ 02-1195 19.06.2010 y.	Yarim yetim. Buvasi karamog'ida yashaydi.	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
19.	Qoryog'diyev Farhod Yo'ldosh o'g'li	31.12.1997.	1.12.2010.	Buxoro v. Jondor t.	Jondor t. 12.11.2010.	№ 03-2694 02.12.2010	ota onasi qaramog'ida yashaydi	Odam o'ldirish jinoyatini sodir etgan
20.	Qosimov Ravshanbek Sadridin o'g'li	01.01.2000	08.02.2011	Jizzax v. Arnasoy t.	Arnasoy t 07.01.2011.	№ 03-168 03.02.2011	ota onasi qaramog'ida yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
21.	Quvvatov Murodjon Abduxalil o'g'li	14.11.1997.	12.02.2011	Surxandaryo v. Jarqo'rg'on sh.	Jarqo'rg'on t. 21.12.2010	№ 03-209 11.02.2011	Yarim yetim otasi bilan yashaydi	O'g'irlik jinoyatini sodir ettan
22.	Qo'chqorov Shoxruz Gennadiyevich	11.08.1998	28.05.2011	Samarqand v. Kattaqo'rg'on sh. Ikrom Xayitov- 51	Katgaqo'rg'on sh. 28.04.2011	№03-914 27.05.2011	Onasi bilan yashaydi, ajrashgan	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
23.	Mamatkulov Bunyod	01.06.1999	26.03.2011.	Jizzax v. Jizzax sh.	Jizzax sh 2103.2011.	№ 03-457 25.03.2011	Chin yetim Ota-onasi noma'lum. Mex.uy	Mexribonlik uyidan qochib ketgan
24.	Marchenko Eduard Aleksandrovich	15.03.1998.	10.04.2009	Jizzax v. Arnasoy t.	Arnasoy t. 07.04.2009Y.	№03-632 08.04.2009Y.	Yarim yetim, onasi bilan yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
25.	Mingaliyev Shohruh Rinatovich	17.12.1997	19.09.2009	Samarqand v Samarqand sh.	Samarqand sh 10.08.2009	№ 03-1911 08.10.2009	Yarim yetim onasi bilan yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
26.	Mirzabdullayev Boburmirzo Abduraxmon o'g'li	03.03 1998.	06.07.2010.	Namangan v. Yangiqo'rg'on t.	Yangiqo'rg'on t. 02.07.2010 Oy.	№03-1495 06.07.2010Y.	Yarim yetim, onasi bilan yashaydi	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
27.	Mixaylov Ruslan Aleksandrovich	20.09.1998.	20.01.2011.	Surxandaryo v. Termiz sh.	Termiz sh. 05.01.2011.	№02-194 20.01.2011	Yarim yetim.Onasi bilan yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
28.	Odilov Azizbek Oybek o'g'li	20.02.1997	19.09.2009.	Samarqand v. Narpay t	Narpay t. 21.08.2009	№02-1165 19.09.2009	Yarim yetim onasi bilan yashaydi	Turli huquqbuzarliklar sodir etgan
29.	Ochilov Ramazon Sunnatullayevich	3.02.1997.	19.12.2009.	Buxoro v. Olot t.	Olot t. 10.12.2009.	№ 03-2823 17.12.2009 y	Yarim yetim bobosi bilan yashaydi	Spirтли ichimlik ichib janjal qilgan, maktabga bormagan
30.	Raximov Murodjon Zoir o'g'li	28.05.1997.	28.03.2011.	Toshkent v. Qibray t.	Qibray t. 22.03.2011.	№03-455 24.03.2011	Yarim yetim, Onasi bilan yashaydi,	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
31.	Raxmonov Shaxzod Normurot o'g'li	22.06.1999.	07.11.2010.	Navoiy v. Karmana t.	Karmana t. 29.10.2010.	№ 03-2533 08.11.2010.	Yarim yetim, otasi bilan yashaydi	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
32.	Ro'ziyev Muhridin Umar o'g'li	12.07. 1998.	20.03 2010.	Buxoro v. G'ijdivon t	G'ijdivon t. 09.04.2010.	№ 03-889 20.04.10	Ota onasi qaramog'ida yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
33.	Saidmamatov Ismoilxon Xabibulloxon o'g'li	07.02.1999.	15.10.2010.	Namangan v. Kosonsoy t.	Kosonsoy t 05.10.2010.	№03-2339 14.10.2010	Ota-onasn qaramog'ida yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
34.	Saidov Ravshan Rajabovich	31.10.1998.	25.03.2011.	Samarqand v. Samarqand sh.	Samarqand sh. 24.02.2011	№03-413 17.03.2011	Meh.uyi tarbiyalanuvchnsi. Yarim yetim, onasi tashlab ketgan	Mexribonlik uyidan qochib ketgan
35.	Silnov Rinat Nazimovich	28.05 1998	22.05.2010.	Navoiy v., Navoiy shahar	Navoiy sh. 26.03.2010 Oy	№03-1197. 12.05.10	Yarim yetim, onasi bilan yashaydi	Uyidan sababsiz chiqib ketgan
36.	Sobolev Dmitriy Andreyevich	14.07 1998.	21.07 2010.	Toshkent v., Ohangaron t.	Oxangaron t. 22.04.2010.	№03-1563. 20.07.2010	Yarim yetim onasi bilan yashaydi	Uydan chiqib ketib, maktabga

								bormagan
37.	Son Vadim Sergeyevich	04.11.1997.	21.07.2010.	Toshkent v. Ohangaron t.	Ohangaron t. 2204.2010.	№03-1562 20.07.2010	Yarim yetim onasi bilan yashaydi	Internatdan qochib ketib, sababsiz ko'chada daydib yurgan
38.	Sotiboldiyev Shaxbozbek Jumaboy o'g'li	20.07.1998	06.05.2011	Namangan v, Chortoq t. Gulshan QFY, Chorsu MFY	Chortok t. 27.04.2011	№03-714 06.05.2011	Onasi bilan yashaydi, ajrashgan	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
39.	Sultonov Abdullajon Abduqahhor o'g'li	12.03.1997.	07.10.2009.	Andijon v. Izboskan t.	Izboskan t. 22.09.2009.	№03-1889 06.10.2009.	Ota onasi qaramog'ida yashaydi	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
40.	Suyarqulov Erkin Botir o'g'li	08.04.1998.	09.07.2010	Jizzax v. Baxmal t.	Baxmal t. 15.06.2010 y.	№ 03-1503 08.07.2010 y.	Ota-onasi qaramog'ida yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
41.	Tamenov Ali Suyebayevich	20.07.1997	19.05.2011	Navoiy v. Uchquduq t. Mustaqillik ko'chasi, 3/26	Uchquduq t. 19.04.2011	№ 03-760 13.05.2011	Yarim yetim, Onasi bilan yashaydi.	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
42.	Tashev Ruslan Tagdirovich	03.08.1999.	23.04.2011.	Navoiy v. Navoiy sh.	Navoiy sh. 06.04.2011.	№ 03-592 21.04.2011	Yarim yetim, Onasi bilan yashaydi.	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
43.	Temirov Olimjon Rajab o'g'li	13.05.1998.	26.11.2009.	Buxoro v. Vobkent t.	Vobkent t. 08.10.2009.	№ 03-2552 25.11.2009	Ota onasi qaramog'ida yashaydi	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
44.	Teshayev Rauf Jura o'g'li	25.11.1996.	16.03.2010.	Buxoro v. Qorako'l t.	Qorako'l t. 19.02.2010.	№ 03-585 15.03.2010	Ota-onasi qaramog'ida yashaydi	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
45.	Titov Vladimir Sergeyevich	07.01.1997.	16.03.2010.	Navoiy v. Navoiy sh.	Navoiy sh. 08.02.2010 Oy.	№ 03-584 15.03.2010 y.	Yarim yetim, onasi bilan yashaydi	Tilamchilik kilib, ko'chada maqsadsiz daydib yurgan
46.	Tojiboyev Bahodir Baxtiyorovich	05.11.1996.	31.01.2009.	Toshkent v. Yuqorichirchiq t.	Yuqori Chirchiq tumanlararo 23.01.2009	№ 03-79 29.01.2009	Otasi bilan yashaydi	Maqsadsiz ko'chada daydib yurgan
47.	Toshmatov Muhiddin Ma'rufovich	15.10.1998	03.03.2011	Samarqand v. Samarqand sh.	Samarqand sh. 15.02.2011	№ 02-537 01.03.2011	Yarim yetim. Bobosi va buvisi qaramog'ida	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
48.	Toshpo'latov Murodjon Mustafo o'g'li	06.02.1998	27.02.2009.	Buxoro v. Qorako'l t.	Qorako'l t 20.02.2009.	№03-285 26.02.2009.	Yarim yetim onasi bilan yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
49.	Toshtemirov Shaxzod Mirjon o'g'li	31.07.1999	19.05.2011	Navoiy v. Karmana t. Malikrabort QFY, Do'stlik maxallasi	Karmana t. 29.04.2011	№ 03-760 13.05.2011	Yarim yetim, onasi bilan yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
50.	Turabov Shaxzod Odil o'g'li	01.08.1998	20.01.2011.	Samarqand v. Jomboy t.	Jomboy t 13.12.2010.	№ 03-87 17.01.2011	Yarim yetim. Onasi bilan yashaydi	Ko'cha kuyda tunab qolgan, maktabga bormagan
51.	To'rayev Sirojiddin Maxmudovich	11.06.1998.	16.03.2010.	Navoiy v. Navoiy sh.	Navoiy sh 08.02.2010 y	№ 03-449 4.03.2010 y.	Yarim yetim.onasi bilan yashaydi	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
52.	Turg'unov Muhiddin Valijon o'g'li	15.03.1997	01.04.2010	Sirdaryo v. Sirdaryo t.	Sirdaryo t. 17.03.2010	№ 04-663 18.03.2010	Yarim yetim, otasi bilan yashaydi	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
53.	Turg'unov Nodirbek Nosirjon	16.12.1997.	06.05.2010.	Farg'ona v. Farg'ona sh.	Farg'ona sh 22.04.2010Y.	№ 03-1088 5.05.10	Ota-onasi qaramog'ida yashaydi	Odam o'ldirish jinoyatini sodir etgan

54.	Turdiyev Shohruh Zuhridin o'g'li	12.03.1999	07.05.2011	Farg'ona v. Qo'qon sh, Qashqadaryo ko'chasi, 17 uy	Qo'qon sh. 28.04.2011	№ 03-710 06.05.2011	Onasi bilan yashaydi, ajrashgan	Tilamchilik qilib, ko'chada maqsadsiz daydib yurgan
55.	Umirzaqov Jo'rbek Umurzok o'g'li	15.03.1999	24.03.2010	Samarqand v. Jomboy t.	Jombon t. 15.04.2009	29.03.2010	Yarim yetim onasi bilan yashaydi	Ko'chada sang'ib yurgan, to'g'ri kelgan joyda tunab qolgan
56.	Fayzulin Oleg Igoryevich	18.12.1996	06.11.2009	Xorazm v. Urgench sh.	Urgench sh. 16.09.2009	№03-2308 05.11.2009	Yarim yetim mehribonlik uyida yashaydi	Mexribonlik uyidan qochib ketgan
57.	Fomin Yevgeniy Vyacheslavovich	28.07.1998.	19.12.2009.	Navoiy v. Navoiy sh.	Navoiy sh. 25.11.2009 y.	№ 03-2826 18.12.2009 y.	Yarim yetim. Mexribonlik uyida	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
58.	Xaydarov Shohpyh Xaydar o'g'li	08.02.1998.	17.08.2010.	Buxoro v. Shofirkon t.	Shofirkon t 04.08.2010.	№02-1752 19.08.2010.	Ota-onasi karamogida yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
59.	Hakimjonov Sardorbek Xusniddin o'g'li	1.09.1997.	7.03.2010.	Andijon v. Xo'jaobod t.	Xo'jaobod t 26.02.2010.	№ 03-475 5.03.2010 y.	Buvisi bilan yashaydi	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
60.	Xalimov Sulton Sergey o'g'li	05.01.2000.	02.02.2011.	Buxoro v. Qorako'l sh.	Qorako'l sh. 05.01.2011.	№ 03-138 31.01.2011.	Yarim yetim, Otasi bilan yashaydi	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
61.	Xolopov Dmitriy	21.09.1998.	06.05.2010	Jizzax v. Jizzax sh.	Jizzax sh 05.05.2010y.	№03-1104 6.05.10	Yarim yetim, onasi bilan yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
62.	Xudaybergenov Rashid Shuhrat o'g'li	24.11.1999.	10.12.2010.	Toshkent v. Chirchiq sh.	Chirchiq sh 09.11.2010.	№ 03-2658 27.11.2010	Yarim yetim, Mexribonlik uyida yashaydi	Mexribonlik uyidan qochib kettan
63.	Xudoyberdiyev O'tkirbek Nurmuhammal o'g'li	20.10.1997	06.05.2010	Sirdaryo v. Yangiyer sh.	Yangiyer sh. 26.04.2010	№03-1058 03.05.2010	Yarim yetim otasi bilan yashaydi	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
64.	Chumak Aleksandr Daninlovich	05.03.2000.	23.04.2011.	Navoiy v. Navoiy sh.	Navoiy sh 06.04.2011.	№ 03-593 21.04.2011	Yarim yetim, Onasi bilan yashaydi.	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
65.	Shoimqulov Stanislav Andreyevich	11.12.1996.	21.01.2010.	Andijon v. Andijon sh.	Andijon sh 08.01.2010.	№03-106 20.01.2010	Ota onasi qaramog'ida yashaydi	Ko'chada sang'ib yurgan, to'g'ri kelgan joyda tunab qolgan
66.	Shomamatov Ilhom Shomamat o'g'li	03.10.1996.	03.04.2009.	Navoiy v. Xatirchi t.	Xatirchi t 23.03.2009 y	№ 03-515 30.03.2009 y.	Ota-onasi qaramog'ida yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
67.	Ergashev Biloliddin O'ktam o'g'li	19.02.1997.	18.04.2009	Jizzax v. Baxmal t.	Baxmal t. 07.04.2009y,	№ 04-886 15.04.2009	Yarim yetim, onasi bilan yashaydi	Uydan chiqib ketib, maktabga bormagan
68.	Yaxyoyev Bekmurod Yaxyoyevich	14.07.1999	07.05.2011	Buxoro v. Buxoro sh. A.Jomiy ko'chasi, 21/2 uy, 11 -xona	Buxoro sh. 25.04.2011	№03-711 06.05.2011	Onasi bilan yashaydi, ajrashgan	Uyida mayda o'g'irliklar sodir etgan
69.	Shukurov Dilmurod Azim o'g'li	25.10.1995.	23.06.2007.	Samarqand v. Kattaqo'rg'on t.	Kattaqo'rg'on t 08.06.2007.	№02-866 21.06.2007.	Ota-onasi qaramog'ida yashaydi	Maktabga sababsiz bormagan
70.	Axtamov Axmadjon Abdusamat o'g'li	13.10.1997	05.07.2011	Urgut tumani, Guslik mahallasi, S.Narzullayev ko'chasi 29 uy	Urgut t. 03.06.2011	№ 03-1374 27.06.2011	Yarim yetim onasi bilan yashaydi.	Mehribonlik uyidan qochib ketgan
71.	To'lqinov Asadbek Nurali o'g'li	24.06.2000	16.07.2011	Farg'ona viloyati,	Farg'ona sh. 05.06.2011	03-1551 15.07.2011	Yarim yetim, onasi bilan yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada

				Farg'ona shaxri Maorif ko'chasi 100 uy				daydib yurgan
72.	Turniyozov Madaminbsk Otabekovich	16.11.1998	07.08.2011	Samarqand vi, Paxtachi tumani, Karnab kishlogi	Paxtachi t 21.07.2011	03-1706 04.08.2011	Oga-onasi karamogida yashaydi	Internagddai kochib ketib, sababsiz ko'chada daydib yurgan
73.	Maxmudov Jaxontr Davronovich	31.12.1999	08 09.2011	Samarqand v. Urgut tumani, Urgut shaxri, Bog'ishamol mahallasi, Navbaxor ko'chasi	Urgut t. 27.08.2011	03-1956 05.09.2011	Farzandlikka olingan	Tilamchilik kilib, ko'chada maqsadsiz daydib yurgan
74.	Karimov Humoyun Quvondiq o'g'li	04.02.1998	10.09.2011	Xorazm v. Shovot t. Shovot shaharchasi O'qituvchilar ko'chasi 32-uy	Shovot t. 26.08 2011	№ 03-1989 06.09.2011	Ota-onasi qaramog'ida yashaydi.	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
75.	Raxmanov Jamshidbek Yusupovich	05.06.2000	19.09.2011	Ishtixon shaxri G'.G'ulom mahallasi O'qituvchilar ko'chasi 13 uy	Ishtixon t 05.09.2011	№ 03-2045 15 09.2011	Ota-onasi qaramog'ida yashaydi	Sababsiz maktabga bormay ko'chada daydib yurgan
76.	Qo'chqorov Azamatjon Qodirjon o'g'li	24.09.1999	20.10.2011	Farg'ona v. Uchko'prik tumani. Kangil qishlog'i	Uchko'prik t. 20.09.2011	№ 03-2267 19.10.2011	Bobosi va buvisi farzandlnkka olgan	Maktabga bormay tilamchilik qilgan
77.	Solunov Ilya Vitalyevich	22.05.1999	29.10.2011	Navoiy v. Zarafshon sh, 12-kichik t. 49-uy. 14 xona, 10-mehribonlik uyi	Zarafshon sh. 02.09.2011	№ 03-2312 28.10.2011	Ota-onasi bor	Mehribonlik uyidan qochib ketgan
78.	Salimboyev Xusniddin	07.05.1999	09.03.2012	Toshkent viloyati Bekobod shahar S.Ayniy 94- uy	Bekobod sh 23.02.2012	№ 03-508 01.03.2012	Yarim yetim onasi bilan yashaydi	Maktabga bormagan.onasiga quloq solmagan.
79.	Abduraxmonov Farrux	19.08.1999	07.12.2011	Toshkent viloyati Sirg'ali tumani, Gagarin ko'chasi 49-uy	Sirg'ali t. 27.10.2011	№ 03-2517 28.11.2011	Onasi bilan yashaydi	Hyech kimni gapiga quloq solmay, sababsiz o'qishgan bormagan
80.	Zokirov Botir	15.02.1999	21.03.2012	Samarqand viloyati Ishtixon tumani	Ishtixon t. 15.03.2012	№ 03-657 19.03.2012	Chin yetim, amakisini qarmog'ida	Sababsiz uyan chiqib maktabga bormagan
81.	Karimov Muxammadamin	26.04.2000	31.03.2012.	Surxondaryo viloyati Denov shaxri	Denov t. 26.03.2012	№ 03-782 29.03.2012	Tog'asini qarmog'ida yashaydi	Maqsadsiz ko'chalarda daydib yurgan
82.	Do'stmurodov Shahzod	01.09.1998	1603.2012	Surxondaryo viloyati Denov tumani Tasmaoy mahallasi	Denov t. 7.03.2012	№ 02-507 13.03.2012	Chin yetim amakisini qaramog'ida yashaydi	Maktabga bormay daydib yurgan
83.	Ergashev Ro'zimuhammad	02.01.2000	10.02.2012	Farg'ona viloyati	Rishton t. 26.01.2012.	№ 03-318 07.02.2012.	Otasining qaramog'ida yashaydi	Daydib, huquqbuzarlik

				Rishton tumani Oqyer qishlog'i S.Raximov ko'chasi				sodir etgan
84.	Kamolov Husniddin	15.10.1998	31.03.2012	Andijon viloyati. "Hursandchilik "mahallasi	Andijon sh. 26.03.2012	№ 03-783 30.03.2012	Otasi qaramog'ida yashaydi	Maktabga bormay, o'zboshimchalik uydan chiqib ketgan
85.	Fayzullayev Dilshod	15.07.1999	25.04.2012	Navoiy viloyati Nurota tumani	Nurota t 28.03.2012	№ 03-1064 24.04.2012.	Ota-onasi bilan yashaydi	Gaplarga quloq solmasdan maktabga bormagan
86.	Tursunov Oyatillo	06.03.2000	24.04.2012	Namangan viloyati, Mingbulok tumani.Dovdu q QFY	Jomashuy sh. 12.04.2012	№ 03-1037 23.04.2012.	Ota-onasi qaramog'ida yashaydi	Maqsadsiz ko'chalarda daydib yurgan
87.	G'aniyev Hojiakbar	06.04.1998	23.03.2012.	Toshkent viloyati, Zangiota tuman Ko'ksaroy QFY Oxunboboyev ko'chasi	Zangiota t. 12.03.2012.	№ 03-678 20.03.2012.	Ota-onasi qaramog'ida yashaydi	Qonunbuzarliklar sodir etgan
88.	Alimov Alisher	05.08.1998	02.05.2012.	Toshkent viloyati, Zangiota tumani Erkin QFY, Quyoshli mahallasi	Zangiota t. 03.04.2012.	№ 03-998 03.05.2012.	Ota-onasi qaramog'ida yashaydi	Muntazam ravishda dars qoldirib borgan
89.	Abduraufov Otabek	04.11.1999	05.05.2012.	Samarqand shahar Beklar mahallasi Bobur ko'chasi 9-uy	Samarqand sh 27.04.2012.	№ 03-1156 03.05.2012.	Otasining qaramog'ida yashaydi.	Ichimliklarga ruju qo'ygan, o'g'irlik sodir etgan
90.	Mexliyev Ne'mat	31.03.1999.	08.05.2012.	Jizzax viloyati Zarbdor tuman, Rovot mahallasi Mamatqulov ko'chasi	Zarbdor t. 04.05.2012.	№ 03-1163 7.05.2012.	Ota-onasi qaramog'ida yashaydi.	Har xil huquqbuzarliklar sodir etgan

**Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga
jalb qilish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi**

O'zbekiston Respublikasida barcha sohalarda, shuningdek, sud-huquq islohotlarida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday islohatlar bevosida huquqiy demokratik davlatni shakllantirish, yosh avlodning huquq va erkinliklarini yanada to'laroq ta'minlash, ularni turli tajovuz va salbiy illatlardan himoya qilishdir.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan ushbu ilg'or g'oyalar o'z navbatida, voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish jinoyati uchun javobgarlik va jazo tayinlash masalasiga ham tanqidiy jihatdan yondashishga xizmat qilib, ushbu jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan normalarni tubdan qayta ko'rib chiqish, isloh qilishni taqoza qiladi, chunki bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir.

Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish tushunchasiga to'xtalishdan oldin "voyaga yetmagan", "yosh bola" tushunchalariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Amalda bo'lgan jinoyat qonunida yosh bola deganda, u yoki bu ijtimoiy harakatni sodir qilib, uning ijtimoiy xavfliligini va huquqqa xilofligini anglay olmaydigan shaxslar tushuniladi va ular, tabiiyki qilgan qilmishi uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Rossiya Federasiyasi JKda (Umumiy qismi 64-moddasi 9-bandi) yosh bolalar deganda, jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetmagan shaxslar nazarda tutilgan. Ammo bizning fikrimizcha, RF JK dagi "yosh bolalarni jinoyat qilishga jalb qilish" tushunchasiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 56-moddasi "j"-bandida "yosh boladan foydalangan holda jinoyat sodir etish" tushunchasi ancha ixchamdir. O'zining sodir qilayotgan harakatlarining mohiyatini anglaydigan shaxslargina jinoiy faoliyatga jalb qilinadi. O'z harakati mohiyatini tushunmaydigan shaxs jalb qilinmaydi, balki jinoyat sodir qilishda undan foydalaniladi.

Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarining oldini olish muammolari

Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarining oldini olish bu ijtimoiy faoliyat bo'lib, jamiyat rivojlanishi va boshqa ijtimoiy holatlar bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lib, o'z o'rniga ega. Xuddi shu ma'noda, individual oldini olish (profilaktika)ni ijtimoiylashuvi jarayonining bir qism sifatida qarash kerak.

Butun insoniyat tarixi va bor bo'lgan ijtimoiy institutlar huquqiy xulqni shakllashtirishga qaratilgan. Shuning uchun shaxsning ijtimoiylashuvi unda axloqiy sifatlar va huquqiy ongni shakllantirishni keltirib chiqaradi. Ushbu jarayonda stixiyalikning ko'p hajmdaligi aksijtimoiylashuvni keltirib chiqaradi.

Aksijtimoiy faktorlarni yo'qotish huquqbuzarlikning oldini olish asosiy vazifasidir. Shuning uchun ularning o'zaro aloqasini, aksijtimoiy subyektlar bilan aloqasini aniqlash, jamiyatdagi o'zgarishlarni hisobga olish oldini olish ishining sifatini oshiradi.

Aksijtimoiy subyektlar soni cheklangan. Bular asosan alohida salbiy fe'lli shaxslar yoki ularning guruhlar yoxud yoshlarning ba'zi uyushmalari yo ba'zan oila bo'lishi mumkin.

Lekin, ularning aksijtimoiy ta'siri shaxsning xususiyati bilan bog'liq determinanlarning borligida ko'rinadi.

Demak, voyaga yetmaganning aksijtimoiy muhit bilan ta'siri doim ham uning aksijtimoiylashuviga olib kelmaydi. Bu ta'sir bilan mos kelmaydigan shaxsiy xususiyatlardan tashqari, jamiyat axloqiy negizi, huquq va davlat muassasalari faoliyati, jamoat tashkilotlari faoliyati, alohida fuqarolar faoliyatlari ham bunga yordam beradi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi

Hozirgi vaqtda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi haqida salmoqli statistik material to'plangan, uni tahlil qilish metodikasi asosan ishlab chiqilgan. Bularning barchasi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining holatini, uning miqdor va sifat (tarkibiy va boshqa) o'zgarishlarini ancha aniq baholash imkonini beradi.

O'zbekistonda jinoyat statistikasi 1990 yilgacha jinoyat sodir etgani aniqlangan shaxslar soniga ko'ra voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi har besh yilda o'rta hisobda 4-8% ga izchil o'sib borganini qayd etib kelgan. 1991 yildan bu tendensiya sezilarli darajada o'zgardi. 1995-1996 yillarda ro'yxatga olingan jinoyat sodir o'smirlar sonining o'sishi 8% ni tashkil etdi. Taqqoslash uchun: bu ko'rsatkich Rossiya Federasiyasida 20%, Ukrainada – 16, 8%, Ozarbayjonda – 18, 1, Qozog'istonda – 14, 9%, Turkmanistonda – 9%, Belorussiyada – 9, 8% ni tashkil etgan.

1998 yilda 50 mingdan ortiq jinoyatchi, shu jumladan ikki mingdan ortiq voyaga yetmaganlar hukm qilingan bo'lib, bu jazoga tortilgan jinoyatchilar umumiy sonining 4% ga yaqinini tashkil etadi. 1996 yilda bu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 51602 jinoyatchi, 2023 o'smir va 3, 9% ni tashkil etgan, 50 dan ortiq o'smir Oliy sud tomonidan jazoga hukm qilingan edi.

Mahkumlar tarkibini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, 1998 yilda jinoyat sodir etgan 2000 dan ko'proq jinoyatchi orasida 37 kishi hayotga qarshi jinoyatlar uchun (JKning 97-103-moddalari bo'yicha) hukm qilingan (1996 yilda – 10 kishi). Sog'liqqa qarshi jinoyat sodir etganlar (JKning 104-111-moddalari) 50 dan ortiq kishini tashkil etgan. Talonchilik uchun 150 dan ortiq kishi, bosqinchilik uchun – 40 dan ortiq kishi hukm qilingan. 160 dan ortiq kishiga (bu jami voyaga yetmagan mahkumlarning 8% ni tashkil etadi) shartli jazo tayinlangan.

Voyaga yetmagan jinoyatchilarning yarmidan ko'prog'iga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo belgilangan.

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi ayollar jinoyatchiligiga oid ma'lumotlar ham diqqatga sazovor. 2142 o'smirdan 113 kishi (5, 35%) ayol jinsiga mansub bo'lgan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining hududiy taqsimlanishini o'rganish kriminologik ahamiyatga molik bir qancha tendensiyalarni namoyon etadi.